

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**Qo'lyozma huquqida
UDK: 16-5A120301-02**

PATXIDDINOV RUXIDDIN XUSNIDDIN O`G`LI

**Farg'ona vodiysida ipakchilik tarixi
(XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr birinchi yarmi)**

5A120301 – O'zbekiston tarixi

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:
t.f.d., prof. A.N. Rasulov**

NAMANGAN – 2016

MUNDARIJA:

Kirish.....	3-9
I bob. Ipakchilikning vujudga kelishi tarixi.....	10-27
1.1. Ipak mato ishlab chiqarish tarixi.....	10-18
1.2. Farg'ona vodiysida ipakchilikning vujudga kelishi.....	18-26
I bob bo'yicha xulosa.....	27
II bob. Farg'ona vodiysida ipakchilikning rivojlanishi.....	28-43
2.1. Farg'ona vodiysi shaharlari – ipakchilik markazlari.....	27-33
2.2. Farg'ona vodiysida ipak savdosi.....	34-42
II bob bo'yicha xulosa.....	43
Iii bob. Rus mustamlakachiligi davrida Farg'ona vodiysida ipakchilik ahvoli.....	44-73
3.1. Farg'ona vodiysida ipakchilik tarmog'ining Rossiya manfaatlariga bo'ysundirilishi.....	44-53
3.2. Farg'ona vodiysida ipak qurti urug'i yetishtirilishi.....	53-59
3.3. Ipakchilikning ilmiy o'rganilishi.....	59-72
III bob bo'yicha xulosa.....	72-73
Xulosa.....	74-77
Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati.....	78-83
Ilova.....	84-85

Kirish

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va asoslanishi. Mustaqillik yillarida umumjahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lgan Vatanimiz tarixini, xususan, uning davlatchilik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tarixini har tomonlama haqqoniy yoritish imkoniyati yanada kengaydi. Xalqimizning qadim tarixiga xolisona va haqqoniy baho berish tarixchilarimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Zero, Prezidentimizning «Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur»¹,– degan fikrlari tarixchilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Shuningdek, «... biz tarixiy xalq an'analari, urf-odatlar va marosimlari asosida odamlar ongini shakllantirish omillarini kuchaytirishimiz zarur»², deb qayd etishlari ham o'ziga hos ahamiyatga ega. Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixchilari oldida haqqoniy va dolzarb mavzular bo'yicha tarixning yoritilishi lozim bo'lgan masalalari ko'lamini ham aniqlandi. Mustabid sovetlar hukmronligi davrida, kommunistik mafkura ta'sirida o'zbek xalqi tarixida kechgan jarayonlar sinfiylik, partiyaviylik prinsiplari asosida ma'muriy-buyruqbozlik tizimi manfaatlariga bo'ysundirilgan holda soxtalashtirildi, noto'g'ri talqin etildi. Bu davrga oid tadqiqotlarda o'zbek xalqi tarixining ayrim muammolari umuman chetlab o'tildi.

Bugungi zamon mustabid sovet tuzumi mafkurasi asoratlariga, eskicha fikrlashga barham berish, tarixiy voqealar va jarayonlarni baholashda milliy manfaatlardan kelib chiqish zarurligini talab qilmoqda. O'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixini umumjahon taraqqiyoti nuqtai nazaridan, aniq tarixiy dalillarga tayanib, xolis va ilmiy asosda tadqiq etib, xalqqa yetkazish zaruriyati paydo bo'ldi.

¹ Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажакни ўз қўлимиз билан қураимиз. 7–жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 132–155.

² Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 89.

Mustaqillikka erishgan respublikamiz milliy madaniyatining tezkorlik bilan rivojlanishi, tabiiy ravishda uning asosiy manbai bo‘lmish madaniy merosimizni keng va chuqur hamda ilmiy asosda izchil o‘rganishimizni taqozo etadi. O‘zbekiston tarixini tadqiq etishda o‘lkamizda mavjud bo‘lgan ipakchilik masalasi alohida o‘rin tutadi.

Ajdodlarimiz bizga nodir va bebaho meros qoldirdilarki, bu meros qatoriga tut navlarini yaratish, o‘stirish, ipak qurti boqib pilla yetishtirish, pilla chuvib ipak olish va undan matolar to‘qish mahorati ham kiradi. Shu tufayli bizning ma'naviy burchimiz — o‘tmish meroslarini e'zozlash va unga insoniy hurmat ko‘zi bilan qarashdan iborat.

Ipakchilik qishloq xo‘jaligi va yengil sanoatning tarmoqlaridan biri bo‘lib, tut-ipak qurtining mahsuloti bo‘lgan pilla yetishtirish, pilladan ipak xom ashyosi bo‘lmish tabiiy ipak tola olish va ipak, shoyi gazlamalar to‘qish jarayonidir. Ma'lumki, O‘rta Osiyoda ipakchilik qadimdan mavjud. O‘z navbatida, Farg‘ona vodiysida ipakchilik qadimdan mavjud bo‘lib, o‘lkaning tashqi savdosida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bugungi kunda milliy hunarmanchilik turlariga, ularning qaytadan tiklanishiga alohida e'tibor qaratilgan bo‘lib, ipakchilik sohasini tadqiq qilinishi ham dolzarb ahamiyat kasb etgan.

Tadqiqotning ob'yekti va predmeti. Farg‘ona vodiysida ipakchilikning rivojlanishi masalasini tahlil etish tadqiqotning ob'yekti va predmeti sifatida tanlab olindi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning davriy doirasidan kelib chiqib, mazkur muammoning ko‘p qirraliligi va yaxlit tarzda ishlanmaganligini e'tiborga olib, Farg‘ona vodiysi ipakchilikning rivojlanishi tarixini tadqiq etish va umumlashtirish magistrlik dissertatsiya ishining asosiy maqsadi qilib olindi.

Ushbu maqsadga quyidagi vazifalarni bajarish orqali erishish nazarda tutildi:

- Ipak ishlab chiqarishning vujudga kelishi tarixini o‘rganish va milliy matolarimizni tahlil etish;

- Farg'ona vodiysida ipakchilik sohasining vujudga kelishini va mahalliy xalqlar hayotidagi ahamiyatini o'rganish;
- Farg'ona vodiysida ipakchilikning rivojlanishini qo'shni hududlar bilan o'zaro solishtirish;
- Farg'ona vodiysining ichki va tashqi savdosida ipak mahsulotlarining ahamiyatini aniqlash;
- Rossiya imperiyasi tomonidan ipakchilikning metropoliya manfaatlariga bo'ysundirilishini o'rganish;
- Farg'ona vodiysida ipakchilikning bevosita Yevropa mamlakatlariga qaram bo'lib qolishini o'rganish;
- Farg'ona vodiysida ipak sanoatining rivojlanishida ipak qurti urug'i yetishtirishning o'rni;
- kommunistik mafkura hukmronligining ipakchilikka ta'sirini o'rganish va tahlil qilish;
- ipakchilikning ilmiy o'rganilishi va uning Farg'ona vodiysiga ta'sirini tahlil etish;
- tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda nazariy hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va hokazo.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Farg'ona vodiysida ipakchilikni paydo bo'lishi, rivojlanishi, Farg'ona vodiysi shaharlarining ipakchilik markazlariga aylanishi, pilla va ipak matolarning ichki va tashqi savdodagi ahamiyati, rus mustamlakachiligi va sovetlar hukmronligi davrida ipakchilikni rivojlanishini va boshqa jihatlarini yoritish va ilmiy xulosa qilish tadqiqot oldiga qo'yilgan asosiy masala va farazlar hisoblanadi.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. XIX asr 2-yarmi – XX asr 1-yarmi Farg'ona vodiysida ipakchilik tarixi mavzusi alohida tadqiqot ob'yekti sifatida hozirga qadar o'rganilmagan bo'lsada, bu davrda pilla yetishtirish, ipak mato to'qish, ipak savdosi ayrim tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lgan.

Ushbu tadqiqot tarixi yoritilgan ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Rossiya imperiyasi hukmronligi davriga oid tadqiqotlar.
2. Sovet davri adabiyotlari.
3. Mustaqillik davrida nashr etilgan ilmiy tadqiqotlar.

Birinchi guruhga mansub adabiyotlarning mualliflari asosan rossiyalik olimlar, harbiylar, sayyoh va elchilar hisoblanib, ular XIX asr o`rtalaridan boshlab O`rta Osiyo xususan, Farg`ona vodiysini atroflicha o`rganishga harakat qilganlar. Ularning asarlarida asosiy e`tibor Qo`qon xonligining umumiy tavsifiga qaratilib, Farg`ona vodiysida ipakchilik tarixi to`g`risida ayrim ma`lumotlar qayd qilingan.

Birinchi guruhga mansub adabiyotlarning mualliflari jumlasiga N. Petrovskiy, A. Kun, V.V. Bartol`d, A. P. Xoroshxin, I. I. Golovin, A. Tixomirov, A. Middendorf, V. P. Nalivkin, X. A. Vamberi, D. Dolgorukiy, P. I. Demezov, Meyendorf, A. Byorns, L. Kostenko va boshqalarni kiritish mumkin³.

Ikkinchi guruh adabiyotlarini sovet davrida yaratilgan asar va tadqiqotlar tashkil qiladi. Bu davrda mavzu yuzasidagi masalalarda oid tadqiqotlar olib borgan olimlar jumlasiga Sh. Abduqodirov, S. Ibrohimov, G. Ioffe, G. Korobkova, A. Mironov, K. Pajitnov, E. Poyarkov, G. Pugachenkova, L. Rempel, M. Trudov, V. Degtyar, N. Hafizov, M. Yurovetskiy kabilarning asar va tadqiqotlarini kiritish mumkin⁴.

³ Бартольд В. В. Фергана // В. В. Бартольд. Соч. Т. 3. – М.: Наука, 1965. – С. 527–539; Бёрнс А. Путешествие в Бухару. – 1848.; Вамбери А. Путешествие по Средней Азии (пер. З. Д. Голубевой). – М.: Восточная литература, 2003; Головин И. И. Кустарные промыслы Туркестана // Вестник выставки. – 1909 г. – Ташкент, 1909; Демезон П. И. Записки о Бухарском ханстве. – М.: Наука. 1983 – 63 с; Долгорукий Д. Пять недель в Кокане // Русский вестник. – 1871. – №1. – 42 с.; Костенко Л. Туркестанский край. Том I. – СПб.: Тип. Траншея, 1880. – 452 с.; O`sha muallif. Туркестанский край. Том II. – СПб.: Тип. “Общественная польза”, 1880. – 261 с.; Кун А. Л. Очерк Коканского ханства. – СПб., 1976; Миддендорф А. Ф. Очерки Ферганской долины. Перевод с немецкого В. И. Ковалевского. – СПб., 1882. – 604 с.; Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975. – 164 с; Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – Москва, 1968. – С. 49.; Наливкин В. П. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886. – 215 с.; Федченко А. Кокандском ханстве. – СПб., 1875. – 160 с.; Тихомиров А. Основы практического шелководства. – М., 1914. – 104 с.; Хорошхин А. П. Сборник статей касающихся по Туркестанского края. – СПб., 1876. – 533 с.

⁴ Абдукодиров Ш. Ипак курти. – Т.: Фан, 1980. – 84 б.; Иброхимов С. Ўзбекистон ипакчилик тарихига доир // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – 1964. – №8–9. – Б. 101–107; Иоффе Г. Из истории шелководства Средней Азии // Шелк. – 1964. – №3. – С. 24–26; Коробкова Г. Ф. Отпечатки тканей на керамике (по материалам Делварзина, Эйлатана и Дарауткурмана) // Древнеземледельческая культура Ферганы. МИА-118.

Farg'ona vodiysi tarixiga oid sovet davri adabiyotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda kechgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlar kommunistik partiya mafkurasiga bo'sundirilgan holda, sinfiylik nuqtai nazaridan o'rganilgan.

Tadqiqot mavzusiga doir adabiyotlarning **uchinchi guruhini** istiqlol davrida nashr etilgan ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixining turli davrlari, xususan, XIX asrning 2-yarmi – XX asrning 1-yarmi tarixi ham yangicha qarash va yondashuvlar asosida o'rganila boshlandi. XIX asr 2-yarmi – XX asr 1-yarmi Farg'ona vodiysi hunarmandchiligi, tashqi va ichki savdosi, Rossiya tomonidan bosib olinishiga bag'ishlangan turli asarlar, tadqiqotlar va maqolalar chop etildi. Bunday tadqiqotlar jumlasiga H. N. Bobobekov, H. Z. Ziyoyev, D. Ziyoyeva, Sh. Abduqodirov, G. A. Agzamova, Z. Sh. Madrahimov, E. V. Rtveladze, B. Matboboyev, S. Mahkamova, M. M. Muhammedov, S. Egamnazarov, A. Isroilov, N. Alimova kabilarning asar, dissertatsiya va maqolalarini kiritish mumkin⁵.

– Москва-Ленинград. – С. 231–234; Миронов А. Кустарная выработка шелковичных изделий в Средней Азии в прошлом и настоящем // За реконструкцию шелководство. – 1931. – №3–4. – С. 41–44; Пажитнов К. А. Очерки истории текстильной промышленности дореволюционной России. – М., 1958. – 420 с.; Поярков Э. Ф. Тутовый шелкопряд. – М., 1929. – 86 с.; Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И. Очерки искусства Средней Азии. – М., 1982. – 259 с.; Трудов М. А., Дегтярь В. И. Производство коконов в Средней Азии. – Ташкент, 1942. – 124 с.; Хафизов Н. Шелководство Средней Азии. – Ташкент, 1969. – 108 с.; Юровецкий М. И. Десятый год работы Туркшёлка // Среднеазиатский шелк. – 1928. – №2–3. – С. 28–31.

⁵ Абдукодиров Ш. Пиллачилигимиз тарихидан лавҳалар. – Т.: Фан, 2000. – 151 б.; Абдулгазиева Б. О качестве древней Фергане // Материалы республиканской научно-практической конференции «Великий шелковый путь и Ферганская долина». – Ташкент, 2004. – С. 44–48.; Алимова Н. “Туркшелк” ва унинг Туркистонда ипакчиликни ривожлантиришдаги фаолиятига доир // «Фарғона водийси тарихи муаммолари» мавзuidaги Республика илмий анжумани материаллари. – Наманган, 2012. – Б. 247–250.; Агзамова Г. Марғилон хунармандчилигига оид айрим маълумотлар // Марғилон шахрининг Жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. Марғилон шахрининг 2000 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференция материаллари. – Тошкент–Марғилон, 2007. – Б. 112–115.; Богомоллов Г. Ошкор бўлган уч сир // Фан ва турмуш. – 2007. – №5–6. – Б. 12–14.; Мадрахимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари: Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети, 2009. – 159 б.; Матбобоев Б. Фарғона тўқимачилигининг тарихий илдизлари // Фан ва турмуш. – 2007. – №5–6. – Б. 22–26.; Матбабаев Б., Чжао Ф. Ткани и одежда раннесредневековой Ферганы (по материалам могильника Мунчактепа в Узбекистане). – Пекин, 2010. – 186 с.; Ртвеладзе Э. В. Великий шелковый путь. – Тошкент: Государственное научное издательство «Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси», 1999.; Маҳкамова С. Марғилон атласи // Фан ва турмуш. – 2007. – №5–6. – Б. 34–37.; Мухамедов М. М. Буюк ипак йўли – маданиятларни бирлаштирувчи йўл // Ипак. – 1996. – № 3. – Б. 54–56.; Шамсиев М. Б. Қўқон хонлигининг Дашт қўчманчилири билан ўзаро савдо муносабатлари // “Фарғона водийси тарихи муаммолари мавзuidaги Республика илмий анжумани материаллари. – Наманган, 2012. – Б. 139–142.; Эгамназаров С., Исроилов А. Ипак курти уруғи етиштиришда хорижий мутахассисларнинг роли (XIX аср охири – XX аср бошларида Фарғона водийси мисолида) // Марғилон шаҳри ўтмиши, бугуни ва эртаси мавзuidaги Республика илмий семинар материаллари. –

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, xolislik, davriy izchillik, qiyosiy, tanqidiy, mantiqiy va xronologik, semantik va pragmatik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyasidan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda “O'zbekiston tarixi” fanidan hamda oliy o'quv yurtlari Tarix yo'nalishi talabalari uchun “O'zbekiston tarixi” va “Qo'qon xonligi tarixi” fanlaridan ma'ruza matnlari tayyorlashda, amaliy mashg'ulotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- ipakchilikning, xususan, pilla yetishtirish va ipak mato to'qishning Farg'ona vodiysida paydo bo'lish tarixi o'rganildi;
- ipakchilikning Farg'ona vodiysi xalqlari hayotida tutgan o'rni yoritib berildi;
- Farg'ona vodiysining ipakchilik markazlaridan biriga aylanishi ko'rsatib berildi;
- Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining ipakchilikka ta'siri o'rganildi;
- O'zbekistonda kommunistik mafkura hukmronligining ipakchilikka ta'siri o'rganildi;
- Farg'ona vodiysining ipakchilik sohasida Yaponiya, Fransiya va boshqa chet mamlakatlar bilan o'zaro aloqalari ko'rsatib berildi;
- ipakchilikni rivojlantirish uchun olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va ularning Farg'ona vodiysida joriy etilishi ko'rsatib berildi.

Farqona, 2007. – B. 84–85.; Сагдуллаев А., Мавлонов Ў., Аминов Б., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 1-қисм. – Т., 2000. – 246 б.; Чўллийев Ш. Б. XIX аср охириги чораги – XX аср бошларида рус–хинд муносабатларида Ўрта Осиё (“Туркистон тўплами” материаллари асосида): Тарих фан. номз. дисс. – Т., 1994. – Б. 74; Зиёева Д. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошда Чоризмнинг Туркистон моддий бойликларини узлаштириш сиёсати // Ўзбекистон тарихи. – 2000. – №1. Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Т.: ЎЗМЭ, 2007.

Tadqiqotning manbalari. Tadqiqotning asosiy manbalari bo`lib vaqtli nashrlari materiallari, turli davrlarda yozilgan monografiyalar, adabiyotlar va ilmiy maqolalar to`plamlari xizmat qildi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari. Mavzuni yoritish jarayonida tarixiy yondoshuv va qiyosiy tahlil, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning nutq va ma'ruzalari, nashr etilgan maqola va asarlarida ilgari surilgan Vatan tarixini manbalar asosida haqqoniy o`rganish, tarixiylik, xolislik, uzviylik tamoyillariga asosiy e'tibor qaratildi. Ilmiy tadqiqot olib borishning ob'yektivlik-xolislik, ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishidagi o`zaro aloqadorlik, tizimlilik, rivojlanish kabi ilmiy tamoyillarga, kompleks-statistik qiyosiy solishtirish (tarixiy jarayonlarga murojaat qilish) usullariga, umuminsoniy tafakkur qoidalariga, insonparvarlik g'oyalariga hamda milliy istiqlol g'oyasiga asoslanadi.

Tadqiqotning davriy chegarasi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davr olindi. Chunki bu davrda Farg'ona vodiysida ipak ishlab chiqarish rus va sovet mustamlakachiligi sharoitidagi bir qator qiyinchiliklarga qaramasdan rivojlandi va xalq xo'jaligida o'z o'rniga ega bo'ldi.

Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, yetti paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati, 82 bet va ilovalardan iborat.

I bob. Ipakchilikning vujudga kelishi tarixi

1.1. Ipak mato ishlab chiqarish tarixi

Eng qadimgi davrlardan boshlab odamlarda kiyimga ehtiyoj tugʻilgan. Kiyim tayyorlash uchun foydalanilayotgan matoga koʻp narsa bogʻliq. Hozirgi kunda teri, paxta, jun, ipak va sunʼiy tolalardan mato tayyorlanadi. Ular orasida ipak matolar oʻzining jilosi, pishiqligi, bejirimligi, ayniqsa, chiroyi bilan ajralib turadi. Ipak qadimdan odamlar hayotida muhim oʻrin tutadi. 1877-yilda nemis olimi F. Rixtgofenning tomonidan “Xitoy” asarida mil. avv. II – milodiy XVI asrlarda Sharq bilan Gʻarbni bogʻlovchi asosiy yoʻlga “Buyuk ipak yoʻli” nomini berishi ipakning ahamiyati naqadar kattaligini koʻrsatadi.

Insoniyat qachondan ipak yetishtirish va undan mato toʻqishni boshlagan degan haqli savol tugʻiladi? Koʻpchilik manbalarda taʼkidlanishicha, pillachilik va pilladan ipak olish hunarining vatani Xitoy boʻlgan. “За Рубежом” jurnali (1984 yil)ning dalolat berishicha, pillachilik miloddan avvalgi 2640-yilda (yaʼni bundan 47 asr muqaddam) imperator Xuan Yuan va uning umr yoʻldoshi Xi Lin Shi hukmdorliklari davrida yuzaga kelgan⁶. Malika qizi bilan bogʻda tut daraxti soyasida choy ichib oʻtirishsa, piyolasiga tut daraxtidan bir dona pilla tushib eriy boshlaydi. U pillani olmoqchi boʻlganda pilla choʻzilib uzun, ingichka ip bera boshlaydi. Tepaga qarasa, ipak qurti, chiroyli ingichka ip toʻqiyotganini koʻradi. Shunday qilib, malika qizi Lun Chen bilan ipakni kashf qilgan⁷. Ipakdan hayratga tushgan malika darhol xizmatchilarini chaqirib, ipak ipni oʻrash va yigirib oʻziga gazlama toʻqishni topshiradi. Malika oʻlimidan soʻng ipakchilik xudosi va himoyachisi, ipak qurti esa “kichik imperator” deb eʼlon qilinadi. Tut daraxti esa quyosh va hosildorlikni ifodalovchi “muqaddas daraxt” hisoblandi.

Xitoy adabiyotlarida pillachilik dastavval, bundan 4–5 ming yil ilgari Xitoyda paydo boʻlgan, keyin Turkiston va Yevropa davlatlariga tarqalgan deb

⁶ Муҳамедов М. М. Буюк ипак йўли – маданиятларни бирлаштируви йўл // Ипак. – 1996. – №3. – Б. 54.

⁷ Maqsudov R. X., Nayitov I. S. Toʻqimachilik tarixi. – T., 2015. – B. 109.

yoziladi⁸. Buning isboti uchun bir nechta ma'lumotlar keltiriladi. Masalan, 1958-yilda Chjejyang viloyati Usin tumanidan topilgan buyumlar orasida ipak mato va belbog' ham bo'lgan. Hozircha ular Xitoy hududidan topilgan eng qadimiy ipak matolar hisoblanadi. Bu matolar tadqiq etilganida, ular miloddan avvalgi XXVII asrda, ya'ni bundan 4700 yil avval to'qilgan ekan.

Xitoy olimlari tomonidan ipakchilikning qaysi hududda paydo bo'lgani to'grisida uch xil fikr mavjud. Birinchisi, ipakchilik dastlab Xuanxe daryosi bo'yida paydo bo'lgan. Bundan 4–5 ming yil oldin Xuanxe daryosining yuqori va o'rta oqimida turkiy xalqlar yashagan, xitoylar esa mazkur daryoning quyi oqimi janubida yashaganlar. Bu holda Xuanxe daryosi bo'yidagi ipakchilik madaniyati Xitoyga tegishli bo'lmay qoladi. Ehtimol bu, ipakchilik Yanszi daryosi bo'yida paydo bo'lgan degan ikkinchi nazariyaning paydo bo'lishiga olib kelgandir. Uchinchi esa, bir vaqtning o'zida bir qancha hududlarda paydo bo'lgan. Biz uchinchi fikrni to'g'ri deb o'ylaymiz. Chunki, tut daraxti Xitoyning bir necha viloyatlarida, Xeshi yo'lagida, Taklamakon vohasida, Pomirning g'arbiy tomonidagi bir qancha joylarda o'sgan.

Xitoy imperatori U Di miloddan avvalgi 139-yilda o'z zobiti Chjan Syanni aloqa o'rnatish uchun g'arbga yuboradi. Natijada, miloddan avvalgi II–I asrlarda Buyuk ipak yo'li paydo bo'ladi va Xitoy Markaziy Osiyo, Hindiston va keyinchalik Eron, Suriya, hatto Rim imperiyasi bilan ham aloqa o'rnatadi. Shu davrdan e'tiboran, Xitoydan boshqa davlatlarga ipak mato chiqa boshlanadi. Chet mamlakatlarda ipak nihoyatda qadrlangan. Masalan, 1 funt (qadoq)⁹ ipak mato Vizantiyada 8 bo'lak oltinga sotilgan.

Lekin, ipak qurti boqish va pilladan ipak chuvish hodisasini xitoyliklar bir necha yuz yil mobaynida milliy sir tariqasida qonun bilan muhofaza qilganlar. Mamlakatdan ipak qurtini olib chiqishga uringan yoki pilladan ipak olish texnologiyasini oshkor etgan kishi qonun bo'yicha qattiq jazolangan, hatto qatl

⁸ Хўжаев А. Буюк ипак йули: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – Б. 90.

⁹ Izoh: 1 funt = 1 qadoq = 409,512 gramm (Qarang: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент, 2000. – Т. 1. – Б. 488.)

etilgan. Shu tariqa bu mamlakat ipak mahsulotini chetga sotib, ko'p foyda ko'rgan¹⁰. Xitoyliklar shoyi tayyorlashning uchta sirini qattiq sir saqlashgan.

Birinchisi – ipak qurti yetishtirish va pilla olish.

Ikkinchisi – pillani chuvatib ipak hosil qilish. Darvoqe, Xitoyning o'zida buni darhol uddasidan chiqa olishmagan. Dastlab pillani chuvatib emas, balki kapalak qurtidan ipak massani siqib chiqarish yo'li bilan ipak olingan.

Uchinchi sir – mato yoki ipakni bo'yash, aniqrog'i, ipakka bo'yoq singdirishdir. So'g'dliklar dastlabki ikki texnologiyani o'zlashtirib mato tayyorlaganlar, lekin ulardagi suratlar rangi Xitoy matolaridagiga qaraganda tezroq aynigan¹¹.

Pilla yetishtirish va ipak mato to'qish siri qanday qilib boshqa davlatlarga tarqalgani to'g'risida turli ma'lumotlar bor. Vizantiya manbalariga ko'ra, shoyi savdosida eronliklarning qarshiliklari tufayli mushkul ahvolda qolgan imperator Yustinian huzuriga ikki monax kelib, o'z xizmatlarini taklif etishgan, ya'ni ular sayohatlari davomida ipak qurti boqib pilla olish usullarini yaxshi o'rganib olishgan edi. Ularning bundan keyingi faoliyati sanoat josusligiga misol bo'la oladi: ular ipak qurtini hassa dastasining ichidagi kovagiga yashirib, Konstantinopolga olib borishgan. So'ng bahorda tuxumdan chiqqan kapalak qurtini oziqlantirish uchun tut daraxtiga qo'yib yuborishgan, ma'lum vaqtdan so'ng kapalak qurtlari pilla o'ragan. Shoyi olishning siri shu tarzda oshkor bo'lgan¹². Biroq, monaxning ipak qurtini qayerdan olib kelganligi hozircha ma'lum emas.

Rivoyatlarga qaraganda, Xo'tan shahzodasiga turmushga chiqqan Xitoy zodagonining qizi o'z jonini xavf ostida qoldirib, turmush o'rtog'iga sadoqati sifatida sochining turmagi ichida ipak qurti tuxumini yashirib, Xo'tanga olib kelgan va shu tariqa bu viloyatda ham pillachilik yo'lga qo'yilgan. Xo'tan shahri Xitoyning Uyg'ur avtonom rayonida joylashgan. U ba'zi tarixiy manbalarda Serinda deb atalgan. Yunoncha “serin” so'zi “ipak” degan ma'noni bildiradi.

¹⁰ Абдуқодиров Ш. Ипак қурти. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 37.

¹¹ Богомолов Г. Ошкор бўлган уч сир // Фан ва турмуш. – 2007. – №5–6. – Б. 12–14.

¹² Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый путь. – Тошкент: Государственное научное издательство «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 1999. – С. 15.

Tarixiy manbalarda, Xitoydan Parfiya va Rimga ipak mato yetkazib beruvchi “ser” lar haqidagi ma’lumotlar saqlanib qolgan. Ko’pchilik mutaxassislar tomonidan serlar Sharqiy Turkistonda yashagan xalq sifatida ko’rsatiladi¹³.

So’nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlar ipakning qadimdan turli hududlarda mavjud bo’lganini ko’rsatmoqda. Masalan, so’nggi tadqiqotlarda bundan 4500 yil oldin Hindistonda ham ipak mavjud bo’lgani aniqlandi. Garvard universiteti tadqiqotchilari ipak tayyorlash texnologiyasi Xitoy bilan bir vaqtda hind diyorida ham kashf qilingani to’g’risidagi ma’lumotni “Arkiometri” jurnali orqali ma’lum qildilar. Yangilik chin o’lkasi bu sohaning ilk ixtirochisi, degan qarashni yo’qqa chiqarishi mumkin. Ko’hna sivilizatsiya markazlaridan biri sanaladigan hind makonidagi Xarappa va Chanxudaro tarixiy shaharlaridan topilgan marjon va boshqa taqinchoq qoldiqlarini o’rgangan olimlar yuqoridagi fikrni ilgari surmoqdalar. Xarappa ipagining ishlab chiqarish jarayoni xitoyliklarnikiga o’xshab ketsa, Chanxu-daroliklar yasagan mahsulot haqida hozircha aniq xulosa chiqarilmagan.

O’zbekistonda pilla yetishtirish va ipak mato to’qishning qachon paydo bo’lgani to’g’risida aniq ma’lumotlar yo’q. Yozma manbalar va arxeologik dalillarga ko’ra, ipakchilik O’rta Osiyoda IV–V asrlardan paydo bo’lgan deb hisoblanardi. Ammo, arxeolog akademik Ahmadali Asqarov tomonidan Sopolli-tepa, Ko’lbuloq, Joytun, Bama, Nayzatepa kabi joylarda miloddan avvalgi XVI–XII asrlarga oid qabrlarni qazib o’rganilganda, u yerdan pilla, ipak matolar va ipak mato to’qiydigan dastgoh topilgan. Bunday topilmalar Panjikent va O’ratepa (Tojikiston), To’g’loqdepa (Turkmaniston) kabi joylarda ham topilgan. O’zbekiston hududidan topilgan ipak matolar Toshkent To’qimachilik institutida yangi zamonaviy texnika uslublar vositasida o’rganilganda. ular Xitoydan olib kelinmay

¹³ Мавлонов У.М. Марказий Осиенинг кадимги йуллари: шаклланиши ва ривожланиш боскичлари. – Т.: Академия, 2008. – Б. 109.

O'zbekistonda to'qilgani aniqlandi. Ayrim hududlarda tut yog'ochi bo'laklari va tut bargi ham topilgan¹⁴.

Ipakchilik O'zbekistonda qachondan paydo bo'lganidan qat'iy nazar, ipak matolar o'zbek xalqi hayotida muhim o'rin tutadi. Ipak qurti "7 xazina"ning biri sifatida ulug'lanadi¹⁵. Usta hunarmandlar sof ipakdan – atlas, shoyi, xonatlas, kanoviz, ipak va paxtani aralashtirib – adras, beqasam, banoras, parpasha kabi matolarni to'qiganlar. Bizgacha yetib kelgan o'zbek milliy kiyimlari va matolari XIX – XX asrga oid. Milliy matolarimiz rang-barangligi bilan ajtalib turadi, chunki har bir viloyatning o'ziga xos bezaklari va rang tanlash usuli bo'lgan¹⁶.

Shoyi XIX–XX asr 1-yarmida O'rta Osiyoning barcha ipakchilik rivojlangan markazlarida ishlab chiqarilgan. Shoyining arqoq va tanda iplari bir xil ingichka ipak iplardan iborat bo'lib, sodda to'qilgan: har bir arqoq ip orasiga tanda iplar tushgan, yuzasi silliq, o'ng-tersi bir xilda bo'lgan; eni 33-35 sm, XX asrning 30-yillaridan 50-54 smga kengaygan. Shoyining gulsiz sidirg'a, gulli (abr gulli), yo'l-yo'l, katak gulli xillari ma'lum. Turli ipakchilik markazlarining shoyilari qalin yupqaligi, gullari, rangi bilan farqlangan. Farg'ona vodiysida to'qilgan shoyilar yupqa va pishiqligi, yumshoq va mayinligi bilan boshqa shoyilardan farq qilgan; abr gullari to'qinsimon yoki uslublashtirilgan novda, gul shaklida, rangi binafsha, sariq, feruza, kulrang. Buxoro shoyisi esa qalin to'qilgan, tanda iplari zichligi tufayli qattiq, g'ijimlanmaydigan hamda suv o'tkazmaydigan bo'lgan; gullari katta doira, tuxumsimon shakllarda, ikki chetlari qator yo'llar, "S" yoki to'lqinsimon chiziqlar bilan hoshiyalangan; rangi ko'proq qizil va sariq, oq, zafarmon, och nastarin, feruza ranglarida bo'yalgan. XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida yo'l-yo'l shoyilar keng tarqalgan. Binafsha, oq, qora va tillarang – sariq yo'lli shoyidan kiyim kiyish urf bo'lgan. Shoyidan kishilik ko'ylaklar belbog', erkak va ayollarning zarchopon va baxmal to'nlari astari tikilgan, badiiy buyumlar –

¹⁴ Хўжаев А. Буюк ипак йули: муносабатлар ва тақдирлар..... – Б. 95.

¹⁵ www.ziyouz.com/index.php?option=com_content&task=view&id=4895.

¹⁶ Ўзбек миллий кийимлари XIX – XX асрлар / Тўплаб нашрга тайёрловчи, матнлар муаллифи Н.Содиқова. -Т.:Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. 5 б.

so'zana, choyshab, kashta va boshqalarga ishlatilgan. Shoyi Buxoroda XX asr boshlarigacha, Farg'ona vodiysida XX asr 60-yillarigacha ishlab chiqarilgan.

Atlas (mutloq silliq) –shoyi va yarim shoyi (arqoq sifatida jun yoki lyen ip ishlatilgan) sirti silliq yaltiroq atlas o'rilishidagi gazlama. Bu gazlamada arqoq va tanda bir-biriga nisbati 1:5, ya'ni gazlama o'rilishida arqoq ipi tanda ipiga nisbatan gazlama sirtida besh marta kam paydo bo'lganligi tufayli, gazlamaning sirtida mukammal silliq hosil bo'ladi. Atlas usulidagi o'rilish dastlab Xitoyda yaratilgan. Yevropada xitoy atlaslari – akifadan keng foydalanilgan. Atlas gazlamasini keng ishlab chiqarish XVI–XVII asrlarda Eronda ko'p ishlab chiqarildi. Atlas gazlamasining sidirg'a, naqshli, jiloli, og'ir, nafis, shaffof va boshqa turlari ma'lum. Rossiya qiroli Boris Godunov davrlarida gazlamalarning atlas o'rilishi “otlas” deb atalgan. Atlas gazlamasi kiyim-kechak, ro'mol, galstuk, oyna va eshik pardalari, mebel qoplamalari, cherkovning qimmatbaho liboslariga ishlatilgan. XIX asrning birinchi o'n yilligida ayollar atlasni deyarli ishlatmay qo'ydi, erkaklar kiyimida qisman foydalanilgan. Biroq, XX asrning 20-yillardan boshlab, XX asrning oxirigacha atlas gazlamasi modadan chiqmadi, lekin uning yangi nusxalari paydo bo'la boshladi. Atlas to'qish Marg'ilonda qadimdan rivojlangan. Atlasning tabiiy ipakdan to'qilgan eng a'lo navi sakkiz tepkili xonatlas deb ataladi. O'zbekiston atlaslari respublika hududidan tashqari – xorijiy mamlakatlarda ham mashhur. 1967-yilda Monrealda o'tkazilgan Xalqaro ko'rgazmada, 1978-yilda sobiq Yugoslaviyaning Zagreb shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro yarmarkada xonatlas Oltin medal bilan mukofotlangan edi¹⁷.

Shoyi gazlamalar turiga kiruvchi “Gaz” ingichkaligi 1.20 mmdan kam bo'lmagan xom ipak va kalava ipdan ishlab chiqariladi. Bu gazlamaning arqoq va tanda iplari bir-biri bilan bog'langanda zich joylashmaydi, balki iplar orasida maxsus moslama bilan qisman bo'sh joy qoldiriladi. Mumtoz gaz o'rilishida ikkita tanda ipi bitta arqoq ipi bilan o'riladi. Bunday usulda ishlab chiqarilgan gazlama juda yengil va yarim shaffof bo'ladi. Gazlama nafaqat sidirg'a, balki naqshli ham

¹⁷ Qarang: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент, 2000. – Т. 1. – Б. 488.

ishlab chiqarilgan. Shuning uchun unga polotno o'rilishi emas, balki diagonal o'rilishi ham qo'llanilgan. Natijada gazlama sirtida qiya xoshiyalar hosil bo'lgan. Gazlamaning turlari, unga ishlatiladigan xomashyoga bog'liq. Gaz-marabu pishitilgan xom ipakdan ishlab chiqarilgan. Shuning uchun tilla rangli gaz gazlamasi boshqa turdagi gaz gazlamasiga nisbatan birkroq bo'lgan. Gaz-sholi, xom ipakni pishitmasdan ishlab chiqarilganligi uchun mayinligi bilan ajralib turadi. Gaz-illyuzion juda ham ingichka ip kalavadan ishlab chiqarilgan, shuning uchun ham, u shaffof ko'rinishda ishlab chiqarilgan.

Kanaus yoki kanoviz sof ipakdan to'qilgan. Kanoviz matosi bir necha hunarmandlar ishtirokida tayyorlanadi. Ipak ipga chizmakash gullarni abrbandi usulida chizib beradi, to'quvchi bo'yalgan ipdan mato to'qiydi. Farg'ona kanovizlari qo'shni xonliklarda juda qadrlangan. Buxoroda shoxi nomi bilan ham atalgan. Kanoviz gazlamasi savdogarlar kiyimlarini va ayrim milliy liboslarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladi.

Obyar shoyi gazlamaning qadimiy turi bo'lib, unga tilla yoki kumush rangli metall iplar qo'shib to'qilgan va maxsus ishlov berilishi natijasida uning sirtida jilo paydo bo'lgan. Bunday turdagi shoyi gazlamalar bir xil rangli bo'lib, uning sirti yorug'lik manbaiga qarab tovlangan. (Naqshli nafis shoyi gazlama bo'lib, uning sirtida to'qimachilik ornamenti bo'ladi).

Parcha so'zi fors tilida material degani bo'lib, u murakkab naqshli, tanda ipiga ipak, arqoq ipiga kumush va tilla rangli metall iplardan foydalaniladi. Tilla va kumush iplari parcha gazlamasiga qadimda qo'llanilgan, hozirda kimyoviy tolalarning tilla va kumush rangli turlaridan foydalaniladi. Odatda, yaltiroq kimyoviy iplar ipak va ip kalavalarning sirtini o'ragan holda eshib, unga muloyimlik egiluvchanlik, yaltiroqlik bag'ishlaydi. Parcha gazlamasini ishlab chiqarish eramizning dastlabki yillarida Xitoyda yo'lga qo'yilgan. U yerdan bu san'at Kichik Osiyo davlatlari (Suriya, Eron va boshqalar) orqali janubiy Yevropaning Sitsiliya, Vizantiya, Italiya, Ispaniya va Fransiya kabi davlatlariga yetib kelgan. Parcha gazlamasi Rossiyada XVI asrda birinchi marta Italiyalik master Chiponi tomoni-

dan Moskva shahrida ishlab chiqarilgan. Parcha gazlamasi yuqori tabaqadagi odamlarga tantanalalar libosi, tantanalalar o'tkaziladigan binolarni bezatish materiali sifatida foydalanilgan¹⁸.

Sof ipakdan tayyorlangan matolarni faqat ayollar kiyganlar. Erkaklarning sof ipak matolarni kiymasligiga sabab, islom dinida sof ipak kiyim kiyib ibodat qilinsa, ibodat allohga yetib bormaydi degan qarashdir. Shuning uchun ipakka paxta va boshqa tolalarni qo'shib yarimipak matolar tayyorlangan.

Adras – tanda ipi tabiiy ipakdan, arqog'i qalin ipdan to'qilgan gazlama. Guli ikki tomonlama bo'lganligi uchun ba'zi joylarda duro'ya deb ataladi. Arqoq ipi yo'g'onroq bo'lganligi uchun gazlama yuzasida ko'ndalang chiviqlar hosil bo'ladi. Kudunglanish natijasida yuqori navli adrasning bir tomoni atlasdek silliq bo'lib, ikkinchi tomoni tovlanib turadi. Gullari abr usulida bo'lib, sariq, ko'k, pushti, qizil ranglar qo'llanilgan adras o'zbek xalqi hayotida keng tarqalgan bo'lib, ayollarning kiyimlari, shuningdek chopon, ko'rpa va ko'rpachalar uchun ishlatilgan¹⁹.

Beqasam yoki beqasab yo'l-yo'l gulli pishiq mato bo'lib, tanda ipi ipak arqog'i ipdan to'qiladi. Arqoq ipi tanda ipidan yo'g'onroq bo'lgani uchun mato yuzasida g'adir-budirlik hosil bo'ladi. To'qish jarayonida arqoq ipi ho'llanib turiladi. Maxsus ishlov berilib, kudunglangandan so'ng, beqasamning bir tarafi atlasdek silliq bir tarafi tovlanib turadi. Oldindan bo'yalgan tanda iplari ishlatilishi natijasida beqasam guli ikki tomonlama xilma-xil va rang-barang bo'ladi. O'rta Osiyoning yirik ipakchilik markazlarida ishlab chiqarilgan beqasamlar qalinyupqaligi, mato enining tor-kengligi, rang xillarining tanlanishi, yo'l-yo'l gullarining tartibi jihatidan bir-biridan farq qilgan. Buxoro–Samarqand beqasamlarining arqoq ipi yo'g'on, markazida oddiy bir meyorda takrorlanuvchi aniq keng yo'llardan, qirg'og'i esa hoshiya yo'llardan iborat. Beqasam Buxoroda olacha nomi bilan ham mashhur. Farg'ona vodiysi beqasamlari yupqa va mayin, asosan

¹⁸ yengilsanoat.uz/mahsulotlar/ipakchilik-mahsulotlari.

¹⁹ Qarang: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент, 2000. – Т. 1. – Б. 138.

sovuq feruza, binafsha ranglardan iborat. Qadimda kuyov to`nlariga ishlatilgan. Namangan oq beqasami oq, sariq, yashil tusli qilib to`qilgan.

Banoras – tanda ipi shoyi, nimshoyi, arqog`i ipdan to`qiladigan pishiq mato, to`qilishi beqasamga o`xshash. Beqasamdan faqat gullari bilan farq qiladi. Banoras asosan kumushrang oq tusli bo`lib, uni zo`rg`a ko`rinadigan qoramtir yo`llar kesib o`tadi. Banorasning asl vatani Hindiston, lekin Buxoro, Qo`qon va Namanganda ham qadimdan to`qilgan. Namangan banoraslarining kumushrang oq tusdan tashqari och pushti, sariq, yashil tuslilari bo`lib, ular ham g`oyat ko`rkam. Banorasdan to`n, nimcha, kamzul kabi milliy kiyimlar tikiladi.

Parpasha yoki paripasha nafis yo`lli nimshoyi mato bo`lib, ko`kimtir kulrang tusda bo`lgan. Tanda iplari oq ipakdan, arqog`i to`q ko`k rangli ipdan qo`l dastgohida to`qilgan. To`qish jarayonida tanda iplari orasida maxsus qoldirilgan joylarda hosil bo`ladigan teshikchalar orqali arqoq ipini ko`rinishi ingichka yo`llar hosil qiladi. Buxorolik ustalar ip va ipak iplarini teng ishlatganlar. Farg`ona vodiysida to`qilgan ipak ko`p ishlatilgan paripasha qimmat bo`lib, nihoyatda qadrlangan. Parpashadan asosan, ayollar paranjisi tikilgan.

1.2. Farg`ona vodiysida ipakchilik sohasining vujudga kelishi

Farg`ona vodiysi juda qadimgi davrlardan boshlab ipakchilik markazlaridan biri hisoblanadi. Ammo, ipakdan qilingan matoning bizgacha yetib kelishi qiyin bo`lganligi uchun bu matoning kelib chiqqan vaqti va joyi to`g`risida faqat turlicha taxminlar yurardi. Shuning uchun “O`rta Osiyoning katta hududlarida ... aholi ko`proq paxtadan to`qilgan matolardan kiyimlar kiyganlar”, degan fikr keng tarqalgan edi. Chunki, XX asrning 60–70 yillarida Ye. D. Saltovskaya Farg`ona vodiysining shimoli-g`arbiy qismidagi arxeologik qazishmalar o`tkazish chog`ida milodning birinchi asrlarga oid qatlamlardan paxtaning chigitini topgan edi²⁰. Bu

²⁰ Сальтовская Е. Д. Северо-западная Фергана в древности и раннем средневековье. Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Душанбе, 1971. – С. 16.

jihati albatta, juda muhim bo'lib, Turkiston aholisi milodni birinchi asrlaridan boshlab bevosita paxta ekib, uning hosilidan turli matolar tayyorlashni bilishganligini isbotlaydigan muhim dalilni topgan edi.

Eng qadimgi matolar to'g'risida biz faqat arxeologik materiallardan bilishimiz mumkin, ya'ni matolarning qanday ekanligini kulolchilik buyumlariga yopishib qolgan izlardan bilib olishimiz mumkin. Chunki, eng qadimgi kulolchilik buyumlarini kulolchilik charxida emas, balki qo'lda tayyorlashgan. Dastlab qum to'ldirilgan matoning atrofiga loy yopishtirilib, tayyorlangan idish oftobda quritilgan. Shundan keyin qum to'kib tashlanib, mato ham qurigan idishdan ajratilgan. Sopol buyumlarining ko'proq ichki yuzasida qadimgi matolarning izlari qolgan. Eng qadimgi idishlarda qolgan izlarga qaraganda ular juda qo'pol, ko'proq jundan, turli o'simliklarning poyalaridan, paxtadan to'qilganligi ko'rinib turibdi²¹. Xuddi shunday matolarning izlari saqlanib qolgan sopol idishlarining parchalari Qashqadaryoning so'nggi bronza davriga oid Chimqo'rg'on suv ombori zonasidan²², shuningdek Farg'ona vodiysi arxeologik obidalarining qadimgi davr qatlamlaridan ham ko'plab topilgan²³. Shunday ekan, O'rta Osiyo hududida, shu jumladan, Farg'ona vodiysida paxta to'qimachilikning eng asosiy manba-xom ashyosi ekanligini ko'rsatib turgan dalil hisoblanadi. Shuning uchun paxtadan turli matolar tayyorlanib, undan turli kiyimlar tikishganliklari ko'rinib turibdi. Lekin paxtadan tashqari kanop, jun va ipakdan ham turli matolar ham to'qilgan.

Albatta paxta mahsulotining chigiti bo'lganligi uchun ham uning tolasini chirib yo'q bo'lib ketgan bo'lsa ham, ammo chigitining o'zi ko'p hollarda saqlanib qolgan. Shuning uchun bir qancha arxeologik yodgorliklarda paxtaning chigiti qolganligini korish mumkin.

²¹ Коробкова Г. Ф. Отпечатки тканей на керамике (по материалам Делварзина, Эйлатана и Даравтуркана) // Древнеземледельческая культура Ферганы / МИА-118. – Москва–Ленинград, – С. 231–234.

²² Исамиддинов М. Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаба. – Ташкент: Из-во им. А.Кадыри, 2000. Рис 3. II–V. – С. 105.

²³ Абдулгазиева Б. О ткачестве древней Фергане // Материалы Республиканской научно-практической конференции «Великий шелковый путь и Ферганская долина». – Ташкент, 2004. – С. 44–48.

Ammo ipak mahsuloti to'g'risida gap ketganda ahvolning mutlaqo boshqacha ekanligini ko'rish mumkin. Chunki ipakning tolasi loydan, tuproqdan bo'lgan arxitektura obidalarida qolgan bo'lsa, ular ko'p hollarda chirib - yo'q bo'lib ketadi. Lekin baxtli tasodiflar tufayli O'rta Osiyoning turli hududlarida, ko'p hollarda, qabrlarda saqlanib qolgan. Ayniqsa, ipakchilikni rivojlanishini aksariyat olimlar Buyuk ipak yo'li tufayli Xitoydan boshqa mamlakatlarga tarqalganligi va bu savdo yo'lida sug'diylar vositachilik qilganliklari to'g'risida fikr bildiradilar²⁴.

O'rta Osiyo hududidan topilgan eng qadimgi ipak matoning izlarini Sopollitepaning miloddan ilgarigi XVII–XIV asrlarga oid qatlamlaridan topilgani ma'lum. Farg'ona vodiysida bunday qadimgi davrlarga oid bo'lmasa ham, ammo miloddan ilgarigi II–I asrlariga oid Qorabuloq mozorqo'rg'onidan ham ipakning qoldiqlari topilgan.

To'g'ri, O'rta Osiyodagi eng qadimgi ipak namunasi Surxondaryo viloyatining Muzrobod tumanidagi Sopollitepa (miloddan avvalgi XVII–XVI asrlar) yodgorligida akademik A. A. Asqarov rahbarligidagi qazishmalar paytida topilgan. Ammo bu topilma hozirgacha yagona bo'lib qolmoqda. Keyingi paytlarda Farg'ona vodiysida ipak va uning kelib chiqishi bilan yangi ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Jumladan, arxeologik jihatdan vodiydagi eng qadimgi ipak namunasi (II–IV asrlar) Janubiy Farg'onadagi Qorabuloq mozoridan topilgan. Bu yerdagi qabrlardan topilgan to'qimachilik mahsulotlarining uchdan ikki qismi ipak ekanligi aniqlangan. Bu ipak gazmollar kamida to'rt xil bo'lgan va ulardan kimxob, kashta juda chiroyli ishlangan. Ayniqsa, ikki qo'lida afsonaviy ajdarho ushlagan yarim yalang'och ayollar tasviri muhimdir. Chunki, qo'llarida ilonsifat maxluq yoki baliq ushlagan ayol ilohalar obrazi Sharqda keng tarqalgan va ayniqsa, qadimgi Hindiston san'atida ko'p uchraydi. Qorabuloq ipak matolaridagi ayrim tasvirlarning kelib chiqishi Janubi-sharqiy Osiyo naqsh solish san'atiga borib taqaladi. Qorabuloq yodgorligidan topilgan ipak matolari shuni ko'rsatadiki, qadimgi davrlarda ayollarni u dunyoga ketishi oldidan ularning eng qimmatli usti-boshlarini kiydirib yubo-

²⁴ Ртвеладзе Э. В. Великий шелковый путь. – Ташкент: ЎзМЭ, 1999. – С. 74.

rishga harakat qilishgan. Ayniqsa, ularning boshiga harir ipakdan tayyorlangan ro‘mol, yoki yuzini yopadigan ro‘molchaning bo‘lishi shart bo‘lgan. Chunki, Qorabuloqdagi qabristondan topilgan matolarning uchdan ikki qismi ipak mato bo‘lib, ularning deyarli barchasi ayollarning yuz qismini berkitib turgan²⁵. Bundan shu narsa ko‘rinib turibdiki, oxiratga safarga ketayotgan har qanday ayolning yuzini harir ro‘mol bilan berkitish odati an’anaviy bo‘lgan va bu an’anaga hamma qat’iy rioya qilishganga o‘xshaydi. Albatta, ipak mato hamma ham sotib olishi mumkin bo‘lgan mahsulot bo‘lmagan, chunki u qimmat mahsulot bo‘lgan. Bunday holatdan biz ikkita xulosa chiqarishimiz mumkin. Birinchidan, janubi-g‘arbiy Farg‘ona aholisining orasida miloddan ilgarigi II–I va milodning I asrlaridagi diniy marosimlardagi ko‘mish marosimlarida ayollarning yuzini harir ro‘mol bilan berkitib ko‘mish an‘anasi ustivor bo‘lgan. Ikkinchidan, barcha jamiyatlarda bo‘lganiday Qorabuloq qabristonidagilarning ham yaqin 30% aholisi jamiyatning anchagina kambag‘al qismini tashkil qilganligi ko‘rinib turibdi. Shuning uchun ham bu yerdan topilgan matolarning yaqin 30% ipak mahsuloti emas, boshqa arzonroq matolardan iboratdir. Qolgan 70% matoning barchasi ipakdan bo‘lgan. Shunday ekan, qabrda ipak mahsulotining bo‘lishi o‘sha jamiyatning mulkiy iyerarxiyasini ko‘rsatuvchi belgilardan biridir.

Qorabuloqda aniqlangan ipak materiallaridan marhumlar yuzini yopgan maxsus ro‘mol, ko‘zlarga yopilgan pardalar va “xaltacha”, “bayroqcha” sifatida va kiyim-bosh tayyorlashda foydalanilgan. Qo‘shtirnoq ichida berilgan buyumlarning vazifasi va nima sababdan qabrlarga qo‘yilgani noma'lum bo‘lib qolmoqda, ular ham, so‘zsiz, dafn marosimida ma'lum diniy tasavvurlarga xizmat qilgan bo‘lishi kerak. “Qabr ro‘moli” – yuzpardalar va ko‘zpardalar bilan bog‘liq udum ko‘pchilikni qiziqtirish tabiiy... Sababi dafn marosimidagi bu odat Namangan viloyati Pop tumanidagi Munchoqtepa shahar qabristonidagi qabrlarda (V–VIII asrlar) ham aniqlangan va diniy tasavvurlarni tadqiq etishda ahamiyati muhimdir. Avvalombor, shuni ta'kidlash kerakki, Munchoqtepa qabrlaridagi gazmol-matolarning deyarli

²⁵ Баруздин Ю. Д. Кара-Булакский могильник // КСИЭ. – М, 1957. – Вып. 26. – С. 96–102.

hammasi ipakdan tayyorlangan. Mutaxassislar fikricha, Munchoqtepa ipaklari asosan, mahalliy ipak xiliga kiradi. Bu ipak o‘rtacha navli, shuning uchun undan to‘qilgan ayrim matolar g‘adir-budirroq bo‘lgan. Marhumlar ust-boshlari, hayotidagi ishlatgan buyumlari, oziq-ovqatlari va hatto pullarini (tangalar) qo‘yib dafn etilganlar. Eng qizig‘i marhumlar yoshi katta bo‘lsa, qamish tobutlarga va yosh bolalar to‘qilgan savatlarga solib maxsus uyga o‘xshatib yer ostida yo‘nilgan sag‘analarga qo‘yilganlar. Arxeologlarimiz qamish tobutlar ichiga va undan tashqariga marhum bilan qo‘yilgan narsalarga qarab, ularning hayotligida nimalar bilan shug‘ullanganini aniqlashga erishdilar. “Musiqachi”, “etikdo‘z”, “ovchi” va “to‘quvchi” tobutlari ma'lum. Bularda musiqa asboblari (qo‘shnay, surnay), poyafzal qolipi va charm kesadigan pichoqlar, o‘q-yoy va qamchi, urchuq va ipak matolar qayd etilgan. Qamish tobutlarda ipak, paxta, jundan tayyorlangan mato namunalari qayd etildi. Ipak matolar juda yaxshi saqlangan. Ipakdan kiyim-boshlar, yuzpardalar va «marosim yostiqlari» tayyorlangan. Munchoqtepa ust-bosh kiyimlar kolleksiyasida ko‘ylak, ayollar xalatiga o‘xshash kiyim, bolalar ko‘ylagi to‘laligicha saqlangan. Tobutlarning biridan birvarakayiga kiyilgan ikki kiyim-ko‘ylak va xalat chiqarib olindi va ta'mirlandi.

Popdagi yer osti sag‘analari nafaqat Farg‘ona vodiysi, balki O‘rta Osiyo xalqlarining ko‘mish marosimlarini tadqiq etishda bebaho xazinadir. Arxeologlar aniqlagan qiziq urf-odatlardan biri ipak va uni ulug‘lash bilan bog‘langan... Ayrim marhumlar bosh qismida ko‘plab ipak matolar qayd etildi. Ba'zilari, hatto marhum yuzini salgina yopib turar va yaxshi saqlangan. Ular to‘rtburchak shaklda bo‘lib, o‘lchamlari 23-25x35-37 santimetr, juda yupqa, nafis ipakdan tayyorlangan.

Farg‘ona vodiysining ilk o‘rta asrlardagi ipakchiligini o‘rganishda Pop yaqinidagi Munchoqtepa yodgorligidan topilgan topilmalarning o‘rni beqiyos kattadir²⁶. Chunki, Munchoqtepa yodgorligida ham xuddi Qorabuloq yodgorligidagi kabi ayollarning qabrida ularning yuz qismini, peshona-ko‘z qismini to‘sib turadi-

²⁶ Матбабаев Б., Чжао Ф. Ткани и одежда раннесредневековой Ферганы (по материалам могильника Мунчактепа в Узбекистане). – Пекин, 2010. – С. 44.

gan ipak matodan tikilgan materiallarni qo'yishgan. Olimlar shunday xulosaga kelishdi: dastlab yuz qismini, peshona va ko'z qismini to'sib turadigan, ko'zoynak shaklida tikilgan ipak matolardan tikilgan buyumlarni qabrga qo'yish dastlab Qorabuloq va Borkorbaz yodgorliklarida paydo bo'lgan bo'lsa ham, keyinchalik bu odat Munchoqtepa va Shinjon (Xitoy)da keng tarqalganligi ma'lum. Shinjonning ipak matolarini o'rgangan Lubo-Lesnichenkoning fikriga ko'ra Shinjondagi yuzni parda bilan yopish urf-odati aynan Qorabuloq yodgorligidan boshqa hududlarga, shu jumladan Xitoyga ham tarqalgan²⁷.

Sharqiy Turkistondagi topilmalarni umumlashtirgan xitoyshunos Ye. I. Lubo-Lesnichenko yuzpardalarni haqli ravishda boshqa yerlarga O'rta Osiyodan tarqalgan degan xulosaga kelgan. Lekin Sharqiy Turkistondagi yuzpardalar Munchoqtepadagidan farqli o'laroq, ko'zpardalar-ko'zpanalar bilan birga uchraydi. Ko'zpardalar Farg'onada Qorabuloq mozorida uchragan, faqat Qorabuloqda ko'z o'rniga ipak matodan mayda yostiqlar yopishtirilgan. Yuzpardalar Qorabuloqda ko'zpanalar bilan birgina uchraydi. Bundan tashqari, Qorabuloqda ayrim marhumlarning yuzi qizil rangli ipakdan qilingan yuzpardalar bilan yopilgan. Ostona va Qorabuloqda yuzpardalarning o'rta qismi har xil rangli ipakdan ishlangan bo'lib, uning atrofiga bir xil rangli ipak choklangan. Ba'zida Sharqiy Turkistondagi yuzpardalarga ichkarisidan silliq astar ham qilingan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, Farg'onada ipakka muqaddas bir narsa deb qarashgan va shuning uchun ayrim marhumlar yuziga qimmatbaho ipak matosi yopilgan. Shu munosabat bilan XIX asr boshlarida Qo'qon xonligiga kelgan rossiyalik Filip Nazarov Marg'ilon haqida to'xtalib, bir afsonani keltirgan. Unga ko'ra, shahar o'rtasidagi binoda qizil shoyidan tikilgan tug' (bayroq) saqlanadi va marg'ilonliklar uni ilohiy hisoblab sig'inadilar²⁸.

Demak, shoyi matolarning markazlari bo'lmish Andijon, Namangan, Marg'ilon, Qo'qon to'qimachilik maktablari bo'sh yerda o'z-o'zidan paydo

²⁷ Лубо-Лесниченко Е. И. Могильник Астана // Восточный Туркестан и Средняя Азия. – М., 1984. – С. 108–120.

²⁸ Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – Москва, 1968. – С. 49.

bo‘lgan emas. Munchoqtepa va Qorabuloqda boy ipak materiallari kolleksiyasi topilishi, ularning tomonidan Xitoyning ilg‘or an‘analaridan foydalanib to‘qilgani vodiy ipakchiligi tarixi ildizlari naqadar chuqurligini ko‘rsatadi. Chunki Farg‘ona vodiysi ipak vatani bo‘lmish Xitoyga eng yaqin o‘lka edi. Shuning uchun bu hududga ipak ancha erta kirib kelgan bo‘lishi kerak. Sababi, ipak miloddan avvalgi II mingyillik o‘rtalaridan boshlab Sharqiy Turkiston orqali O‘rta Osiyo hududiga kirib kelgan. Shundan so‘ng bu yerlardagi bozorlarda ipak tovar sifatida tarqalgan, miloddan avvalgi II asr oxirlariga kelib, manbalarda yozilishicha, bozorlar Xitoy mahsulotlariga to‘lib ketgan. Ammo ipak ishlab chiqarish texnologiyasi Xitoyda uzoq vaqt sir saqlangan, boshqa hududlarga tarqalishiga yo‘l qo‘yilmagan. Ushbu holatlarni hisobga olib, ipak Farg‘ona to‘qimachiligiga milod boshlarida kirib kelgan deyish mumkin. Shuning uchun So‘g‘d bilan bir vaqtda, balki sal ertaroq, ya‘ni III–IV asrlarda Farg‘onada ipak ishlab chiqaruvchi markaz bo‘lgani haqiqatga yaqindir. Bu markaz, albatta, qadimiy to‘qimachilik an‘analari va ko‘plab to‘quvchi ustalar ajdodlarining tajribasi asosida shakllangan. Bularning barchasi qadimgi Farg‘ona to‘qimachilik maktabining yuqori saviyasidan dalolat beradi²⁹.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, yuz va ko‘zni to‘sadigan ipak matolar ikkita maqsadda qo‘yilgan: 1) Ilohiy maqsadda qo‘yilgan bo‘lib, yuz va ko‘z niqob bilan berkitilgandan keyin ularning tasavvurida o‘likning ko‘zlari berkitib qo‘yilganligi uchun ko‘r odamni qaytib tiriklar dunyosiga kelmasligi kerak edi. 2) Sotsial maqsadda qo‘yilgan bo‘lib, bunda o‘lgan odamning jamiyatdagi o‘rnining muhim yoki unchalik muhim emasligini ko‘rsatib turadigan belgi bo‘lgan³⁰.

Bundan chorakam bir asr muqaddam Mug‘ tog‘idagi Mozorqo‘rg‘on xarobalaridan topilgan talaygina mato parchalari Sug‘d, Farg‘ona va Markaziy Osiyoning boshqa viloyatlaridagi shoyi matolar hamda to‘qimachilik haqida muayyan tasavvur beradi. Ana shu namunalarda o‘sha zamonlardayoq shoyi tayyorlashning sifati yuqori bo‘lganligidan dalolat beradi. Matolar jujuncha va kamchat navli ekanligi

²⁹ Матбобоев Б. Фаргона тўқимачилигининг тарихий илдизлари // Фан ва турмуш. – 2007. – №5–6. – Б. 22–26.

³⁰ Матбабаев Б., Чжао Ф. Ткани и одежда... – С. 158.

aniqlandi. Ular bo‘yoqlarining rang-barangligi bilan ajralib turgan. Rang-barang matolar bilan bir qatorda bo‘yoqli sidirg‘a rangli matolar ham bo‘lgan. Ipaklari pishitilib, polotno qilib o‘rilgan, yo‘l-yo‘l. Bezaklari ham xilma xil: sidirg‘a matolarda kamchat tarzida, rang barang matolarda bezak har xil rangli ipaklar uyg‘unligidan hosil qilingan. Mug‘dan topilgan shoyi parchalaridagi bezak, asosan, romblar, doirachalar va hokazo geometrik shakllardan iborat. Shunga o‘xshash kichik kichik namunalar Yevropadagi muzeylarda, xususan, Liondagi matolar tarixi muzeyida hamda Parijdagi Klyuni muzeyi kolleksiyalarida mavjud³¹.

Belgiyaning Yun muzeyida saqlanayotgan shoyi namunalari O‘rta Osiyoda ishlab chiqarilgan serbezak shoyilar haqida yaqqol tasavvur beradi. Mato parchalaridan birida sug‘da “zandanachi” yozuvi saqlanib qolgan. Bu sharqda keng ma'lum bo‘lgan mato turining nomidir. U Buxoro yaqinida joylashgan mashhur to‘qimachilar qishlog‘i nomidan olingan. Bu matoning kelib chiqishi oydinlashgandan keyin qadimgi matolar bo‘yicha mashhur mutaxassis D. Shepered G‘arbiy Yevropaning turli muzeylarida saqlanayotgan ko‘plab qadimiy matolarni tahlil etib, ilgari sosoniylar matosi deb hisoblab kelingan matolar aslida, zandanachi ekanligini isbotladi. U Sharqiy Turkistondagi Dun-Xuan manzili topilmalari orasida shunday matolar borligini aniqladi.

Zandanachi matosi ko‘ndalang qatorlarda joylashgan medalonlardan iborat naqshlar bilan bezatilgan. Medalonlar oralig‘iga o‘simlik tasviri tushirilgan. Boshqa turdagi bezaklar romb, kvadrat, geometrik ifodalangan gullar va hokazolardan iborat. D. Shepered “zandanachi” matosining tillarang, to‘qsariq, oq, ko‘k, qizil va yashil kabi o‘ziga xos rangligini ta’kidlaydi.

Ana shunday matolardan tikilgan kiyimlar Sug‘d, Toxariston va Markaziy Osiyoning boshqa viloyatlaridagi saroy hamda qo‘rg‘onlarning devoriy rasmlarida aks ettirilgan qabul va bayram manzaralarida keng namoyish etilgan. Ular milodiy VI–VIII asrlarga taalluqlidir. Jumladan, Afrosiyobda ochilgan devoriy suratlarda ulug‘ zotlar kiyimlari bezaklarining nihoyatda xilma xilligini ko‘rish mumkin.

³¹ Филианович М. Занданачи шойи безаклар // Фан ва турмуш. – 2007. – №5–6. – Б. 14–15.

O'rtasiga uchar otlar, qo'ylar, afsonaviy mahluqlar (muqaddasi uchar itlar), tovuslar va hokazolar tasviri tushirilgan doiralar tarzidagi bezaklar ana shu kiyimlar uchun xos. Jahon muzeylarida saqlanib qolgan ko'plab mato namunalari, shuningdek, O'zbekistonda topilgan 6-8 asr devoriy suratlarning to'plamlari zandanachi shoyidan tikilgan kiyimlar sug'd aslzodalariga mansubligidan dalolat beradi. Shunday kiyim tikadigan ustaxonalar barcha yirik shaharlarda bo'lgan, arxeologlar ochgan ustaxona xarobalari, ishlab chiqarish anjomlari shundan dalolat beradi.

“Zandanachi” shoyilaridagi bezaklar ko'rkam bo'lib, Eron, Vizantiya, Misr va hatto shoyi to'qish vatani hisoblangan Xitoyda ham keng tarqalgan.

Shunday qilib, Turkiston o'lkasida ipak va ipakdan tayyorlangan kiyimlar juda ulug'langan. Shuning uchun unga qiziqish, ipak mahsulotlarini targ'ib qilish, ipak matolarni ishlab chiqarish va uni keng miqyosda sotish ishlari eng qadimgi davrlardan buyon davom etib kelayotgan an'ana bo'lgan. Turkistondagi, ayniqsa Farg'ona vodiysidagi ipakchilik bo'sh joyda emas, balki juda qadimgi zamonlardan boshlab davom etib kelayotgan, xalqning qon-qoniga singib ketgan, an'anaviy hunarmandchilik turlaridan hisoblanadi.

I bob bo'yicha xulosa

1) Ko'plab adabiyotlarda ipakchilik dastlab Xitoyda paydo bo'lgani yoziladi. Lekin, so'nggi tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ipakchilik qadimdan Hindiston, O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan. Buni arxeologik dalillar tasdiqlaydi.

2) Farg'ona vodiysida ipakchilikning qadimdan mavjud bo'lishi tufayli to'quvchi ustalarning bir necha ajdodlari tomonidan to'qishning bir necha usullari yaratildi va sayqal topdi. To'quvchi ustalar tomonidan atlas, adras, kanoviz, beqasam, parpasha va boshqa bir necha turdagi ipak matolar to'qilgan. Bu matolar xalqimizning milliy-ma'naviy merosi sanaladi. Yaponiya kimonosi, hind sarisi,

ozarbayjon arxaligi, arab qabosi singari o'zbek milliy kiyimlari ham asrlar osha yashab, xalqimizning o'zligini, o'tmishini anglashda ko'maklashadi.

3) Farg'ona vodiysi hududida miloddan avvalgi II-I asrlarga oid Qorabuloq mozorqo'rg'onidan va II–IV asrlarga oid Munchoqtepa yodgorligidan ipak matolar topilgan. Bu ipak matolarni tahlil etish shuni ko'rsatdiki, bu davrda (ya'ni milodning boshlari va ilk o'rta asrlarda) Farg'ona vodiysida ipak muqaddas hisoblangan va dafn marosimalarida alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

II bob. Farg'ona vodiysida ipakchilik rivojlanishi

2.1. Farg'ona vodiysi shaharlari – ipakchilik markazlari

Gazlama to'qish hunarmandchilikning eng qadimiy va boy an'analarini o'zida mujassamlashtirib kelgan sohalardan biri hisoblanadi. Matolar doimo savdo aloqalarida sotish, sotib olish, ayirboshlashda eng tez o'tadigan buyum hisoblangan. To'quvchilikning ikki asosiy xili bo'lib, birinchisi aholining barcha tabaqasi uchun kerakli paxtadan to'qilgan ip gazlamalar va ikkinchisi shoyi gazlamalardan iborat bo'lgan. Ipli gazlamalarni ishlab chiqarishda ayollar, shoyi va nimshoyi gazlamalarni asosan erkaklar to'qiganlar³². Deyarli har bir oilada bo'z va olacha matosini to'quvchi dastgohlar mavjud bo'lgan.

Pilladan gazlama tayyorlashning har bir jarayonini muayyan mutaxassis hunarmand bajargan. Dastlab pillani “pillakash” o'z ustaxonasidagi cho'yan qozonda qaynatib, ipagini chuvatgandan so'ng, chuvalangan ipak tolani maxsus charx-g'ildirakka o'rab kalavalagan. Boshqa usta kichikroq g'ildirak bilan pilla ipini katta g'altakka o'ragan. Uchinchi “pillakash” katta g'ildirak yordamida ipakni kalavalab ishqorda pishirgan. Tanda iplariga naqshni “chizmakash” usta solgan. Ranglash orqali naqsh tushirish ham ustalarning muhim vazifasi bo'lgan. To'qilgan mato va yigirilgan ipak iplarni maxsus ustalar bo'yaganlar. Ipak ip tayyor bolgach, ularni to'qimachilik dastgohiga maxsus ustalar tortib bergandan so'ng usta ipak matoni to'qishga kirishgan.

Hunarmand bir kunda 4-6 arshin shoyi mato to'qiy olgan³³. Shoyi gazlama to'qib bo'lingach, uni pardozi berish uchun maxsus hunarmand “kudungar”ga berilgan. Gazlama yaxshi taxlanib so'ng kudung deb ataluvchi og'irligi 16 funt bo'lgan yog'och bolg'a ostiga qo'yilgan. Kudunglashdan so'ng gazlama usti silliqlashib, nur tashlab turuvchi tusga kirgan. Mato bir soat kudunglangan. Ipak

³² Ибрагимов Б., Эсонов З. Фарғона хунармандчилиқ мактаби. – Тошкент, 2010. – Б. 38.

³³ Izoh: 1 arshin o'rtacha olganda 71.12 sm ga teng. (Qarang: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. –Тошкент, 2000. – Т. 1. – Б. 672.)

gazlama to'quvchi hunarmandlar mato turiga qarab: shoyi-bof, beqasam-bof, darai-bof, paripasha-bof, alacha-bof kabi kasblarga bo'lingan.

Farg'ona vodiysi shaharlarida ipakdan mato to'qishdan tashqari ipak iplar yordamida matoga naqsh tikish ishi bilan bog'liq bir qancha kasb-xunarlar vujudga kelgan edi. Jumladan, shunday hunarlardan biri kashtachilikdir. Kashtachilik milliy iste'dod namunasi bo'lib, uning keng yoyilishida xalqimizning guldor narsalarga mehr-xavasi zo'rligida namoyon bo'ladi. Xususan, kashtachilik asosini uy ichki tomonlarini bezagan katta so'zana – palak, gulko'rpa, choyshab, zardevorlariga do'ppi, belbog', jiyaklariga ipakli gul solish tashkil etadi. O'z davrining mashhur kashtachi va chizmakash ustalardan bo'lgan qo'qonlik O. Masodiqovanning nomi bizgacha yetib kelgan. Palakchilikda esa, ipak yoki ipdan to'qilgan choyshablarga turli rangdagi o'simlik gullari, hayvon va qushlarning suratlari tikilardi, hatto g'azal parchalari ham ipak ip bilan yozilardi. Mashina yordamida ham ipak ip bilan kashta tikilib, u xalq orasida popopchilik deb ataladi. Popopchilikda tikuvchilar ro'yja, chorsi, joynamoz singari mato buyumlarga gul solganlar. Farg'ona vodiysida ipakdan gilam to'qish bilan uyg'urlar shug'ullangan. Ma'lumki, Qo'qon xoni Madalixon davrida 70 000 uyg'ur oilasi Farg'ona vodiysiga ko'chgan edi. Ular ipakdan Xitoy tasvirlari tushirilgan gilamlar to'qilgan. Bu gilamlar xonlik bozorlarida juda qadrlangan.

Marg'ilon shahri azaldan ipakchilik markazi bo'lib kelgan. Bu yer aholisi qadimdan shoyi to'qishga ixtisoslashgan va mohir ustalar makoni bo'lgan.

1896-yilda Farg'ona vodiysida 600 ga yaqin pillakashlik korxonalari mavjud bo'lgan bo'lsa, Marg'ilonning o'zida pillakashlar soni 238 nafar edi. Farg'ona vodiysida pilla qurituvchi korxonalarining 2/3 qismi Marg'ilonida bo'lgan. Marg'ilon shahri Turkiston o'lkasida ipakka dastlabki ishlov beruvchi asosiy shahar hisoblangan. Pillaga dastlabki ishlov berilgach, u Farg'onadan tashqari

xorijiy mamlakatlarga, jumladan Milan, Marsel va Markaziy Rossiyadagi korxonalariga jo‘natilgan³⁴.

Marg‘ilonda qadimiy to‘quvchilik an‘analari davom etib kelgan va mohir ustalar faoliyat ko‘rsatgan. Shu sababli Marg‘ilonga boshqa viloyatlardan to‘quvchilik sirlarini o‘rganish uchun keluvchilar juda ko‘p bo‘lgan. Marg‘ilonning ipak matolari o‘zining rangi va ajoyib gullari bilan Xitoy, Eron va boshqa Sharq mamlakatlarining savdogarlarini o‘ziga rom qilib kelgan. Farg‘ona vodiysida, ayniqsa Marg‘ilonda abr (fors. bulut, bulutsimon) nusxali matolar yengil, nafis va ranglarining go‘zalligi bilan ajralib turgan. Bundan tashqari shaharda beqasam, banoras, shoyi, nim shoyi, atlas kabi matolar to‘qilgan.

XIX asr ikkinchi yarmida abr gazlamalarini to‘qishda yetti xil rangdan foydalanilgan. XX asrga kelib ranglar ikki xilgacha kamaygan. Bu juda murakkab va ko‘p mehnatni talab qiluvchi jarayon bo‘lib, bu usuldan asosan atlas to‘qishda foydalanganlar. Matolarga gul bosishda tabiiy bo‘yoqlardan foydalanilgan. Qadimiy an‘analardan hisoblangan matoga qolip bilan gul bosish usuli saqlanib qolgan. XIX asrning birinchi yarmida gul bosgan matolar keng tarqalgan.

Marg‘ilonda ishlab chiqarilgan adras tabiiy ipakdan, arqog‘i yo‘g‘on ipdan to‘qilgan. Arqog‘ ipi qalin bo‘lgani sababli matoning yuzasida ko‘ndalang chivichlar paydo bo‘lgan.

Atlasni tanda ipi va arqog‘i ham tabiiy ipakdan to‘qilgan. Tanda ipi abrbandi usulida bo‘yalib, alohida ishlov berilgan. To‘rt tepkili atlas to‘rt tepkili dastgoxda, sakkiz tepkili atlas sakkiz tepkili dastgoxda to‘qilgan. Atlas gullari bir-biri bilan uyg‘unlashib, go‘zal ko‘rinishga ega bo‘lgan.

XX asrda Marg‘ilonda 100 ga yaqin atlas to‘quvchilar bo‘lgan. 20-yillarga kelib shaharda 4 ta sanoat arteli faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 1963 yilda mashhur “Atlas” korxonasi tashkil etildi. Atlaslarning eng a‘lo navi sakkiz tepkili atlas hisoblangan.

³⁴ Города Ферганской области. – Ташкент, 1957. – С. 69–70.

Marg‘ilon XX asrning birinchi o‘n yilligidayoq ip gazlama va shoyi to‘yish sanoatida korxonalar va xodimlar soni bo‘yicha mintaqada yetakchilik qilar edi. Marg‘ilonda XIX asrning 80-yillarida to‘qimachilik hunarmandchilikning eng asosiy turlaridan bo‘lib qolgan. Arxiv materiallariga ko‘ra, shaharda 600 dan ziyod pillakashlik va to‘qimachilik korxonalarida mingdan ziyod usta mehnat qilgan. Darvoqe, o‘sha kezlarda mahalliy bozorlarga dastlab Angliya, keyinroq Rossiyaning arzon fabrika mahsulotlari yog‘ilib kelgani bois to‘qimachilik hunarmandchiligi tanazzulga yuz tutdi. To‘qimachilik korxonalarining xonavayron bo‘lishi davom etar, uni to‘xtatishning iloji yo‘q edi³⁵.

I. Golovinning ma'lumot berishicha, Turkiston aholisining kundalik hayotidagi ko‘plab xo‘jalik buyumlari rus dehqonining shunday buyumlaridan ancha ustun. Masalan, oddiy rus kishisining kiyimi xonaki tayyorlangan dag‘al materiallardan, nari borsa, fabrikada ishlab chiqarilgan arzon chitdan tayyorlangan. Turkistonliklar esa nozik gazlamadan tikilgan, ko‘pincha, shoyi kiyish imkoniga ega bo‘lgan. Ularning issiq ko‘ylagi tuya yoki echki junidan to‘qilgan. Yupqa rangdor teridan tikilgan, kalish bilan kiyiladigan mahsisini rus dehqonining chorig‘i bilan aslo solishtirib bo‘lmaydi. Mis idishlar, ayollarning kumush bezaklari, mohirona ishlangan egar-jabduqlar har qadamda ko‘zga tashlanadi. Buning boisi ularni tayyorlash uchun kerakli materiallarning seroblighi va arzonligi, shuningdek mahalliy aholining ulardan bejirim amaliy buyumlar ishlab chiqarishga omilkorligidadir³⁶.

1916-yilda K. Rozvadovskiy markaziy Osiyodagi to‘qimachilik korxonalarining holati ustida qiziqarli tadqiqot o‘tkazgan. U Buxoroda 46ta shoyi to‘qish ustaxonasi bo‘lib, ularda 197 ta ishchi ishlaganligini qayd etgan. Qarshida – 19 ta, Qo‘qonda – 40 ta, Samarqandda – 6ta shoyi va nimshoyi ustaxonalari bo‘lgan. Bunday ustaxonalarning eng ko‘pi Marg‘ilonda bo‘lib, 1207 tani tashkil qilgan. Marg‘ilonda harir, serjilo mato ishlab chiqarish keng tarqalganligi va sifati

³⁵ Богомолов Г. Ошкор бўлган уч сир // Фан ва турмуш. – 2007. – №5–6. – Б. 34.

³⁶ Головин И. И. Кустарные промыслы Туркестана // Вестник выставки 1909 г. – Ташкенть, 1909. – № 1. – С. 1.

yuqoriligi, ular “o‘zining harirligi va shu bilan birga serjilvaligi, harir va bo‘yoqlarining yorqinligiga qaramay, yaxshi yuvilishi va ulardan ko‘ylak, choyshab, sharf va boshqa buyumlar tayyorlanishi”ni yozuvchi Hasan Irfon o‘zining “Hunarmandlar kulbasi” nomli romanida bayon etgan. U XX asr boshlarida o‘zining savdo sotiq ishlari uchun faqat Marg‘ilondangina shoyi sotib olar edi. Hasan Irfon Marg‘ilon ustalarini yuqori sifatli shoyi to‘qish bo‘yicha butun mintaqada eng mohir deb bilgan. Xullas, o‘tgan asrning 20-yillaridan Marg‘ilonda o‘z uslubi va texnik usullariga ega bo‘lgan shoyi to‘qish maktabi shakllangan. O‘zbekistonning turli yerlaridan kelgan shoyi to‘quvchilar Marg‘ilonda atlas to‘qish sirlarini o‘rganib, malakalarini oshirishgan. Ehtimol, shuning uchun bo‘lsa kerak, shoyi matolarni bezashning Marg‘ilon usuli umummilliy ahamiyat kasb etib, bizning kunlarimizgacha yetib kelgan.

Marg‘ilon matolari sirasida xom ashyosi, bezagi va to‘qish texnikasi bo‘yicha bir-biridan farq qiluvchi o‘nlab mahsulot turlari mavjud. Beqasam, adras, pariposhsha, banoras, harir, shoyi, kanoviz, yakro‘ya, atlas, xonatlas, chita, olacha, qalami, bo‘z va boshqa turdagi matolar faqat mamlakatimizdagina emas, balki undan tashqarida ham mashhur. Shuningdek, tuya juni, echki tiviti kalvasidan jun gazlama va ipak aralash shoyi tayyorlangan. Bosma, ko‘kma va tibit sallalari to‘qilgan. Yuqorida aytib o‘tilgan matolar ichida eng mashhurlari abrli matolar – atlas va xonatlasdir. Ularning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bezak va gullar to‘qilgan matoga emas, balki bo‘yoqchilik dastgohiga o‘rnatishdan oldin o‘rish ipiga tushiriladi.

Qadimda bir bo‘yoqchining hayoliga: o‘rish dastasini bo‘yoqqa botirishdan oldin bo‘yalmasin uchun uning ayrim qismlarini bog‘lab qo‘ysa bo‘lar ekan, degan fikr keladi. Tajriba ko‘ngildagidek o‘tib, tayyor matodagi bezaklar g‘oyat qiziqarli chiqadi. Vaholanki, hech bir bezak tushirish texnikasi buning uddasidan chiqa olmas edi. Keyinchalik u ko‘pgina mamlakatlarda qo‘llaniladigan bo‘ldi. Bu usul Sharqda qadimdan Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Yaman mamlakatlari qo‘llab kelingan.

Biroq, dunyoning biror yerida abrli bo'yash usuli O'zbekistondagidek, xususan, Marg'ilondagidek keng ko'lam kasb etmagan. Rivoyat qilishlaricha, "abr" bezaklari hovuzda suzib yurgan bulutlar aksiga taqlidan hosil qilingan, boshqa bir rivoyatga ko'ra, hovuzga quyilgan moydan hosil bo'ladigan kamalak rang dog'larga qiyosan yaratilgan emish. O'rish iplari "abr" usulida bo'yash texnikasi ancha murakkab: u qo'l mehnatigisha asoslangan bo'lib, katta mahorat talab qiladi.

Qadimgi bo'yoqlar bugungi kunda ham mamlakatimiz hududida o'sib yotgan bo'yoq beruvchi: anor po'sti, isparak, ro'yan kabi o'simliklardan tayyorlangan. Qirmizi, indigo bo'yoqlari esa chetdan keltirilgan. Shunday bo'yoqlardan xilma-xil ranglar hosil qilingan. Sintetik bo'yoqlardan farqli o'laroq, o'simlik bo'yoqlari ancha turg'un bo'lib, ularda keskinlik kuzatilmaydi. O'simlik bo'yoqlarining yana bir afzalligi ularning uniqib ketmasligi, rangi aynimasligidadir. Bu hol mato bezaklarining uzoq vaqt aynimay saqlanish imkonini beradi. Arbandchi xalq ustalari XIX asrning 70-yillariga qadar naqsh bo'yoqlaridan keng va mohirona foydalanib kelishgan. Keyinroq to'qimachilik sanoatiga anilin bo'yoqlari kirib keldiki, ular quyosh nurlari, ishqor va hatto suv ta'siriga ham nihoyatda beriluvchandir.

Ayrim matolar asosiy ranglarni uyg'unligidan kelib chiqib nomlanadi. Msalan, oq-qora rangli matolar qoraqarg'a patlari rangiga ko'ra «qoraqarg'a» deb yuritiladi. Bundan 400 yilcha muqaddam Marg'ilonda xonatlas ishlab chiqarila boshlangan. Marg'ilonda "abr" matolari erkin yoki rombsimon, ko'pincha tuxum-simon shakllarda, har ikki tomonida biz-bizaksimon chiziqlar bilan o'ralgan holda mayda naqshlar bilan bezatiladi.

Bezaklarning nomlari ham o'ziga xos. Masalan, "Xosiyatxon" – birinchi to'quvchi ayol ismidan olingan bo'lsa, "domlajon" esa – hovuzga moy quyib, kamalaksimon dog'larda bo'lajak mato bezaklarini ko'radigan usta sharafiga shunday atalgan. Abr matolari naqshinkor bezaklari va naqshlar xususiyati

jihatidan nihoyatda xilma-xil. Ustalar o‘z xotirasidagi 40–50 ta elementlar zahirasidan foydalanib murakkab bezaklar hosil qilishgan.

Marg‘ilonning barcha matolari XX asrning 30- yillaridan faqat xilma-xilligi bo‘yicha emas, balki bezaklarining tuzilishi va rang-barangligi bo‘yicha ham keskin o‘zgardi. Bunday o‘zgarishlar abr matolariga ko‘proq ta’sir ko‘rsatdi. Yevropa modasi ta’sirida milliy kiyimlar asta kaltalashib, hajman toraydi, natijada yirik bezaklar qisqarib, yo‘l-yo‘l matolar ko‘payib bordi. Yangi davr ta’sirida estetik did ham o‘zgarib, yorqin, ko‘zga yaqin yaqin rangli mayda va shartli bezakli matolarga qiziqish ortdi. Vazmin ko‘k ranglar yorqin, ko‘zga yaqin ranglarga o‘z o‘rnini berdi.

Qadimgi Marg‘ilon matolarining (adras, beqasam) eng keng tarqalgan rangi Rishton kulolchilik buyumlarining ko‘k – feruza rangini eslatuvchi yashil rangdir. Umuman, nozik rang-barang uyg‘unlik – qadimgi shoyilarning asosiy afzalligi hisoblanadi. Ustalar buni yaxshi tushunishgan. Marg‘ilonlik mashhur abrbandchi S. Toshpo‘latov usta uchun eng muhimi rang tanlashdir degan edi: “Naqsh chizishni har qanday kishiga o‘rgatish mumkin, rang tanlashga esa o‘rgatib bo‘lmaydi. Bu xudo bergan in’om. U kishida bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin”³⁷.

Shoyi, adras, beqasam ishlab chiqarish XX asrning birinchi yarmi oxirlarida hajman kamaya borgan. Beqasam ham qadimiy matolardan hisoblanib, Farg‘ona vodiysidagi beqasamlar arqog‘ ipi ingichka bo‘lgani uchun mayin bo‘lib, yo‘l-yo‘l shaklda feruza-binafsha, ko‘k, yashil, pushti ranglar berilgan. Gazlamaga maxsus ishlov berilgach, bir tomoni silliq bo‘lib chiqqan. Marg‘ilonda oq chiviq, olti katak, marmar kabi beqasam turlari to‘qilgan. Matolarni bo‘yashda anor po‘sti, piyoz, yong‘oq po‘stlog‘i kabi tabiiy ranglardan foydalanganlar.

³⁷ Маҳкамова С. Марғилон атласи // Фан ва турмуш. – 2007. – №5–6. – Б. 34–37.

2.2. Farg'ona vodiysida ipak savdosi

XIX asr ikkinch yarmi – XX asr boshlarida Qo‘qon, Namangan, Andijon, Marg‘ilon, O‘sh, Xo‘jand shaharlari Farg‘ona vodiysining yirik hunarmandchilik va savdo markazlari edi. Farg‘ona vodiysi shaharlari aholisining asosiy mashg‘ulotlaridan biri ipakchilik bo‘lib, ipak va ipak matolar mamlakatning tashqi savdodagi asosiy mahsulotlaridan biri edi. XIX asr 60-yillari oxirlarida, Qo‘qon va Marg‘ilonning o‘zida to‘qqiz yuzga yaqin xonadon ipakchilik bilan shug‘ullangan bo‘lib, har bir oilada 1 tadan 3 tagacha to‘quv dastgohi bor edi. Oilaning 2-3 a‘zosi shu ish bilan mashg‘ul bo‘lgan va har bir oila haftasiga ikki qadoq³⁸dan besh qadoqqacha ipak tayyorlagan³⁹. Taxminiy hisoblarga qaraganda, Qo‘qon va Marg‘ilonda ishlab chiqarilgan ipakning yillik miqdori 5560 pud⁴⁰ga teng bo‘lgan.

Farg‘ona vodiysida tayyorlangan ipak ancha sifatli bo‘lib, mamlakat bozorlari xom ipak va ipak matolari bilan mashhur edi. Ipakchilikning ilk mahsuloti hisoblangan pilla yangi yetishtirilgan holatda bahorda va quritilgan holatda kuzda bozorlarga chiqarilgan. Farg‘ona vodiysida mahalliy aholi tomonidan tayyorlangan ipak sifatiga qarab – “chilla”, “tafil”, “sarnoq” va boshqa navlarga bo‘lingan va sifatiga qarab narx belgilangan⁴¹. 1871-yil oktabr’ oyida Qo‘qon bozorida eng sifatli ipak hisoblangan ”chilla”ning pudi 50-52 tillo, ”tafil” 50 tillo, Qo‘qon kalavasi 28-30 tillo, sarnoq 35-45 tillodan sotilgan. Xo‘jandda yiliga (1871) 1000 pud atrofida pilla yetishtirilgan hamda bahorda pudi 7 rubl 60 tiyindan 12 rublgacha, kuzda 32 rubldan 38 rublgacha sotilgan. Shuningdek, ipak mahsuloti yigirilib, kalava ham tayyorlangan. Farg‘ona vodiysidagi eng yuqori sifatli kalava “namanganniki” hisoblangan⁴².

³⁸ Izoh: qadoq – og‘irlik o‘lchov birligi bo‘lib, 400 grammga teng. (Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М.: Рус тили нашриёти, II том. 1981. – Б. 567.).

³⁹ Тўлаганова М. А. Ўрта Осиё ва Россия савдо алоқаларида Фарғона областининг мавқеи: Тарих фан. номз. дисс. – Т., 1972. – Б. 30.

⁴⁰ Izoh: pud – og‘irlik o‘lchov birligi bo‘lib, 40 qadoqqa (16 kgga) teng (Qarang: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент: ЎзМЭ, 2003. – Т. 5. – Б. 436.)

⁴¹ Мадраҳимов З. Ш. Фарғона водийси шаҳарлари – ипакчилик марказлари. // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Самарқанд, 2013. – №4. – Б. 293-296.

⁴² Петровский Н. О. О шелководстве и шелкоматании в Средней Азии. – Т., 1873. – С. 97.

Ipakdan turli matolar to‘qilgan. Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan va Xo‘jand hunarmandlari ipak matolar (kanoviz, shoyi, atlas va h.k.), yarim ipak matolar (beqasab, banoras, adras) ishlab chiqarganlar. A. Vamberining yozishicha, Qo‘qon xonligida eng xaridorgir tovar olacha matosi bo‘lgan. Bu matoni asosan, ipak va paxtadan, ba‘zan faqat paxtadan to‘qilgan. Olacha matosidan ham erkaklar, ham ayollarning kiyimlari tikilgan.

Farg‘ona vodiysining yirik bozorlaridan biri joylashgan Marg‘ilonda ipak va ipak matolar savdosi yil davomida qizg‘in amalga oshirilgan. XVIII asr 70-yillarida Farg‘ona vodiysida bo‘lgan F.Yefremov ipak matolar tayyorlash to‘g‘risida o‘z esdaliklarida, “Marg‘ilon bozori markazida katta dumaloq tosh ustun bo‘lib, uning balandligi 40 sajen⁴³, yo‘g‘onligi 2,5 sajenga teng bo‘lgan va bu yerda turli matolar to‘qishar ekan”, – deb yozgan edi. 1813-1814 yillarda Marg‘ilonda bo‘lgan F. Nazarov, “...shaharda turli fabrikalar bor, ularda fors parchalari, baxmallar va turli Osiyo gazmollari tayyorlaydilar. Ularni Buxoro va Qashqarga sotadilar”⁴⁴, deb yozgan edi. Shuningdek, XIX asr o‘rtalarida V. V. Vel‘yaminov-Zernov Qo‘qon xonligi bozorlarida Marg‘ilon va Xo‘jandda tayyorlangan ipak matolar, oq va yashil rangdagi choponlik gazlamalar mashhur hisoblanadi⁴⁵, deb qayd etgan.

Farg‘ona vodiysi hunarmandlari tomonidan tayyorlangan ipak va yarim ipak matolar orasida atlas taniqli hisoblangan. Marg‘ilonda bu gazlama “atlas” yoki “jiba arqoq” nomi bilan mashhur bo‘lgan⁴⁶. 1876 yil Qo‘qonda 276 ta shoyi, 428 ta ip-gazlama to‘qish ustaxonasi, 232 yigiruv dastgohi va yiliga 3000 arshin atlas ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan ko‘plab ustaxonalar ishlab turgan. Shuningdek, Xo‘jandda ham “duriya” nomi bilan ataluvchi atlas turi ishlab chiqarilgan bo‘lib, bu mato Marg‘ilon hamda Qo‘qonda tayyorlangan atlaslardan

⁴² Izoh: Sajan – rus uzunlik o‘lchov birligi bo‘lib, 2,134 m ga teng. (Русча – ўзбекча луғат. – Т., 1984. – С. 374.).

⁴⁴ Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – Москва, 1968. – С. 49.

⁴⁵ Вельяминов-Зернов В. В. Торговое значение Коканского ханства для русских // ИРГО. – СПб., 1854. – С. 48.

⁴⁶ Агзамова Г. Марғилон ҳунармандчилигига оид айрим маълумотлар // Марғилон шаҳрининг Жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. Марғилон шаҳрининг 2000 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференция материаллари. – Тошкент–Марғилон, 2007. – Б. 115.

qolishmagan va Qo‘qon xonligi bozorlaridan tashqarida ham ancha mashhur bo‘lgan. Qo‘qon bozorlarida ipak gazlamalar hamda ip va ipak aralashgan matolar rang-barangligi bilan ajralib turgan. XIX asr o‘rtalarida Qo‘qon bozorida shoyi, duriya, beqasam, adras, banoraslarning 1 arshini 70-95 kopeykadan sotilgan. Atlas mahalliy bozorlarda yuqori baholangan bo‘lib, XIX asr o‘rtalarida poytaxt bozorida 12 arshin atlas 7-8 rublga baholangan. Vodiy shaharlarida tayyorlangan yarim ipak mahsulotlarining sifatliari asosan, Toshkentda sotilgan. XIX asr o‘rtalarida Toshkent bozorlarida Marg‘ilonda ishlab chiqarilgan bir choponlik banoras 20-25 tanga, beqasab 14-18 tanga, adras 18-20 tangadan baholangan.

Qo‘qon xonligining Buxoro va Xiva xonliklari, Afg‘oniston, Eron, Turkiya, qozoq dashtlari, Rossiya va boshqa hududlar bilan olib borgan tashqi savdo aloqalarida asosan Farg‘ona vodiysida tayyorlangan ipak va ipak mahsulotlari muhim ahamiyat kasb etgan.

Qo‘qon xonligidan Buxoro bozorlariga olib borilgan mahsulotlar orasida Farg‘ona vodiysida tayyorlangan xom ipak, ipak gazlama va yarim ipak matolar, kalava ip alohida ahamiyat kasb etgan⁴⁷. XIX asr boshlarida Qo‘qon xonligida bo‘lgan F. Nazarov, “Qo‘qon xonligida ipak va paxtadan turli gazlamalar tayyorlaydilar va ularni buxorolik savdogarlar keltirgan rus mollariga almashtiradilar”⁴⁸, deb ma'lumot bergan. Shuningdek, F. Nazarov o‘z esdaliklarida, xonlikning ipakchilik markazi Marg‘ilonda turli fabrikalar mavjudligi, ularda tayyorlangan fors parchalari, baxmal va turli gazlamalarga Buxoro va Qashqar bozorlarida talab yuqoriligini bayon etgan⁴⁹.

Marg‘ilon ipak gazlamalari, Namanganda tayyorlangan shoyi, pariposha, beqasam Qo‘qon xonligi shaharlaridan tashqari Samarqand va Buxoroga qadar olib ketilgan⁵⁰.

⁴⁷Вельяминов-Зернов В. В. Сведения о Кокандском ханстве // Вестник Русского Географического Общества. – СПб., 1856. Т. 18. – С. 131.

⁴⁸ Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – СПб., 1821. – С. 74.

⁴⁹ Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – Москва, 1968. – С. 49.

⁵⁰ Фармонова Б. Ремесленное производства в Ферганской долине во второй половине XIX – начале XX в. Дисс... канд. ист. наук. – Т., 1995. – С. 101.

XIX asr 60-yillarida Qo‘qon xonligidan Buxoroga har yili o‘rtacha 1000 tuyada ipak jo‘natilgan hamda uning miqdori 12 ming pud atrofida bo‘lgan⁵¹. Ipakning eng sifatli turi “chilla”ning bir pudi Qo‘qon bozorlarida 1871-yil avgust oyiga oid ma'lumotlarga ko‘ra, 52 tillo (197 rub. 60 kop.), Buxoro bozorlarida 1110 tanga (222 rub.) narxida baholangan. Vodiy ipagi va undan ishlab chiqarilgan matolar mashhur bo‘lib, hatto Buxoro bozori rastalaridan biri Farg‘ona vodiysidan keltiriladigan Axsi ipagi nomi bilan “Shoyi Axsi Guzari” deb atalgan.

Buxoroda Farg‘ona vodiysidan keltirilgan ipak xomashyosi sifatli hisoblanib, unga talab katta bo‘lgan. Buxoroda tayyorlangan pillaning 1 pudi 13-14 tillaga baholangan bo‘lsa, Qo‘qondan keltirilgan pillaning pudi 16 tilla, Xo‘jandniki 15 tillaga baholangan.

Shuningdek, Farg‘ona vodiysi kalavalariga Buxoro bozorlarida talab katta edi. 1871-yil avgust oyida Qo‘qon bozorida 1-navli Namangan kalavasining pudi 32 tillo (121 rub. 60 kop.) dan sotilgan bo‘lsa, Buxoro bozorida 30 Buxoro tillosiga (138 rub.) sotilgan. Shuningdek, Qo‘qon shahrida ishlov berilgan kalavalar ham Buxoro bozorlarida xaridorgir bo‘lgan va poytaxt bozorida 1-navlisining to‘pi 27 tillo (102 rub. 60 kop.), Buxoro bozorida esa 25 Buxoro tillosiga (115 rub.) sotilgan.

Qo‘qonlik savdogarlar Buxoroga bo‘yash uchun mato va har yili 100 pud ipak xom ashyosi olib borganlar. 1821-yilda 1 pud Qo‘qon ipagi Buxoroda 304 rubldan sotilgan⁵².

XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligining yirik shaharlaridan biri Samarqandda pilla bozori mavjud bo‘lib, Farg‘ona vodiysida yetishtirilgan pillaga Buxoro va Samarqand hunarmandlari orasida talab katta bo‘lgan. Samarqand pillabozori haftada ikki marta – chorshanba va yakshanba kunlari faoliyat ko‘rsatib, bo‘lib, unda kuniga 700 tillolik, oyiga esa 5000 tillolik pilla sotilgan⁵³.

⁵¹ Петровский Н. О. О шелководстве и шелкоматании Средней Азии. – Т., 1873. – С. 43.

⁵² Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука. 1975. –С. 75.

⁵³ Петровский Н. О. О шелководстве и шелкоматании Средней Азии // Туркестанский сборник. Том 81. 1873. – С. 33.

Samarqand yaqinidgi Kattaqo'rg'on bozoriga ham qo'qonlik savdogarlardar ipak va yarimipak matolar olib borganlar. XIX asrning 70-yillarida Kattaqo'rg'on bozorida Qo'qondan keltirilgan duriya ipak matosining 3.75 arshini 1 tillo, shoyining 8 arshini 5-6 rubl, duriyadan tayyorlangan chopon 7-9 rubl, shoyidan tayyorlangan chopon 10-14 rubl narxida sotilgan.

Xiva xonligida ham Farg'ona vodiysida tayyorlangan ipak va ipak gazlamalariga talab katta bo'lgan. Xivalik savdogarlar Buxoro bozorlaridan ipakdan tayyorlangan gazlamalarni ko'plab xarid qilganlar. Xususan, Xiva bozorlarida Farg'ona vodiysidan keltirilgan ipak mato – shoyi yuqori baholangan va xivalik savdogarlar tomonidan ko'plab olib ketilgan⁵⁴.

Farg'ona vodiysida tayyorlangan ipak va ipak matolar qo'shni Hindistonda ham qadrlangan. XIX asr 30-yillarida Hindiston, Afg'oniston orqali O'rta Osiyoga kelgan ingliz ofitseri A.Borns ma'lumotlariga ko'ra, sifatli Qo'qon ipagi Kobul orqali Hindistonga olib borilgan⁵⁵.

Ingliz olimi G. Morgan ma'lumotlariga ko'ra, XIX asr o'rtalarida yiliga O'rta Osiyo xonliklaridan Buxoro orqali Hindistonga 800 to'p ipak, 6000 pud ipak mahsulotlari – kanaus, ro'mol va dasturxonlar keltirilgan⁵⁶. Ipak va ipak mahsulotlarining aksariyati Farg'ona vodiysidan olib borilgan.

Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, XIX asr 60-yillarida o'rtalarida Qo'qon xonligidan yiliga Buxoro xonligi, Afg'oniston va Hindistonga 200.000 rubllik mol chiqarilgan. Ular orasida 8000 pud ipak ham bo'lgan.

Qo'qon xonligida tayyorlangan ipakning “chilla” deb ataladigan navi Sharq mamlakatlarida, xususan, Hindistonda ham mashhur bo'lgan. 1867 yil Hindistonga Qo'qon va Buxoro xonligidan 1000 tuyada ipak jo'natilgan va uning og'irligi o'rtacha 12 ming pud atrofida bo'lgan. Ipakning katta qismi Mo'ltonda tayyor mahsulotga aylantirilgan va bir qismi Bombeyga jo'natilgan. Bombeyda ipak

⁵⁴ Сагдуллаев А., Мавлонов Ў., Аминов Б., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 1-қисм. – Т., 2000. – Б. 246.

⁵⁵ Борнс А. Путешествие в Бухару. Част III. – Москва, 1849. – С. 259.

⁵⁶ Ҷўлиев Ш. Б. XIX аср охириги чораги XX аср бошларида Рус–ҳинд муносабатларида Ўрта Осиё (“Туркистон тўплами” материаллари асосида): Тарих фан. номз.. дисс. – Т., 1994. – Б. 74.

savdosi samarali bo‘lib, bu port shahar orqali Qo‘qon ipagi Yevropa davlatlariga ham olib ketilgan.

Qo‘qon xonligidan Buxoro va Kobul orqali Hindistonga ip-kalava xususan, Namangan kalavasi olib borilgan. XIX asr 70-yillarida uning bir pudi naqd pulga 129 rublgacha, 6 oy nasiyaga 133 rublgacha sotilgan⁵⁷.

Qo‘qon xonligining Afg‘onistonga eksport qiluvchi asosiy mahsuloti ipak hisoblangan. Afg‘oniston shaharlariga keltirilgan ipakning bir qismi mahalliy hunarmandlar tomonidan xarid qilingan bo‘lsa, katta qismi qo‘shni mamlakatlarga olib ketilgan. Hindistonda bo‘lgan yevropalik sayyohlar ma'lumotlariga ko‘ra, XIX asr 50-yillarida Hirotdan Shikorpurga oliy navli “Qo‘qon ipagi” olib kelingan bo‘lib, Kobulda ham eng sifatli ipak “Qo‘qon ipagi” nomi bilan taniqli bo‘lgan. Kobulga keltirilgan Qo‘qon ipagi bu yerda saralangan, turli navlarga ajratilgan hamda Panjob va Hindistonga yuborilgan⁵⁸.

Xonlikdan keltirilgan ipak va ipak matolar Afg‘onistonning o‘zida ham xaridorgir hisoblangan. Xususan, tikuvchilik rivojlangan Xulm (Toshqo‘rg‘on) shahri hunarmandlari o‘z mahsulotlarining yaratishda Qo‘qonning ipak matolaridan foydalanganlar. Xulmda ipak matolar olib kelgan qo‘qonlik savdogarlarni tez-tez uchratish mumkin bo‘lgan.

Qo‘qon xonligidan Eronga asosan xom ipak, ipak gazlama va yarim ipak gazlamalar olib borilgan. 1870 yilda Buxorodan Eronga 23 ming pud, ya'ni 2 mln 120 ming rubllik ipak jo‘natilgan va bu ipakning bir qismi Qo‘qon xonligidan olib borilgan.

Qo‘qon xonligidan arab mamlakatlari va Usmoniylar davlati shaharlariga ipak va yarim ipak matolar, mahalliy hunarmandlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar va Xitoy mollari olib borilgan. Har yili haj mavsumida Makka va Madina ziyoratiga otlangan hojilar ham ikki hudud o‘rtasidagi savdo aloqalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etganlar. Xususan, XIX asr 60-yillarida

⁵⁷ Петровский Н. О шелководстве и шелкоматании в Средней Азии.... – С. 13, 97.

⁵⁸Бабаходжаев М. А. Русско-афганские торгово-экономические отношения в второй половине XVIII – начале XX вв. – Т., 1965. – С. 13, 131.

O'rta Osiyoda bo'lgan A.Vamberi ma'lumotiga ko'ra, Hirotga u bilan "50-60 atrofidagi qo'qonlik hojilar qariyb 40 dyujina"⁵⁹ ipak ro'mol, 2 mingga yaqin pichoq, 30 bo'lak Namangan shoyisi, ko'p sonli Qo'qon do'ppilari va boshqa mollarni sotish uchun Arabistonga olib ketganlar"⁶⁰.

Makka ziyoratiga ketayotgan vodiylilik ziyoratchilarning bir qismi Rossiya orqali, ya'ni Orenburg – Astraxan – Istanbul yo'nalishidan foydalanishni ma'qul ko'rganlar. Ular haj ziyoratiga borish jarayonida o'zlari bilan mahalliy mollarni olib borganlar hamda safar davomida xorijiy mahsulotlarga ayirboshlaganlar. Toshkent bojxonasi ma'lumotlariga ko'ra, 1871 yil iyun oyida Qo'qondan Toshkent orqali Makka va Madinaga 400 dona ipak ro'mol, 1872 yil may-avgust oylarida esa Makkaga 23 ming 545 rub. 50 kop. lik mol jo'natilgan.

Mashhur Marg'ilon ipak gazlamalari, ro'mollar, ko'rpa va boshqa Qo'qon xonligi mahsulotlari Turkiya bozorlarida o'z xaridoriga ega bo'lgan va xonlik savdogarlari tomonidan ko'plab olib borilgan⁶¹. Xususan, Toshkent bojxonasi ma'lumotlarga ko'ra, 1871 yil aprel oyida andijonlik savdogarlar Bobonazar So'fi Chinibekov va Hoji Habibullo Mulla Haydarbekovlar Rossiya shaharlari orqali Istanbulga 24 rubllik 40 dona ipak ro'mol, 40 rubllik 600 parcha chit, 40 rubllik 8 funt xom ipak, jami: 104 rubllik, andijonlik savdogar Hoji Muhammad Amin Xo'ja Abdullo Hojiev 40 rubllik 8 funt xom ipak, qo'qonlik savdogar Mulla Abdumajid Nodir Muhamedov 138 rubllik 180 dona ipak ro'mol, 90 rubllik 180 dona oddiy ro'mol, 30 rubllik 10 juft beqasam, 40 rubllik 10 juft kanaus, jami: 308 rubllik, qo'qonlik savdogar Mulla Ne'matulla Mulla Abdurahmonov 138 rubllik 180 dona ipak ro'mol, 140 rubllik 280 dona oddiy ro'mol, 42 rubllik ipak matolar, jami: 320 rubllik, andijonlik savdogar Xojamonbekov esa 200 rubllik 400 donab ipak ro'mol, 300 rubllik 1 pud 20 funt xom ipak, jami 500 rubllik mol olib ketganlar. Shuningdek, 1871 yil may oyida Toshkent va Rossiya shaharlari orqali

⁵⁸ Izoh: 1 dyujina – 12 dona molni anglatgan. (Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. –Т., 1–том. 2000. –Б. 241.).

⁶⁰ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – Москва, 1867. – С. 371 – 372.

⁶¹ Развадовский В. К. Опыт изледования гончарного и некоторых другихъ кустарных промыслов в Туркестанском крае. – Т., 1916. – С. 10.

Istanbulga qo‘qonlik savdogar Muhammad Yoqub 148 rubllik 300 dona ipak ro‘mol, 8 rubllik 4 pud duriya ipak matosi, 400 rubllik 2 pud tafil ipagi, jami: 566 rubllik, qo‘qonlik savdogar Mulla Yo‘ldosh Mulla Qurbashev 160 rubllik 320 dona ipak ro‘mol, qo‘qonlik savdogar Hoji Muhammad Norbo‘riboev 20 rubllik kanaus va 137 rubllik 140 ta ipak ro‘mol, jami: 160 rubllik, qo‘qonlik savdogar Mulla Muhammad Musa Kaganboev 20 rubllik 10 juft kanaus va 137 rubllik 140 dona ipak ro‘mol, jami: 160 rubllik mol olib ketganlar.

Yevropada Turkistonning ipak matolari qatorida, ipak qurtining naslli zotlariga ham qiziqish katta edi. Chunki bu davrda Italiya va Fransiyada kasallik tufayli ipakchilik katta zarar ko‘rgan edi. Turkistondagi ipak qurtida esa bunday kasalliklar mavjud emas edi. 1869-yilda Italiyaning Breshi shahridan bo‘lgan Diogen Barbieri Toshkentga keladi. U Xo‘jand shahridan 1000 funtga yaqin ipak qurti tuxumlarini Italiyaga olib ketishga muvaffaq bo‘ldi. Rossiya hukumati 1870-yilda D.Dolgorukiyni ipak qurti tuxumini olib kelish uchun Qo‘qonga yuboradi⁶².

Turkiston general-gubernatorligi yevropalik savdogarlarning Turkistonda ipak savdosi bilan shug‘ullanishini rad etgan. Xususan, Milan savdo uyining shunday taklifi rad etilgan.

II bob bo‘yicha xulosa

1) Pilladan ipak ip olish va undan mato to‘qish ishlarining barchasi hunarmandlar tomonidan qo‘lda bajarilgan. Usta hunarmand 1 kunda 4-6 arshin mato to‘qiy olgan. Mato to‘qishda eng murakkab usul abrli to‘qish usuli bo‘lib, bu usulda asosan atlas va adraslar to‘qilgan. Matoni bo‘yashda 7 xil tabiiy ranglardan foydalanilgan.

2) XIX asr 2-yarmi – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysida Marg‘ilon, Namangan, Qo‘qon, Andijon, Xo‘jand kabi to‘qimachilik maktablari mavjud edi.

⁶² Долгорукий Д. Пять недель в Кокане // Русский вестник. – 1871. – №1. – С. 35.

Ular oraasida Mag'ilon shahri o'zining mohir to'quvchi ustalari, sifatli adras va atlaslari bilan mashxur edi.

3) To'qimachilik mahsulotlari doimo savdoda eng tez o'tadigan buyum hisoblangan. Qo'qon xonligining Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Rossiya, Hindiston, Eron, Sharqiy Turkiston va qozoqlar bilan olib boradigan savdosida ipak va ipak matolar muhim o'rin tutgan.

III bob. Rus mustamlakachiligi davrida Farg'ona vodiysida ipakchilikning ahvoli

3.1. Farg'ona vodiysi ipakchilik tarmog'ining Rossiya manfaatlariga bo'ysundirilishi

Rossiya XV asr oxirlarigacha ipak mahsulotlarini chet mamlakatlaridan sotib olardi. Lekin Rossiya ham o'z ipagiga, pillasiga ega bo'lish yo'llarini qidira boshladi. XVI asrlarda ipak qurti boqishga dastlab Moskva yaqinidagi volostlarda harakat qilindi. Ammo turli sabablarga ko'ra, Rossiyada ipakchilik rivojlanmadi.

A. Zlotin (1973)ning ma'lumotlariga qaraganda, rus pillachiligiga asos solishda Pyotr I ning qissasi katta bo'lgan. U 1700-yilda Astraxan o'lkasida pillachilikni kengaytirish haqida farmon chiqaradi. Farmonda tut daraxtini boshqa maqsadlar uchun qirqqan kishi o'lim jazosiga mahkum etilishi ham ko'rsatilgandi. Bu farmonga binoan Kiyevda, Qizlarda (hozirgi Dog'istondagi shahar), Oqtepada (hozirgi Qozog'istonda), Voronejda tutzorlar barpo etildi, qurtxonalar va pilla chuvish korxonalarini qurildi. Qurt tuxumi Italiyadan sotib olinar edi. Xalqni qiziqtirish maqsadida qurt tuxumi tayyorlab beruvchi xususiy shaxslarga Pyotr I tomonidan turli imtiyozlar bilan yerlar berilgan.

M. Trudov (1942)ning ma'lumotiga qaraganda, Rossiyada tut daraxtlari birinchi bor XVII asr o'rtalarida Astraxan, Saritsin, Simbirsk, Izmaylovoda (Moskva yaqinida) ekila boshlandi. XVIII asrda esa quyi Povoljeda, Terek, Kiyev atroflarida, Dnepr bo'ylarida ipak qurti boqish, pilladan ipak ajratish ishlari targ'ib qilindi va uni rivojlantirish choralari ko'rildi. XVIII asr oxirlarida Xarkov guberniyasi, Azov oldi, Orenburg atrofida qurt boqila boshlagan.

G. Ioffe (1968) ning yozishiga binoan, 1757-1761 yillarda Peterburg Fanlar akademiyasining «Ежемесячные сочинения к ползэ и увеселению служащих» jurnalida Rossiyada tut ipak qurti boqish, pillachilikni rivojlantirish, qurt tuxumi ochirish, pilla quritish, tutni urug'dan o'stirish, tutzorlar tashkil qilish, tut agrotexnikasi, oq va qora mevali tutlar haqida qator maqolalar e'lon qilindi.

Yekaterina II davrida, 1773-yilda uning farmoniga binoan, Xarkov guberniyasining Novo-Vodolaga qishlog'ida ipak ishlab chiqaruvchi korxonalar («Шелковое производства») tashkil qilindi. Saritsin (hozirgi Volgograd) yaqinida qurtxonalar qurildi.

1798-yilga kelib pillachilik bo'yicha dastlabki qo'llanma – I. Lepyoxinning «Краткое руководства к разведению шелка в России» degan kitobi bosilib chiqdi. 1800-yilda har bir dehqon yiliga kamida 10 tup tut ekishi va ko'kartirishi lozimligi haqida hukumat buyrug'i chiqdi. Bu borada yaxshi ishlagan dvoryanlarga mukofotlar berildi va tut ekish uchun yer ajratildi. Lekin, pillachilikni rivojlantirish uchun hukumat tomonidan qilingan bunday harakatlarga qaramay, bu soha yaxshi rivoj topmadi. 1858-yilga kelib pillachilik Rossiyaning faqat Tavriya va Yekaterinoslav guberniyalaridagina qoldi.

Rossiya tomonidan 1876-yilda Qo'qon xonligi bosib olindi. 1876-yilda podsho ma'muriyati Qo'qon xonligi Rossiya imperiyasiga qo'shib olinishini e'lon qildi. 19-fevralda sobiq Qo'qon xonligi hududlarini o'z ichiga olgan Farg'ona viloyati tuzildi va Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi. Rossiya o'z hududida rivojlantira olmagan ipakchilikni Turkiston o'lkasi orqali to'ldirishi mumkin edi. «Туркестанские ведомости» gazetasida 1871-yilda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, shu yili Turkistonda bir yarim million pud ipak xomashyosi tayyorlangan. Bu ipak xomashyosi yigirilganda 100,000 pud ipak ipi berishi mumkin bo'lgan. Mustamlakachilar bu xom ashyo ularga katta foyda keltirishini avvaldan tushunib yetganlar.

Ipakchilik Farg'ona vodiysida ko'p asrlar davomida rivojlanib kelgan. Rossiya sarmoyadorlari bu serdaromad sohaga katta qiziqish bilan qaraganlar. Ipak va ipak mahsulotlariga nafaqat Rossiya, balki Yevropa mamlakatlari bozorlarida ham talab katta bo'lib, Farg'ona ipagi sifat jihatidan raqobatbardosh edi. Qulay iqlim sharoiti, tutzorlarining ko'pligi, aholining ko'p yillik tajribasi bu sohani

rivojlantirishga katta imkoniyat tug'dirgan⁶³. Farg'ona vodiysida (butun Turkiston o'lkasida) ipakchilikni rivojlantirish va uni metropoliya manfaatlariga to'la bo'ysundirish maqsadida mustabid hukumat bu sohaga alohida e'tibor qaratdi. XIX asrning 60–70- yillarida Turkistonga jo'natilgan N. O. Petrovskiyning Rossiya moliya vaziriga yozgan hisobotida ta'kidlashicha, moliya vazirligi uni Turkistondagi o'z josusi etib tayinlagach, N.O. Petrovskiy zimmasiga “bir qancha majburiyatlar bilan birga o'lkani iqtisodiy ahvolini o'rganish va ayniqsa, kelajakda rus sanoati va savdosi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi mahalliy ipakchilikka alohida e'tibor qaratishni yuklagan”⁶⁴. N. O. Petrovskiy Turkistondagi ipakchilikning ahvoli, ishlab chiqarish usullari, muammolari va rivojlanishini o'rganib chiqib, bu haqda Moliya vaziriga batafsil hisobot yozib jo'natgan.

Ayniqsa, temir yo'llar qurilgach, bu sohaga ruslarning kirib kelishi kuchaydi, chunki ipakchilik mahsulotlarini tashib ketish uchun qulay imkoniyat tug'ildi. Turkistonda pillachilikning eng rivojlangan davri 1860–1870-yillarga to'g'ri keladi. Bu yillarda har yili 6000-6500 tonna pilla tayyorlangan. Bu haqda ma'lumot qoldirgan rus zoolog olimi N. A. Skvorsov Markaziy Osiyoda yetishtirilayotgan pilla eng yuqori sifatli deb yozgan edi. Pilla yetishtirishning ko'payishi albatta uni qayta ishlashni ham talab qilar edi. Natijada, 1867 yilda Toshkentda Pervushin, Xo'jandda Pokrishkin dastlabki ipak o'rash korxonasini qurishdi. Ularda Kripper tizimidagi yarim mexanik dastgohlar o'rnatilgan bo'lib, yiliga atigi bir necha 100 kg pillani qayta ishlardi xalos. Shuning uchun ham ular 1872-yilda zarar bilan ishlaydiganlar sifatida yopildi. Natijada, pilladan ipak gazlama olish jarayoni asosan qo'l mehnati bilan bajarilishda davom etdi. Bu davrda o'lkada tayyorlangan 80-90 foiz pilla xomashyo sifatida Italiya va Fransiyaga chiqarilardi⁶⁵. Shu ma'noda, chor hukumati va mahalliy ma'murlar ipakchilikni rivojlantirishdan manfaatdor edi. Biroq, ular ipak o'rash, yigirish,

⁶³ Кун А.Л. Очерк Коканского ханства. – СПб., 1976. – 6 с.

⁶⁴ Петровский Н. О. О шелководстве и шелкоматании в Средней Азии. – Т., 1873. – 12 с.

⁶⁵ Maqsudov R. X, Hayitov I. S. To'qimachilik tarixi..... – B. 47.

to'qish va shoyi gazlamalar ishlab chiqarish korxonalarini qurishga shoshilishmadi.

Rossiyaga O'rta Osiyodan tashib ketiladigan to'qimachilik xom-ashyosi orasida ipakning hajmi tobora ortib bordi. Buni quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

1857-1867 yillarda O'rta Osiyo xonliklardan Rossiyaga tayyor mahsulot, xomashyo va to'qimachilik buyumlari chiqarish (ming rubl hisobida)

Yil	Paxta tolasi	jun	ipak	Ip-gazlama buyumlari	Xom ip	Jun buyumlar	Jami	Umumiy chiqqan mahs	To'qim. Mah-ri ulushi
1857	640,0	90,5	75,6	717,4	122,0	79,2	1724,7	5516,0	31,3
1858	697,0	91,4	68,9	697,2	113,3	85	1657,8	6402,5	27,4
1860	713,0	86,6	82,0	655,0	36,5	69,0	1642,1	7534,5	20,7
1865	2933,2	114,4	51,8	699,4	52,7	101,2	3953,7	8946,2	44,2
1865	3494,3	119,5	35,5	423,7	233,4	63,6	4370,0	8929,3	44,0
1867	5513,4	352,2	1273,0	534,5	196,4	58,7	7929,8	12621,0	62,8

Sharq va G'arb bozorlariga dong'i ketgan ipak tola va matolarning Turkistondan qancha miqdorda tashib ketilganini quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin:

- 1865-yilda 9109 pud ipak mahsulotlari;
- 1867-yilda 20829 pud ipak va 15840 pud ipak mahsulotlari;
- 1871-yilda 531818 pud ipak va 49448 pud ipak mahsulotlari;
- 1872-yilda 770643 pud ipak va 60946 pud ipak mahsulotlari;
- 1874-yilda 233493 pud ipak va 65192 pud ipak mahsulotlari;
- 1889-yilda 7619 pud ipak mahsulotlari.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, XIX asr 80-yillari 2-yarmida ipak yetishtirish keskin kamaygan. Buning sababi, XIX asr o'rtalarida Fransiyada pebrina epidemiyasi boshlandi. 1858-yilda u yerda 26 ming tonna pilla tayyorlangan bo'lsa, 1865-yilga kelib bu raqam 5,5 tonnaga tushib qoldi. Pebrina tez orada Ispaniya, Italiya, Hindiston va boshqa mamlakatlar, shu jumladan Rossiya orqali O'rta Osiyoga ham yetib keldi va pillachilikning rivojlanishiga katta zarar

yetkazdi. Rossiya sarmoyadorlari tomonidan 1887-yilda Yangi Marg'ilonda ipak qurti urug'i yetishtirish stansiyasi qurildi, urug'ning navi yaxshilandi va aholiga bepul tarqatildi⁶⁶. Natijada, 1893-yilga kelib Farg'ona viloyatining Marg'ilon uyezdida 24000 pud, Namangan uyezdida 14613 pud, Andijon uyezdida 6000 pud, Qo'qon uyezdida 5520 pud va O'sh uyezdida 1192 pud bo'lib, jami 51325 pud pilla yetishtiridi.

Farg'ona viloyatida ipak tayyorlash yil sayin o'sib borgan. Buni quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin:

- 1890-yilda 40000 pud;
- 1899-yilda 58000 pud;
- 1900-yilda 80000 pud;
- 1904-yilda 156000 pud;
- 1905-yilda 140000 pud;
- 1907-yilda 180000 pud.

Demak, 1890-yilda Farg'ona vodiysida 40000 pud ipak yayyorlangan bo'lsa, 1907-yilga kelib uning hajmi 4,5 marta oshgan. Chunki bu serdaromad sohaga qiziqish yil sayin ortib borgan.

Rossiya sarmoyadorlari uchun ipak paxtadan keyingi ikkinchi o'rinda turgan. Masalan, har yili Farg'ona viloyatidan 40 mln rubllik 115 mln pud paxta olib ketilgan. 1889-yilda esa, Rossiyaga 3 mln rubllik 245 000 kg ipak xom ashyosi olib ketilgan. 1912- yilda 2 mln rublga 424 000 kg ipak xom ashyosi olib ketilgan. Bu ipak narxining ancha pasayganini ko'rsatadi⁶⁷.

XX asr boshlarida ipakchilik punktlari tashkil etila boshlandi. Turkiston o'lkasida 583 ta ipakchilik punktlari tashkil etilgan bo'lib, ularning 304 tasi Farg'ona viloyatida joylashgan edi. Ipak tolalari turli xususiy firmalar tomonidan sotib olinar va Rossiyaga tashib ketilardi. Masalan, 1900-yilda Turkiston o'lkasidan firmalar orqali 60000 pud ipak olib ketilgan. Farg'ona viloyatida

⁶⁶ Ибрагимов Б., Эсонов З. Фарғона хунармандчилиқ мактаби..... – Б. 40.

⁶⁷ Бартольд В. В. Ферғана // В. В. Бартольд. Соч. Т. 3. – М.: Наука, 1965. – С. 538.

shunday firmalardan 3 tasi faoliyat yurgizgan. Ulardan eng ko'p ipak sotib oladigani Tumanyan firmasi edi. Firmalar orqali Farg'ona vodiysidan 1904-yilda 84246 pud ipak tolasi Rossiyaga tashib ketilgan⁶⁸.

XIX asrning 2-yarmidan boshlab, O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olinganidan so'ng, 1867-yildan boshlab Marg'ilon, Qo'qon, Toshkent, Xo'jand shaharlarida dastlabki ipak kalavalash fabrikalari qurildi. Masalan, O'zbekistonga birinchilardan bo'lib kelgan rus sanoatchisi I. I. Pervushin 1871 yilda Toshkentda araq va vino zavodi bilan birga pillakashlik fabrikasi ham qurdi. Lekin ipak gazlamalarning asosiy qismi mahalliy hunarmandlarning ustaxona (do'kon)larida ishlab chiqarilar edi. Masalan, XIX asr oxirida Marg'ilonda 120, Qo'qonda 49 ta shoyi to'qish ustaxonalari ishlagan. Pilladan yarim kustar holda (qozonlarda qaynatib) qo'l charxlarida ipak (11,8 kg pilladan 1 kg ipak) olingan, qo'lda bo'yalgan ipakdan atlas, adras, beqasam, olacha, turli abrli gazlamalar, baxmal, parcha qo'l dastgohlarida to'qilgan.

XIX asr oxirlarida Farg'ona vodiysi butun Turkison o'lkasida yetishtirilgan ipakning 80% ini bergan. Farg'ona viloyatining 2 ta uyezdida (Marg'ilon va Qo'qonda) 1890–1894 yillarda 15735 ming pud ipak xom ashyosi ishlab chiqarilgan. 1892–1907 yillarda Farg'ona viloyatining 5 ta uyezdida 2844 ming pud ipak xom ashyosi ishlab chiqarilib, ipakchilik sohasida 7835 kishi mehnat qilgan va 1 996132 rubllik mahsulot ishlab chiqargan. Rossiyaga olib ketiladigan ipak Yevropa fabrikalariga moslashmagan edi. XX asr boshlarida Rossiya ipak to'quv fabrikalari talabidagi 94 ming pud ipak xom ashyosining 77 ming pudi chetdan keltirilardi. Farg'ona vodiysida yetishtirilgan ipakning katta qismi hamon mahalliy ustalar tomonidan qayta ishlanardi. 1896-yilda Marg'ilon, Namangan, Qo'qon uyezdlarida 600 ga yaqin ipak to'quv do'konlari mavjud bo'lib, ularda 3165 ta usta faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, Toshkent uyezdida atigi 20 ta do'kon bo'lgan. 1910-yilda Farg'ona viloyatida 1387 ta ipak do'koni bo'lib, unda 3065

⁶⁸ Зиёева Д. XIX аср иккинчи ярми XX аср бошда чоризмнинг Туркистон моддий бойликларини ўзлаштириш сиёсати // Ўзбекистон тарихи. – 2000. – №1–2. – Б. 25 - 27.

ishchi xizmat qilgan. Xuddi shu paytda Samarqand viloyatida 237 ta, Buxoroda 46 ta, Xivada 40 ta, Qarshida 19 ta ipak to'quv do'konlari ishlab turgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Farg'ona viloyati ipakchilikda Turkiston o'lkasida yetakchi edi.

1902-yilgi ma'lumotga ko'ra, Marg'ilon uyezdida butun 54421 dehqon xo'jaligidan 23262 tasi yoki 42.7%i, Qo'qon uyezdidagi 50389 dehqon xo'jaligidan 20323 tasi yoki 40.6%i, Namangan uyezdidagi 49790 dehqon xo'jaligidan 29606 tasi yoki, 48.1%i, Andijon uyezdidagi 45963 dehqon xo'jaligidan 12298 tasi yoki 26.7%i, ipakchilik bilan shug'ullanardi. 1910-yilda 350 ming pud ipak xom ashyosi yetishtirildi. 1913 yilda O'zbekistonda qariyb 4 ming tonna pilla yetishtirilgan, uning aksariyat qismi rus ishbilarmonlari qo'lga o'tib, ipak olish uchun Italiya va Fransiyaga jo'natilgan. Biroq, 1914-yilda bu ko'rsatkich pasayib, 190 ming pudga tushib qoldi. Bu pasayish chor Rossiyasining urushga kirishi bilan bog'liq edi. 1915-yilda Turkiston ipakchiligi va ipak sanoati chuqur inqiroz holatiga tushib qoldi. 1915-yildan boshlab Rossiya ipakchilik mahsulotlariga katta ehtiyoj seza boshlaydi. Oqibatda, 1916-yildan Rossiya ipakchilik fabrikalari yengil paxta sanoati gazlamalari ishlab chiqarishga o'tadi. 1917-yildan fabrikalar faoliyati to'xtay boshlaydi, aksincha Turkistonda pilla zaxiralari to'plana boshlaydi. Ularni saqlash, zararkunandalardan muhofaza qilish muammosi yuzaga keldi. Ushbu holatlar Turkistondagi ipakchilik tarmog'ida murakkab vaziyatni yuzaga keltirdi. Qolaversa, ipakchilikning tashqi bozorga qaramligi oqibatida XX asr boshida O'rta Osiyo ipakchilik sanoati tanazzulini yuzaga keltirdi.

I jahon urushi Turkistonga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Rossiya iqtisodiyoti bunday katta urush xarajatlarini ko'tara olmadi. Urushning faqat bir yili davomida soliqlar 50% ga oshdi. Talafotlar o'rnini to'ldirish va harbiy xarajatlar o'sishini qoplash maqsadida qo'shimcha mablag' izlar ekan, chor hukumati o'zi uchun ancha odatiy va eng oson yo'ldan – o'z mustamlaka o'lkalarini talashdan, urush xarajatlarining katta qismini o'z mustamlakalariga, jumladan, Turkistonga yuklash yo'lidan bordi. Bug'doy narxining keskin oshishi,

mardikorlikka olish va unga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'olonlari ipakchilikni tanazzulga uchratdi. Birinchi jahon urushi yillarida Turkistonda va xonliklarda 300-350 ming pud pilla hosili tayyorlanib uning 150-175 ming pudi Farg'ona viloyatiga, 125-135 minggi Buxoro amirligiga va 10 ming pudi Xiva xonligiga to'g'ri kelgan. Bu pillaning umumiy narxi 4,5-5 mln.rublga teng edi.

1917-yil fevral' inqilobidan keyin Turkistonda ham mustabid sovet hokimiyati o'rnatildi. Bolsheviklarnig Turkistonni ulkan xom ashyo bazasiga aylantirish maqsadlaridan ipakchilik tarmog'i ham chetda qolmadi. XX asr 20-yillari boshida ipak qurti urig'ini tayyorlash va aholini qurt urug' bilan ta'minlash, ipak xom ashyosini sotib olish, fabrikalarda to'qimachilik va yigirish ustaxonlarini tashkil etish, chetdan kelayotgan import mahsulotlarini cheklash, ipak qurti boqishning yangi madaniy usullarini qo'llash, tut ekinzorlarini kengaytirish va ipak fabrikalarini tashkil etishga alohida e'tibor berildi.

Turkistonda ipakchilik sohasini boshqarish maqsadida "Центршелк" tashkil etidi va uning yerlardagi bo'limlari faoliyat yurita boshladi. Turkistondagi ipakchilik tarmog'ini Paxtachilik qo'mitasi boshqarar edi. 1921-yil 2-noyabrda TASSR Ipakchilik sanoati Markaziy Boshqarmasi Iqtisodiy kengashi tomonidan "Туркшелк" tashkiloti tashkil etildi. Uning asosiy faoliyati quyidagilardan iborat bo'lgan: sanoat ipakchiligi, urug'chilik, urug'chilikni nazorat qilish, ilmiy-tajribaviy ipakchilik, o'quv-tajribaviy ipakchilik, ipak xom ashyosini tayyorlash va sotish, xom ashyoga dastlabki ishlov berishni ta'minlash bo'lgan. "Туркшелк" o'lka ipakchilik tarmog'iga egalik qilib, respublika ehtiyojlarini qondirishga alohida e'tibor bergan, ayni paytda qurt urug'i, pilla, ipak mahsulotlarini chet elga eksport qilish bilan shug'ullangan⁶⁹.

"Туркшелк" tashkiliy jihatdan o'zining tegishli tarmoqlariga ega bo'lgan. Uning tarkibida Toshkentda markaziy boshqaruv, Andijon, Qo'qon, Namagan, O'sh, Skobelev, Xo'jand, Samarqand, Poltoratskiy shaharlarida tayyorlov idoralari,

⁶⁹ Алимova Н. "Туркшелк" ва унинг Туркистонда ипакчиликни ривожлантиришдаги фаолиятига доир // "Фаргона водийси тарихи муаммолари" мавзусидаги Республика илмий анжумани материаллари. – Наманган, 2012. – Б. 247.

urug' yetishtiradigan 8 ta korxonada, Toshkent, Skobelevda ipakchilik stansiyalari va ipakchilik fabrikasiga ega bo'lgan. "Туркшелк" 1923-yildan boshlab mustaqil trest sifatida faoliyat yuritgan va aksionerlik jamiyatiga aylantirilgan.

1921-yilda O'zbekistonda Farg'ona shahrida birinchi 56 qozonli pillakashlik fabrikasi ishga tushirildi. Biroq, uning jihoz-uskunalari talabga javob bermas edi. Turkshyolkning asosiy vazifasi umuman olganda, aholidan olingan ipakni sotish bo'lib qoldi. Shu maqsadda Turkshyolk Moskva, Eron, Qashg'ar, Fransiya, Italiya bilan aloqalar olib bordi. Xususan, birgina Moskvadagi Arkos Aksionerlik jamiyati bilan Turkshyolk 1925-yil mart oyida 16 moddadan iborat bitim tuzdi. Unga ko'ra, Turkshyolk 1925-yil ipak mavsumiga jamiyatga 15 ming pud quritilgan pilla yetkazib berishga kafolat bergan edi. Turkshyolkning 60% mahsulotlarini hunarmand-kosiblar tayyorlab berardi.

XX asr 20-yillari oxirida Turkshyolk tarkibida "Uzbekshyolk" qo'mitasi tuzildi. Uning O'zbekistonda alohida faoliyat ko'rsatishi nazarda tutilgan edi. Bu qo'mita 1930-yil dekabrda tugatildi va 1931-yil 4-fevralda ittifoq miqyosida qayta tashkil etildi. 1932-yilda "O'zbek ipak sanoati" maxsus ipakchilik tresti tuzildi. Bu trest ittifoq ahamiyatiga ega bo'lib, tojik va turkman ipakchilik korxonalarini ham nazorat qilgan. "O'zbek ipak sanoati" tresti 1933-yildan "Узбекшелкпромтрест" ga aylantirildi.

Sovet hukmronligi davrida ipakchilikni rivojlantirish bir tomonlama olib borildi. O'zbekistonda yetishtirilgan ipak xom ashyosi Moskvada qayta ishlanib, tovar almashtirish uchun tayyor mahsulot yana O'zbekistonga qaytarilgan. Kommunistik partiya tomonidan kustar holdagi hunarmanchilik eskilik sarqiti deb e'lon qilindi va hunarmandlar majburan kooperativlarga birlashtirildi. Masalan, 1933-yilda Marg'ilon shahrida ipak yigirish va to'qish bilan shug'ullanuvchi 558 ta kooperatsiyalashgan hunarmandchilik artellari mavjud bo'lib, ular quyidagicha nomlangan: 1) Stalin nomli artel 2) Baynalminal arteli 3) Ikkinchi 5 yillik nomli shoyi to'qish sanoat communal xo'jaligi 4) Ikromov nomidagi ipak bo'yash,

yigirish va to'qish fabrikasi 5) Yorug'lik nomli to'qimachilik arteli. Bu beshta artel 1932-yilda 4545500 so'mlik mahsulot ishlab chiqargan⁷⁰.

Mustabid sovet hukmronligi davrida ipakchilikni rivojlantirishga doir rejalarni markazdan turib belgilash, mahalliy sharoitni hisobga olmaslik mavjud ahvolni murakkablashtirardi. Artellar belgilangan rejalarni bajara olmas edi. Arxiv ma'lumotlarida keltirilishicha, Farg'ona to'qimachilik sanoati ittifoqi 1933-yil rejasini bajarilmay qolganiga javoban, 1934-yil rejasini 1933-yilga nisbatan 20% ga ortig'i bilan bajarishga va'da beradi.

1927-yilda Marg'ilon shahrida, 1932-yilda Namanganda pillakashlik fabrikalari qurildi. Ayni paytda pillakashlik fabrikalarida olingan ipak toladan shoyi to'qish ham rivojlandi. Marg'ilon atlas (1925), Namangan abrli gazlamalar (1925), Marg'ilon shoyi (1928), Qo'qon shoyi to'qish fabrikasi (1926) ishga tushirildi. 1937 y.ga qadar shoyi gazlamalar tabiiy ipakdan tayyorlanar edi. Kimyo sanoatining rivojlanishi natijasida sun'iy ipak gazlamalar to'qish ham keng taraqqiy etdi. 1940-yilga kelib O'zbekistondagi pillachilik fabrikalarida 9833 t pilla qayta ishlanib, shoyi gazlamalar ishlab chiqarildi.

3.2. Farg'ona vodiysida ipak qurti urug'i yetishtirilishi

Ipak qurti hasharotlar sinfi, tangaqanotlilar turkumi tut va eman ipak qurti oilasiga kiradigan kapalaklarning qurtlik (lichinka) davri. Ipak qurtlari Bombycidae va Saturnidae oilalariga bo'linadi. Bombycidae oilasiga xonakilashtirilgan tut ipak qurti (20 ga yaqin turi bor), Saturnidae oilasiga esa yovvoyi (eman) ipak qurtlari kiradi. Eman ipak qurti bir yilda bir, ikki, ba'zan uch avlod beradi va eman daraxti bargi bilan oziqlanadi. Xitoy, yapon, hind eman ipak qurti turlari mavjud.

⁷⁰ Усмонов М. Маргилон маҳаллий саноатини ривожлантиришнинг айрим масалалари (XX асрнинг 20–30 йилларида) / “Фарғона водийси тарихи муаммолари” мавзусидаги Республика илмий анжумани материаллари. – Наманган, 2012. – Б. 329.

Tut ipak qurti tut bargi bilan oziqlanadi va bir yilda necha avlod berishiga qarab monvoltin (bir avlod), biovoltin (ikki avlod) va polivoltin (ikkitadan ortiq avlod beradigan) zotlariga bo‘linadi. O‘zbekistonda faqat tut ipak qurti boqiladi. Ipak qurtlari o‘z rivojlanishida tuxum, qurt, g‘umbak va kapalak bosqichlarini o‘tadi, so‘nggi kapalaklik davrida ipak qurti batamom voyaga yetgan bo‘lib, urchish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Uning qurtlik davri 5 yoshdan iborat. 1 yoshdan 2-yoshga o‘tishda po‘st tashlaydi. Ipak qurti bo‘yi 1-yoshi boshida 3-4 mm bo‘lib, 5-yoshi oxirida 85—88 mm.ga; vazni 0,0004 grammdan 3,5—5,0 grammga yetadi. Ipak qurti boqish 25-27 kun davom etadi va uch davrga bo‘linadi: birinchi davri — 1-, 2- va 3-yoshdagi qurtlarni boqish; ikkinchi davri — 4- yoshdagi qurtlarni boqish; uchinchi davri — 5- yoshdagi qurtlarni boqish. Ipak qurti boqish pechka, ventilyator o‘rnatilib, 4%li formalin eritmasi bilan zararsizlantirilgan qurtxonalarda yoki maxsus yorug‘ binolarda amalga oshiriladi, ipakchilik asbob-uskunalari ham zararsizlantiriladi, so‘ngra qurtxonalariga o‘rnatiladi.

Farg‘ona vodiysida biz ko‘rayotgan davrda qurt tuxumini ochirish ham ibtidoiy usulda bo‘lgan. Xonaki tayyorlangan yoki bozordan sotib olingan qurt tuxumlari matoga o‘rab qo‘ltiqqa yoki ko‘krakka bog‘langan holda olib yurilardi. Ma'lum vaqtdan so‘ng tuxumlar jonlanib, qurtlarga aylanar edi. so‘ng ular qurtxonalaridagi so‘kchaklarga joylashtirilardi.

O‘rta Osiyoda pillachilik hunarining ham boshqa sohalar kabi o‘z qonun-qoidalari risolasi (kasb-hunar ustavi) bo‘lar edi. Risolada o‘sha kasbni yurgizish yo‘li, kelib chiqishi, dinga munosabati kabi masalalar yoritilgan. U yerda ham O‘rta Osiyoga pillachilik hunarining markazi Farg‘ona vodiysi bo‘lganligi qayd etilgan.

O‘sha paytdayoq qurt urug‘i sifatlarini yaxshilash ustida ham izlanishlar olib borilganligi ma'lum. XIX asr ikkinchi yarmida Turkistonda ipak qurti urug‘iga bo‘lgan talabning oshib borishi biror chora-tadbirlar qo‘llashni taqozo etdi. Shu sababli Toshkentda 1871-yili pillachilar maktabi ochildi. V. Lindening (1917)

ma'lumotiga binoan, ushbu maktabni 8 nafar mutaxassis bitirgan (necha yillik maktabligi noma'lum). Lekin Turkiston pillachiligini rivojlantirishni xohlamagan general Chernyayev tomonidan bu maktab 1881-yilda yopilgan.

Turkistonning ko'zga ko'ringan jamoat arbobi A.X. Yunusov birinchi bo'lib Yaponiyadan O'rta Osiyoga sifatli urug' zotlari olib kelib, bu yerda ko'paytiradi. U 1865-yilda Moskvada sanoat va shu jumladan ipakchilik mahsulotlari ko'rgazmasi tashkil qilgan⁷¹.

Shuni ta'kidlash kerakki, O'rta Osiyoda XX asrning 90- yillarigacha qurt urug'i tayyorlaydigan birorta ham korxonalar yo'q edi. Shu sababli pillachilar o'zlari urug' tayyorlab olishardi. Bunday urug'lar kasalliklarga beriluvchan (ayniqsa pebrinaga) bo'lganidan olinadigan pilla hosili ham kamayib ketgan. Qurt boquvchilar asta-sekin bu kasbdan yuz o'gira boshlaydilar. Shundan so'ng hukumat G'arbiy Yevropa mamlakatlarida bo'lganidek qurt urug'chiligi stansiyalari tashkil qilib, sog'lom urug'lar tayyorlash yo'lini qidira boshlaydi.

XIX asrning 60-yillari oxirida L. Paster tomonidan ishlab chiqilgan sellulyar urug' tayyorlash usuli G'arbiy Yevropa mamlakatlarida keng tarqaldi. Fransiya va Italiyadan boshqa mamlakatlar qatori Turkistonga ham ko'plab sifatli urug'lar keltirila boshlandi.

1867-1872 yillarda Turkistonda mexanik dastgohlari bo'lgan 7 ta pillakashlik fabrikalariga asos solindi. Lekin turli sabablarga ko'ra (pilla narxining yuqoriligi, G'arbiy Yevropa mamlakatlari tomonidan qurt tuxumiga talabning oshganligi va sh.k.) bu korxonalar yopilib qoldi.

Ammo, XIX asr 80- yillari Farg'ona vodiysida ipak qurtlari orasida kasallik tarqab, mavjud barcha mahalliy ipak qurti zotlari qirilib ketishi natijasida o'lkaning, shu jumladan, Marg'ilonning ipakchilik xo'jaligi tanazzulga uchraydi. Ipakchilikdan kelayotgan katta daromadlardan ayrilishni istamagan rus sarmoyadorlari o'lka ipakchiligini rivojlantirish uchun turli chora-tadbirlar ko'radilar. Jumladan, o'lka ipakchilik xo'jaligi ehtiyojlarini qondirish maqsadida xorijdan

⁷¹ Иоффе Г. Из истории шелководства Средней Азии // Шелк. – 1964. – №3. – С. 24.

katta miqdorda qurt urug‘larini keltira boshlaydi. 1894-yilda Black Jean Millon, Maillot, Gazell, Bauer, Aloizi, Spiros, D. Pannitsis kabi shaxs va firmalar Farg‘ona vodiysiga xorijdan qurt urug‘i keltirib sotish bilan shug‘ullanganlar⁷².

1885-yilda Toshkentda birinchi marta davlat qurt tuxumi stansiyasi ochildi. Bunga A. Vilkens mudirlik qildi. 1888-yilda esa Marg‘ilon (Farg‘ona)da, Samarqandda va Petro-Aleksandrovska (mudiri vrach Avdakushin) ham shunday stansiyalar tashkil qilindi.

A. Tubalov (1937) ma'lumotlariga qaraganda O‘rta Osiyoga birinchi bor 1889-yilda qurt tuxumchiligi bo‘yicha mutaxassis fransuz Aloizi tomonidan 2 ming zolotnik (25 grammlik bir quti tuxum 6 zolotnikka to‘g‘ri keladi) qurt tuxumi olib kelinadi. 1890-yilda 8 ming va 1891-yilda esa 18 ming zolotnik tuxum olib kelindi. Mazkur tuxum sifati yaxshi va yuqori hosil berishligi tufayli aholi tomonidan ko‘plab sotib olinib boshlandi.

Ipak qurti tuxumi sotishdan ko‘p foyda ko‘rgan ajnabiylar O‘rta Osiyoga keltirilayotgan tuxumlar miqdorini tobora ko‘paytirdi. 1900-yilga kelib chetdan keltirilgan tuxum miqdori 3 mln. zolotnikdan oshib ketdi. Foyda ketidan quvish va o‘zaro raqobat chetdan kelayotgan tuxumlar sifatini buzilishiga olib keldi. Shu bois xususiy tuxumchilik korxonalarini tashkil bo‘la boshladi. Jumladan, 1896-yilda Qo‘qonda Aloizi tomonidan shunday korxonalar ochildi. 1898-yildan boshlab Sirdaryo, Samarqand, Farg‘ona vodiylarida ham xususiy tuxumchilik korxonalarini ochildi. Bularning eng yiriklari Qo‘qondagi Berte-Mandalakaning va Farg‘onadagi Yevtixidining tuxumchilik korxonalarini edi (O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyida 1898 y. Qo‘qonda ipak qurti tuxumi tayyorlaydigan korxonalar tuzilganligi haqidagi Mandalaka nomiga berilgan hujjat saqlanmoqda).

Shu bilan bir qatorda vodiyning o‘zida ham qurt urug‘i yetishtiruvchi bir qancha stansiyalar tashkil etildi. Turkistondagi ilk shunday stansiyaning I. Aloizi tashkil etadi. U 1891-yildan Farg‘ona vodiysida ham o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yadi.

⁷² Эгамназаров С., Исроилов А. Ипак курти уруғи етиштиришда хорижий мутахассисларнинг роли (XIX аср охири – XX аср бошларида Фарғона водийси мисолида) / Марғилон шаҳри ўтмиши, бугуни ва эртаси мавзусидаги республика илмий семинар материаллари. – Фарғона, 2007. – Б. 84.

Uning stansiyasida tayyorlangan qurt urug'ining 1 zolotnigi (1 zolotnik- 4,3 gr.) 70 tiyindan sotilgan. Ammo, Aloizining Farg'ona vodiysida ipak qurti urug'i yetishtirib sotish borasidagi monopoliyasi uzoq davom etmadi. 1892-yildan unga Bauer siymosidagi raqobatchi paydo bo'ldi. Bauer dastlab Samarqandda ipak qurti urug'i yetishtiruvchi stansiya tashkil etgan bo'lib, keyinchalik Farg'ona vodiysida ham faoliyatini boshladi. Aloizi Bauer bilan raqobatlashish natijasida o'zi yetishtirgan qurti urug'larini narxini 1 zolotnigini 70 tiyindan 50 tiyinga tushirishga majbur bo'ladi.

XIX asr 90- yillarida Farg'ona vodiysining bir qator shaharlarida qurt urug'i yetishtiruvchi korxonalar barpo etildi. Ayniqsa, 1899-yilda Yangi Marg'ilonda Evtixidi tomonidan tashkil etilgan urug'chilik korxonasida tayyorlangan qurt urug'lari mahalliy xaridorlar orasida katta e'tibor qozondi. Uning mahsulotlariga hatto eronlik pillakorlar ham qiziqib qoldilar. 1900-yilda Evtixidi sinov uchun uncha ko'p bo'lmagan miqdordagi qurt urug'larini Eronga yubordi. Samara kutilganidan ziyod bo'ldi. Natijada eronlik pillakorlarning talabi bilan 1901-yilda 3000 quti qurt urug'lari Eronga yuborildi.

Qurt tuxumchiligining ahvoli endi biroz yaxshilangani sababli Turkistonga chet elliklar qiziqishi orta boshladi. Bu borada ayniqsa, Brus institutida ta'lim olgan Turkiya mutaxassislarining ta'siri sezilarli bo'ldi. Ular Bog'dod zotlari bilan yaxshi tanish bo'lib, o'sha zotlarni Farg'ona vodiysiga olib kela boshladi va xususiy urug'chilik korxonasi ochishdi.

Mahalliy ma'muriyat tomonidan Farg'ona vodiysi pillachiligini rivojlantirishga qaratilgan boshqa qator tashkiliy va moliyaviy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ko'rilgan bunday chora-tadbirlar ham ahvolni yaxshilay olmadi. 1913-yilda hammasi bo'lib 130,2 ming quti, shu jumladan, Qo'qondagi 2 ta tuxum zavodi 63,5 ming, Skobelevdagi 3 ta zavod 51,0 ming va Namangandagi (uezdlardagilar bilan birga) 6 ta zavod 15,7 ming quti tuxum tayyorladi. Vaholanki, o'sha paytda O'rta Osiyoning qurt tuxumiga bo'lgan talabi 250-300 ming qutini tashkil qilar edi. Buning ustiga qurt tuxumi egalarini ko'proq foyda olish qiziqtirardi. Shu sababdan

ular qurt tuxumini chetga sota boshladilar: 1913-yilda Qo‘qon tuxum zavodi mahsulotining 60 foizdan ko‘prog‘i Xitoy Turkistoni va Qoshg‘arga, shuningdek Farg‘ona tuxum zavodi mahsulotining qariyb 20 foizi Kavkazga eksport qilingan.

Birinchi Jahon urushi va ayniqsa, grajdanlar urushi qurt urug‘i yetishtirishga va pillachilikka katta zarar yetkazdi. Chegaralarning yopilishi O‘rta Osiyoga ipak qurti tuxumlarini tashqi mamlakatlardan olib kelishga bardam berdi.

1917-yilda O‘rta Osiyoda asosiy pillachilik rayoni Farg‘ona viloyati bo‘lib, u yerda O‘rta Osiyoda tayyorlanadigan umumiy pillaning 80 foizdan ko‘prog‘i tayyorlanar edi. Pillachilik hatto viloyatning gerbida ham o‘z aksini topgandi (ipak qurti kapalagi tasviri tushirilgan edi). Bu viloyatda pillachilik bilan Skobelev, Qo‘qon, Namangan, Andijon, O‘sh uyezdlari shug‘ullanardi. Farg‘ona viloyatida 1900-yilda 101,4 ming 1910-yilda - qariyb 164 ming va 1914-yilda 161 ming pud pilla tayyorlangan.

Turkiston o‘lkasida birorta ham pillakashlik fabrikasi bo‘lmaganligi tufayli har yili ko‘p miqdorda pilla tashqi mamlakatlarga chiqarilar edi. Masalan, 1907-yilda Chor Rossiyasida 4570 tonna pilla tashqariga chiqarilgan bo‘lsa, uning 4170 tonnasi O‘rta Osiyoniki edi. «Шелководство и шелковая промышленность» (191 № 12) jurnalida yozilishicha, Rossiya pillalari Marselga (Fransiya) jo‘natilar, u yerdan esa ipak holida yana Rossiyaga qaytar edi. Bu degan so‘z katta mehnat evaziga tayyorlangan pillalar katta mablag‘lar sarflanib, boshqa yurtlarga yuborilib, ipak holiga keltirilar edi.

Shunday qilib, 1917-yilga kelib pillachilik butunlay tushkunlikka uchradi. Ipak qurti tuxumi zavodlari va pillaga dastlabki ishlov berish korxonalarining yo‘qligi, pebrina kasalligining yanada avj olishi, tut daraxtlari ko‘plab qirqilib o‘tin va boshqa maqsadlar uchun foydalanilishi, mutaxassis xodimlarning yo‘qligi — bularning hammasi pillachilikni o‘sha ahvolga olib kelgan edi.

1918-yilda tayyorlangan qurt tuxumi miqdori hammasi bo‘lib 11,2 ming qutiga tushib qoldi. Bunday holat, umuman, qishloq xo‘jaligining boshqa sohalari va shuningdek sanoatda ham ro‘y bergan edi.

Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida XX asr boshlariga kelib Farg‘ona vodiysi ipakchilik xo‘jaligi inqirozdan chiqdi. Yangi ipak qurti urug‘larining yuqori mahsuldorligi mahalliy sanoat ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, balki ipak tolalarini chetga eksport qilish imkonini ham berdi. Agar 1900-yilda 600 ming so‘mlik qiymatdagi 17 ming pud pilla chetga chiqarilgan bo‘lsa, 1901-yilda umumiy qiymati 1,5 million so‘mlik 9 ming pud pilla va ipak mahsulotlari eksport qilindi. Farg‘ona vodiysi ipak eksportining asosiy qismi Marsel (Fransiya) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

3.3. Ipakchilikning ilmiy o‘rganilishi.

Turkiston mintaqasida ipak qurti ustida olib borilgan tajribalar XX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Turkiston qishloq xo‘jalik tajriba stansiyasi rahbari professor F. M. Garnich-Garnitskiyning tashabbusi bilan qurilgan qurtxonada ipak qurti bilan turli tajribalar olib borilgan. Stansiyaning 1911-yilda nashr etilgan xabarlarida zotlarni bir-biri bilan chatishtirish, duragay qurtlarni boqish natijalari e‘lon qilingan. Shu stansiyaga R.R. Shreder direktorlik qilgan davrlarda ipak qurtining ayrim zotlarini yaxshilash, duragaylash, seripak pillalarni tanlashga asoslangan seleksiya bo‘yicha ma‘lumotlar to‘plash ishlari yo‘lga qo‘yilgan.

XX asr boshlarida tashkil qilingan O‘rta Osiyo ipakchilik ilmiy tadqiqot institutida qurt genetikasi, seleksiyasi va naslchiligi bilan olib boriladigan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Zero, bu bo‘lim va laboratoriyalarning turli davrlardagi tuzilishiga nazar solar ekanmiz, ular bitta bo‘limga birlashib ishlaganligining guvohi bo‘lamiz, seleksiya-genetika sektori, seleksiya va naslchilik bo‘limi, genetika va seleksiya bo‘limi va hokazo.

XX asrning 20-30-yillarida Moskva davlat universiteti biologiya fakulteti professor-o‘qituvchilari va bitiruvchilaridan tashkil topgan Moskva genetika maktabi namoyandalarining Toshkentga kelishi va endigina tashkil etilgan institutda genetika, seleksiya va naslchilik bo‘yicha ishlarni boshlab yuborishga

sabab bo'ldi. B. L. Astaurov, N. K. Belyayev, M. I. Slonim, V. P. Efrogimson va boshqalar ipak qurti genetikasi, seleksiyasi va naslchilik ishining nazariy asoslarini yaratishga kirishdilar.

Pillachilik tarmog'i ancha rivoj topgan Yaponiya, Italiya, Fransiya kabi mamlakatlarda zotlararo chatishtirish yo'li bilan olingan duragaylarni boqish odat tusiga kirgan edi. Duragaylarda bivoltin zotlari ishtirok etgani tufayli yoz va kuz mavsumlarida ham pilla yetishtirish yo'lga qo'yilgan edi. O'zbekistonda esa faqat bahor mavsumida avlod beradigan Bag'dod zoti boqilardi. Bu zot yirik pilla o'rashi bilan pillachilarni qoniqtirar edi. Ammo pilladan ipak chiqishi, ipak tolasining uzunligi va ingichkaligi kabi muhim belgilari bilan ipak sanoatini mutlaqo qanoatlantirmas edi.

Olimlarning tashabbusi bilan O'rta Osiyoga Italiyadan mallarang pilla o'raydigan "Askoli", "Abrutsso", "Sferiko", "Ione" va Xitoydan "Xitoyi tillarang" yoki "Oro" deb nomlangan zotlari keltirilib, sinov ishlari boshlandi. Bu davrda zotlar bilan ishlash u yoqda tursin naslchilik bo'yicha deyarli hech qanday choratadbirlar ko'rilmagan edi. Chunki bu davrda seleksiya va naslchilik fan sifatida hali shakllanmagan edi. Yuqorida ko'rsatilgan mamlakatlarda seleksiya ishlari birmuncha rivojlangan bo'lib, ipak qurtining qator yangi zotlari yaratilgandi. Ayniqsa, Yaponiya mutaxassisleri ipak qurti genetikasi, seleksiyasi, xususan duragaylashda ancha ilgarilab ketgan edilar.

Ammo Yaponiyada chop etilgan asarlarni O'zbekistonga keltirishning qiyinligi va boshqa sabablarga ko'ra u yerda yaratilgan yangiliklar bilan tanishish mushkul edi.

A. A. Tixomirov, E. F. Poyarkovning ipakchilikka oid asarlarida genetika, seleksiya va naslchilik bo'yicha boblar umuman bo'lmagan. A. V. Anuchinning 1931-yilda chop etilgan "Tut ipak qurti. Genetika va zotlarni urchitish" asari bir-biriga zid va eskirgan fikrlar bayonidan iborat bo'lgani uchun undan foydalanish mumkin bo'lmagan. O'sha vaqtlarda e'lon qilingan T. A. Kosminskiyning maqolalarida ipak qurti genetikasi, seleksiyasi va naslchiligi masalalari chetlab o'tilgan.

Shunday qilib, tut ipak qurti genetikasi va seleksiyasining nazariy asoslarini yaratish o'sha davr olimlari zimmasiga tushdi. Bizga yetib kelgan tarixiy ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, 1929-yildan boshlab N. K. Belyayev ishni inbriding, ya'ni yaqin qarindoshlikda bo'lgan individlarni chatishtirishni ipak qurtiga ta'sirini tahlil qilishdan boshlagan. 1930- yilga kelib bir qator zotlar ichida inberd tizimlar olishga muvaffaq bo'lindi⁷³. Uzoq muddatli inbriding oqibatida letal genlar ta'siri ostida hayotchanlikni keskin kamayishi, pillalarni mayda bo'lib qolishi kabi salbiy holatlar chatishtirishning bu usulidan nihoyatda ehtiyotlik bilan foydalanishni taqozo etar edi. Seleksiya va genetika sohasidagi izlanishlarda faqat bahorgi qurt boqish bilan kifoyalanish mumkin bo'lmagani tufayli yangi laboratoriyada tuxumlar diapauzasiga barham berish usuli ustida ish olib borildi. N. K. Belyayev 1930-yildan boshlab, hali diapauzaga⁷⁴ kirmagan tuxumlarni xlorid kislotada ishlash bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganishga kirishdi. Oqibatda olim tuxumdagi embrionlarning aniq yoshi, kislota harorati, konsentratsiyasi va ta'sir etish vaqtining mo'tadil parametrlarini aniqlab berdi. Bundan qariyb 70 yil muqaddam yaratgan bu usul hozirgi davrgacha keng qo'llanilib kelmoqda. N. K. Belyayevning "Tuxumlarni sun'iy jonlantirish" kitobi pillachilar, aspirantlar va studentlar uchun muhim qo'llanma vazifasini bajarib kelmoqda. N. K. Belyayev keyinroq ipak qurti seleksiyasi uchun nihoyatda muhim bo'lgan kapalaklarni qo'sh chatishtirish usulini yaratdi. Usulning mohiyati shundaki, bitta urg'ochi kapalakni ikki va undan ko'proq erkak kapalaklar bilan juftlashtirish – diallal chatishtirish, ota va onalik shakllarini avlodlari ko'rsatkichlariga qarab baholash, seleksiya jarayonini tezlashtirish imkonini berdi.

1930-yilda Turkiston ipakchilik idorasi rahbar xodimlari va ilmiy tashkilotlar olimlaridan iborat guruh Yaponiya ipakchiligi bilan tanishib qaytdilar. Ushbu safar natijasi o'laroq B. L. Astaurov "Yaponiyada naslchilik ishi va mamlakatimiz ipakchiligi vazifalari" (1933) kitobini nashr ettirdi. Kitobda

⁷³ Абдуқодиров Ш. Ипак қурти. – Т.: Фан, 1980. – Б. 35.

⁷⁴ Izoh: diapauza – hayvonlar hayot faoliyatining tinim davri, bunda moddalar almashinuvi srkinlashadi (Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. –Т., 2–том. 2000. –Б. 245.).

duragaylash, duragaylarni sinash, voltinizmni boshqarshi, tuxumlar embrional rivojiga haroratning ta'siri kabi muhim masalalar yoritildi.

O'rta Osiyo ipakchilik ilmiy tadqiqot instituta (O'OIITI)da olib borilgan izlanishlar natijalari va xorijiy adabiyotlarning tahlili asosida genetik olimlar N.K. Belyayev, M. I. Slonim, B. L. Astaurovlar ipak qurti genetikasi, seleksiyasi va naslchiligini isloh qilish zarur degan fikrni bildirdilar. Institutning o'sha davrdagi direktori Ye.V. Romanov olimlar fikrini to'la quvvatlagan holda, institut qoshida O'rta Osiyoda ipak qurti naslchiligiga bag'ishlangan kengash chaqirish zarur degan qarorga keldi. Kengashda M. I. Slonim "Ipak qurti naslchiligi oldidagi vazifalar", "O'rta Osiyoda naslchilik ishini tashkil etish loyihasi", N. K. Belyayev "Ipak qurti seleksiyasining asosiy tamoyillari", B. L. Astaurov "Sanoat miqyosida duragaylash" mavzusida ma'ruzalar qildilar.

Kengashda ipak qurti seleksiyasining asosiy yo'nalishlari, tamoyillari, uslubiyatlari muhokama etildi va «O'OIITI naslchilik tashkilotlarida Bag'dod zoti seleksiyasi bo'yicha nizom» qabul qilindi. Shuningdek, ishlab chiqarish sharoitida ipak qurti naslchilik ishini tashkil etish va uning dasturlari tavsiya qilindi. Ushbu dasturda, avvalo, naslli oilalarni hayotchanlik va pilla ipakchiligi bo'yicha tanlash va avlodini sinab ko'rish usuli o'z ifodasini topdi. Kengashda ipak qurti zotlarini ko'paytirishning uch yillik sxemasi qabul qilindi. Shu davrdan boshlab urug'chilik zavodlari qoshida naslchilik sexlari tashkil etila boshlandi. Kengashda zotlarni o'zaro chatishtirish bilan sanoatbop duragay tuxumlar tayyorlash tamoyiliga asos solindi. Garchand hali seleksiya usullari bilan yaratilgan zotlar mavjud bo'lmasada, zot va duragaylarni institut va ishlab chiqarishda sinash tizimi haqida kelishib olindi va "O'OIITI naslchilik tashkilotlarida ipak qurti zotlari duragaylarini sinash va rayonlashtirish nizomi" tasdiqlandi.

Naslchilik ishi bo'yicha O'rta Osiyo miqyosidagi kengashdan so'ng pillachilik tarmog'ida keng miqyosli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Atigi 4-5 yil mobaynida ishlab chiqarishda to'la duragay tuxumlar tayyorlash duragay qurtlarni boqishga o'tildi va takroriy qurt boqish joriy etildi.

Ma'lumki, ipak qurtini noan'anaviy ko'paytirish usullari ustidagi tadqiqotlar 30-yillarda keng ko'lamda olib borildi. Bu ishlar S. S. Chetverikov, N. K. Kolsov, genetika maktabining yorqin namoyandasi bo'lgan B. L. Astaurovning bevosita rahbarligida va ishtirokida olib borildi. O'OIITida B. L. Astaurov avval ipak qurti seleksiyasining genetik masalalari, duragaylash, urug'chilik, diapauza, voltinizm takroriy qurt boqishga oid muammolar bilan mashg'ul bo'ldi. Keyinroq, aniqrog'i 1932-yildan boshlab, u o'zining partenogenez⁷⁵ bo'yicha mashhur bo'lgan tadqiqotlarini boshladi. Qisqa muddat ichida ipak qurtining termik partenogenez va androgenez usullarini yaratdi. Shu zaylda foydali hayvon va hashorotlar orasida birinchi marta ipak qurti jinsini sun'iy ravishda boshqarish muammosi hal etildi.

Keyinchalik, bu yo'nalishda V. A. Strunnikov jonbozlik ko'rsatdi va ipak qurti xromosomalarida muayyan o'zgarishlar yasash orqali tuxumlik davrida jinsi nishonlangan va letal, yarimletal genlarni xromosomalarda joylanish tartibini o'rganish va hamma turlari yordamida uni zargarona o'zgartirish yo'li bilan detalari bo'yicha muvozanatlashtirilgan zotlarni yaratishga erishdi. V. A. Strunnikov va S. S. Lejenkolar yaratgan kushletalli zotlar duragay holda faqat erkak jinsli qurtlar olish imkonini beradi. Ipak qurti jinsini boshqarishning nazariy va amaliy masalalarini hal qilinishi jahon biologiya fanida eng ustuvor yo'nalish sifatida tan olindi.

Shunday qilib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ham xorijiy, ham mahalliy mutaxassislarning say'i-harakatlari natijasida o'lkaning, shu jumladan Farg'ona vodiysining ipakchilik xo'jaligi va mazkur soha asosi bo'lgan ipak qurti urug'i yetishtirish rivojlandi. Lekin bu yutuqlarning barchasi o'zining rivojlanayotgan sanoatini arzon xom ashyo bilan ta'minlashni maqsad qilib qo'ygan sovet Rossiyasi manfaatlariga bo'ysundirilgan edi.

Respublikamizda pillachilik bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash tarixi 1920-yilga borib taqaladi. 1920-yilda Toshkentda tashkil bo'lgan

⁷⁵ Izoh: partenogenez – tuxum hujayraning urug'lanmasdan ko'payishi. . (Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. –Т., 7–том. 2003. –Б. 95.).

Turkiston Davlat universiteti (1923 yildan Oʻrta Osiyo Davlat universiteti deb ataldi) tarkibida qishloq xoʻjalik fakulteti bor edi. Unda fitotexnika, chorvachilik (shu jumladan pillachilik) va qishloq xoʻjaligi iqtisodi boʻyicha mutaxassislar tayyorlanardi. 1930-yilda esa bu fakultet Oʻrta Osiyo qishloq xoʻjalik institutiga aylantirildi.

1931-yilda bu institutdan turli xil institutlar, shu jumladan Oʻrta Osiyo ipakchilik instituti va paxtachilik institutlari ajralib chiqqib, mustaqil faoliyat koʻrsata boshladi. Oʻrta Osiyo ipakchilik instituti (OʻOII) 1930-1934- yillar davomida 100dan ziyod oliy maʼlumotli pillachi agronomlar – mutaxassislar tayyorladi. 1934-yildan boshlab Toshkent qishloq xoʻjalik instituti (ToshQXI) tashkil boʻldi. Uning tarkibida turli fakultetlar qatorida tutchilik va pillachilik kafedralaridan iborat ipakchilik (pillachilik) fakulteti ham bor edi. Ipakchilik (pillachilik) fakultetida turli davrlar mobaynida ishlaganlar qatorida professorlar: E. F. Poyarkov, M. I. Slonim, A. I. Fedorov, Ye. N. Mixaylov, K. R. Rahmonberdiyev, dotsentlar: F. B. Bobojonov, P. A. Kovalev, A. A. Sheveleva, M. R. Raniyeva, K. M. Rojdenstvenskiy, Z. Toirov, X. Hakimov, U. Abdullayev, I. Dolmatov, A. Alimov, A. Abdurahmonov, Sh. Muhamedjonova, shuningdek, oʻqituvchilar: S. S. Zinkina, M. A. Duz-Kryatchenko kabi olimlar bor edi. Professorlar E. F. Poyarkov, A. I. Fedorov, Ye. N. Mixaylov, dotsentlardan P. A. Kovalev, Z. T. Toirov, K. M. Rojdestvenskiy, A. Abdurahmonov, N. Ahmedov, S. Murodovlarning oliy va oʻrta taʼlim oʻquv yurtlari uchun darslik va oʻquv qoʻllanmalari, ilmiy monografiya va ommabop risolalari eʼlon qilingan. Shuningdek, kafedra oʻqituvchilari pedagogik faoliyat bilan bir qatorda ipakchilik va tutchilik boʻyicha ham ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Ularning natijalari ishlab chiqarishga joriy qilingan.

1920-yilda Turkiston respublikasi huzurida Paxta komiteti tuzildi, uning tarkibida Markaziy ipakchilik boshqarmasi “Sentroshek” taʼsis etildi va ipakchilik bilan shugʻullanuvchi barcha tashkilotlar uning ixtiyoriga berildi. 1921-yil “Sentroshek” tarkibida Toshkent (keyinchalik u Oʻrta Osiyo deb ataldi) ipakchilik

stansiyasi tashkil etildi. Stansiyaning mudiri etib I.I. Diterixs tayinlandi. Ayni paytda u O‘rta Osiyo Davlat universitetining o‘qituvchisi ham edi. Stansiyaning asosiy faoliyati ipak qurti tuxumini nazorat qilishdan iborat edi. Shuningdek, o‘zida ozroq miqdorda ko‘rgazma sifatida ipak qurti ham boqar edi. Lekin mablag‘ yo‘qligi tufayli stansiyaning faoliyati rivoj topmadi. Faqat 1923-yilda “Sentrosheik” o‘rniga Turkiston ipakchilik (“Turkshelk”) aksionerlik jamiyati tashkil bo‘lgandan keyingina stansiyaning ishi birmuncha rivojlandi.

Stansiyada ikki yillik pillachilar kursi ochildi. Kursga “Turkshelk” boshqaruvining a‘zosi, o‘sha zamonning ziyolilaridan biri M. Poshshaxo‘jayev mudir etib tayinlandi. Uning tomonidan milliy tilda dastlabki qo‘llanmalar tayyorlandi. Mazkur kursda M. Poshshaxo‘jayev va I. I. Diterixsdan tashqari professor E. Poyarkov, A. Fedorov, M. Slonim, K. Platov, A. Kyunsel kabilar dars berishgan. Kursning dastlabki tinglovchilari S. Minosyans, A. Xo‘jayev, P. Kovalev, I. Shcherbakov kabilar keyinchalik yetuk mutaxassis va olimlar bo‘lib yetishishdi.

1924-yilda Farg‘onada ipakchilik ilmiy stansiyasi ochildi. Ikki yillik kursdan tashqari, 1925-yilda Toshkent va Farg‘onada pillachilik bo‘yicha instruktorlar tayyorlaydigan 3 oylik kurslar ham ochildi. Mazkur kursning bitiruvchilari joylarda ishbilarmon tashkilotchi va mutaxassis sifatida o‘sha paytlarda sohaning rivoji uchun o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar.

Hukumat tomonidan pillachilikka e‘tibor berilishi va uni ilmiy asosda rivojlantirish masalasi qo‘yilar ekan, endi bu sohaning o‘z ilmiy muassasasi bo‘lishini hayotning o‘zi ko‘rsatdi. “Turkshelk” O‘rta Osiyo Aksionerlik jamiyati Boshqaruv majlisining 1927-yil 12-noyabr qarori bilan o‘sha boshqaruvning ipakchilik madaniyati bo‘limi va O‘rta Osiyo ipakchilik stansiyasi negizida O‘rta Osiyo ipakchilik va ipakshunoslik instituti tashkil qilindi va Farg‘ona ipakchilik stansiyasi institutning hududiy stansiyasiga aylantirildi. Yordamchi korxonalar sifatida institut ixtiyoriga Toshkent ipak qurti tuxumi zavodi va Jarariq tut pitomnigi berildi. Institutning birinchi direktori etib “Turkshelk”da ko‘p yillar davomida

ishlagan A. A. Kyunsel va uning muovini etib N.S. Zinkina tayinlandi⁷⁶. Tez orada institut O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'istonda pillachilik bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini boshlab yuborish bilan birga bu sohaning amaliy jihatdan maslahat markazi ham bo'lib qoldi.

Mavzudan bir oz chekinib, shu narsani ta'kidlashni lozim ko'rdikki, Jarariq tutchilik tajriba xo'jaligi hozir ham o'sha joyda faoliyat ko'rsatmoqda. Institut binosi Toshkent shahrining Shelkovichnaya (hozirgi German Lopatin) ko'chasida joylashgan edi. 1964-yildan boshlab esa o'sha Jarariqda, General Uzorov nomli ko'chaning yoqasida, institutning o'sha paytdagi direktori X. Rasulov tashabbusi bilan qurilgan binoda faoliyat ko'rsatmoqda⁷⁷.

Yangi tashkil bo'lgan institut haqidagi gaplarga yana qaytamiz. Institut uchun mablagning 95 foizini "Turkshelk", qolgan qismini esa O'zSSR dehqonchilik vazirligi ta'minladi. Institutda umumiy (ipakchilik madaniyati), biologiya, tutchilik, iqtisodiyot, texnologiya va himoya bo'limlari tuzildi. Mazkur institut 1931-yildan boshlab O'rta Osiyo ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti deb nomlana boshlandi. Madaniy bo'limning vazifalari dehqonlar uchun pillachilikni madaniy tarzda olib borish yo'llarini tashviqot qilishdan iborat bo'lib, instruktor tayyorlash, turli varaqalar, plakatlar, kitobchalar chiqarish, leksiylar o'qishdan iborat edi. Bundan tashqari bo'lim inkubatoriyalar tashkil qilish, qurt tuxumini ochirish, tut zararkunandalariga qarshi kurashish bilan shug'ullanardi. Shuning bilan birga bo'lim xodimlari O'rta Osiyo Davlat universiteti agronomiya fakultetida 1927-yilda tashkil qilingan ipakchilik kursida ma'ruzalar ham o'qir edi.

Institutning 1933-yildagi tuzilmasida agrotexnik tadbirlarni tashviqot qilish sektori bo'lib, unga agronom S. Lavrentev mudirlik kilgan. Mazkur sektor, ehtimol o'sha madaniy bo'limning o'rniga ochilgan bo'lishi mumkin. Adabiyotlar o'zbek, rus, turkman, qirg'iz va tojik tillarida chiqarilar edi. Bo'limda ikki oylik (qishloq instruktorlari), bir yillik (rayon instruktorlari), ikki yillik (tuxumchilik korxonalari

⁷⁶Абдуқодиров Ш. Пиллачилигимиз тарихидан лавҳалар. – Т.: Фан, 2000. – Б. 37.

⁷⁷ Абдуқодиров Ш. Пиллачилигимиз тарихидан лавҳалар..... – Б. 25.

uchun mutaxassislar) kurslar faoliyat ko'rsatar edi. Ikki yillik kursga asosan O'rta Osiyo davlat universitetining agronomiya va biologiya fakultetining bitiruvchilari qabul qilinar edi. 1931-yildan institut sobiq Butunittifoq qishloq xo'jalik Fanlar akademiyasi ixtiyoriga o'tdi va O'rta Osiyo ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti deb nomlandi.

Ilmiy tadqiqot institutida bir qator ilmiy bo'limlar va laboratoriyalar faoliyat ko'rsatgan edi. Jumlanadan, ilmiy ishlarni muvofiqlashtirish va tashkil qilish bo'limining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Ilmiy bo'limlar o'rtasidagi ilmiy ishlarni muvofiqlashtirish;
- ilmiy ish dasturlari va rejaları va bularga binoan, ilmiy ishlarning bajarilishini nazorat qilib borish;
- yillik va yakuniy hisobotlarni bo'limlardan yig'ib institut bo'yicha yig'ma hisobot tayyorlash;
- ilmiy ish dastur va rejalarini, shuningdek yillik va yakuniy hisobotlarni institut ilmiy kengashida ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun tayyorlash;
- yuqori tashkilotlar uchun turli shakldagi hisobotlar tayyorlash va uni topshirish, ilmiy xodimlarni vaqti-vaqti bilan attestatsiya va tanlovdan o'tkazish va boshqalar.

Ilmiy tadqiqot institutining tutchilik bo'limi 1927-yilda tashkil qilingan bo'lib, u agrotexnika, seleksiya va navlar kolleksiyasidan iborat bo'lgan. mahalliy va O'rta Osiyo sharoitidagi tut navlarini o'rganish, turli xil sug'orish, ko'chat o'tkazish, navlar seleksiyasi kabi izlanishlar bo'limning asosiy vazifasi hisoblangan.

Bundan tashqari, bo'limning maxsus ajratilgan maydonlarida tut navlaridan mahalliy (xasak, bedone, balx, marvartok, ilon tut) va shuningdek, Fransiya, Italiya, Yapon tutlari o'stirilardi. 30- yillarning boshlariga kelib seleksiyadan tashqari "Tutni parvarish qilish va ko'paytirish" hamda "O'g'it va agroximiya" guruhlarini paydo bo'ldi. Keyinchalik "Tutchilik madaniyati va ekspluatatsiyasi", "O'g'it va ximiya" deb ataldi va nihoyat tutchilik sektori, seleksiya va agrotexnika

guruhlaridan iborat bo‘ldi. Tutning seleksiya ishlari 1930–1931-yillarda Yaponiyadan keltirilgan navlarni o‘rganish asosida boshlandi. Keyinchalik ham tut navlari doimiy ravishda boshqa mamlakatlardan – Xitoy, Koreya, Bolgariyadan keltirila boshlandi. Bu borada Tojikistonning tog‘li hududlaridan keltirilgan xalq seleksiyasi navlarining ham ahamiyati katta bo‘lgan. Chetdan keltirilgan va olimlarimiz yaratgan navlardan tut navlari kolleksiyasi yaratildiki, natijada mintaqalararo duragay tut navlarini yaratish imkoni tug‘ildi.

Hozirgi paytgacha duragay va klonli tanlash yo‘li bilan olimlarimiz tomonidan yaratilgan navlar soni 100 dan oshib ketgan.

Pillachilik - tuxumchilik bo‘limi ipak qurti agrozootexnikasi va qurt tuxumi tayyorlash texnologiyasi ustida ilmiy ishlar bilan shug‘ullangan. Bo‘lim mazkur nom bilan ko‘p yillar davomida ishladi va keyinchalik turli nomlar bilan atalgan. Institut tashkil bo‘lgan o‘sha 1927-yilda qurt boqish va seleksiya guruhlaridan iborat biologiya bo‘limi tashkil qilindi. Biologiya bo‘limini prof. E.F. Poyarkov boshqarardi. U 10 nafar shogirdlari bilan quyidagi tajribalarni o‘tkazish ustida ish olib borgan: Oziqlantirishning ipak qurti mahsuldorligiga ta'siri, seleksiya, ho‘llangan barg bilan boqish kabilar shular jumlasiga kiradi. Shu narsa diqqatga sazovorki, o‘sha paytda E. F. Poyarkov o‘z kuzatishlarida xodim va keyinroq esa M. Sodiqova kichik ilmiy xodim, Z. Gaysina katta laborant lavozimida ishlashdi.

Pillaga dastlabki ishlov berish va texnologiya bo‘limi dastlab texnologiya bo‘limi deb atalib, u pilla va tola sifati guruhi hamda kimyo laboratoriyasidan iborat bo‘lgan. Kimyo laboratoriyasining vazifasi — tut bargining kimyoviy tarkibi va pilla pishiriladigan suvning tarkibini (uning qattiqligini) tekshirishdan iborat bo‘lgan. Pilla va tola sifati guruhi esa asosan yangi zot va duragay pillalarning texnologik ko‘rsatkichlarini aniqlash bilan shug‘ullangan. Keyinchalik bu laboratoriya institutning boshqa bo‘limlari tomonidan o‘tkaziladigan tajribalardan olingan pilla namunalarini texnologik tahlil qilish vazifasi ham yuklatilgan⁷⁸.

⁷⁸ Миронов А. Кустарная выработка шелковичных изделий в Средней Азии в прошлом и настоящем // За реконструкцию шелководство. – 1931. – №3–4. – С. 42.

30- yillarning boshlarida bu bo‘lim texnologiya sektori deb ataldi. Sektor qoshida texnologik laboratoriya tashkil etildi. Sektorga 1-toifali ilmiy xodim E. B. Rubinov, laboratoriyaga A. Mirmaqsudov mudirlik qilgan. 30- yillarning oxiriga kelib esa bu lavozimlarda Sergeyeva va Talalayevalar ishlashdi. O‘sha yillarda N. I. Jvirblis ilmiy xodim bo‘lib ishlagan. Ipak qurti hamda tut daraxti kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurash bo‘limi 1927–1930-yillarda himoya bo‘limi, 1931- yilda ipak qurti va tut daraxti kasalliklariga qarshi kurashish bo‘limi, 1932- yilda hosilni himoya qilish sektori deb atalgan. Bu sektor ipak qurti kasalliklari guruhi hamda ipak qurti va tut zararkunandalari guruhidan iborat bo‘lgan. 1937- yilda ipak qurti kasalliklari guruhini o‘z ichiga olgan mikrobiologiya sektori tashkil etildi. Tut kasalliklariga qarshi kurashish guruhi tutchilik sektoriga birlashtirildi.

Tut kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurashish laboratoriyasi xodimlari tomonidan yaratilgan quyidagi ishlanmalar ishlab chiqarishga joriy etilgan:

a) qurtxonalarini dezinfeksiya qilish uchun:

- formalinning 4 foizli eritmasi;
- 2 foizli gipoxlorid kalsiy eritmasi;
- 5 foizli AAS (akril-aril sulfonat) eritmasi;
- monoxloraminning 2 foizli eritmasi.

b) tut nihollarini himoyalash uchun:

— tut urug‘ini ekishdan oldin nitrokmax va fenturam preparatlari bilan ishlov berish;

— begona utlardan qimoya qilish maqsadida edil preparatini qo‘llash;

— kuzgi tunlam zararkunandasiga qarshi “Virin-OS” preparatidan foydalanish, shuningdek, tut odimchisiga qarshi kurash choralari;

— tut daraxtining bargini qimoya silish uchun xloroz (barg sarg‘ayish)ga qarshi temir kuporosi eritmasini qo‘llash;

— buzoqboshi hasharotiga qarshi kurash choralari.

v) Ipak qurtining poliedroz (sariq) kasaliga qarshi ishlatiladigan FK va AK preparatlari va boshqalar.

Pillachilikdagi asosiy ish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish masalasi pillachilarning sobiq Butunittifoq III s'ezdida (Moskva, 26 dekabr 1931; 2 yanvar, 1932) qo'yilgan edi. S'ezdda ilmiy tadqiqot tashkilotlari oldiga ipak qurtini boqish, tut ko'chatlarini qazib olish, tut urug'i ekish va jo'yak olish, ko'chat ekish, qator oralarini yumshatish, tutzorlardan novda kesish kabi ish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish masalasi qo'yildi. Bu masalani amalga oshirish uchun qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida ishlatilayotgan texnikalar ko'rib chiqildi va pillachilik-tutchilik uchun yaroqlilari tanlab olindi. yerni haydash, kultivatsiya qilish, tut ko'chatini ekuvchi, o'g'itlovchi, ko'chat va nihollarni qazib oluvchi, ularni ekish uchun chuqur kavlovchi mashinalar sinab ko'rildi.

Qurt boqish jarayonlarini mexanizatsiyalash byurosida ham dastlabki ishlar boshlandi. Bular qatoriga Skidanovning qurtning kichik yoshlari uchun barg to'g'rovchi mashinasi, Jvirblisning tut shoxlarini kesuvchi dastgohi, Blagushin va Shvayning pilla losini tozalovchi va somondan dasta yasovchi dastgohlarini kiritish mumkin. Bundan tashqari qurt tuxumining katta-kichikligiga qarab ajratuvchi apparatning loyihasi, kapalaklarni mikroskopdan o'tkazishning tigiz usuli, takroriy qurt boqish uchun qurt tuxumi tayyorlash usullari ishlab chiqildi.

Olimlarimiz tomonidan, yuqorida ko'rsatilganidek, pillachilikda qullaniladigan asbob-uskunalar baholi qudrat ishlab chiqildi. Lekin ularning amaliyotga tadbiq etilish sur'ati qishloq xo'jaligining boshqa sohalariga nisbatan ancha past kechdi. Buning asosiy sababi, ipak qurtining jonli ob'yektdan iboratligi, qurt boqish ishlari ko'p sonli (respublika bo'yicha 600 mingga yaqin) xonadonlarda bajarilishi, uning mavsumiy, ya'ni yil davomida faqat bir marta boqilishidandir.

Hozirgi paytda pillachilikni mexanizatsiyalashtirish darajasi tahminan quyidagicha: pillaga dastlabki ishlov berishdagi ish jarayonlari 40 foiz, qurt tuxumi tayyorlashdagi ishlar 30 foiz, qurt boqishdagi ish jarayonlari undan ham past 12 foiz. Keyingi paytlarda A. Mirzahojiyev va uning shogirdlari tomonidan ipak qurti

tuxumi tayyorlovchi takomillashgan tajriba sexi yaratildi. Mazkur sex mavjud va yangitdan ishlab chiqilgan mashina hamda qurilmalar asosida yaratildi va institutda sinab ko‘rildi. Sinash natijasida pillalarni jinsga ajratishdagi xatolik 3-4 marta kamayganligini, papilonajdagi ish jarayonlarining unumi 1,5 marta oshganligini, papilonaj omboridagi changlar 5-6 marta kamayganligini ko‘rsatdi. Tayyorlangan duragay qurt tuxumlarining toza zot tuxumlari bilan ifloslanish darajasi minimum-gacha kamaydi, natijada pilla hosili foizga va pilladan ipak chiqishi 3 foizga oshdi⁷⁹.

Iqtisod bo‘limi 1927-yildayoq tashkil etilgan bo‘lib, boshqa bo‘limlarga nisbatan shtat birliklari jihatidan ancha kichik. XX asring 30-yillari oxiri va 50-yillarida bu miqdor 3 ta birlikdan oshmagan. 1930-1932 yillar bundan mustasno bo‘lib, o‘sha davrda xodimlar soni 10 tagacha borgan. Laboratoriya xodimlari tomonidan ilmiy ishlarning qator yechimlari ishlab chiqarishga joriy etilgan. Bularning asosiylari quyidagilardan iborat:

— Pilla yetishtirish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradigan yakka tartibdagi xo‘jalik va tomorqalarda qurt boqish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;

— umumlashtirilgan qurt boqish samaradorligi, uni tashkil qilish va mehnatga haq to‘lash usullari takomillashtirildi;

— ilg‘or xo‘jaliklar tajribasini o‘rganish asosida o‘sha paytlarda odat bo‘lgan ixtisoslashgan pillachilik brigadalarini tugatish va tutchilik va qurt boqishdagi barcha ish jarayonlarini paxtachilik brigadalari zimmasiga yuklash bo‘yicha tavsiyalar yaratildi;

— mehnatga haq to‘lashning yangi usullari, jumladan, topshirilgan mahsulotning miqdori va sifatiga qarab haq to‘lash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri pul bilan to‘lash, uning bir qismini oldindan qarz sifatida berib qo‘yish va yaxshi natijalar uchun rag‘batlantirish tadbirlari ishlab chiqildi;

— tutchilik va qurt tuxumi yetishtirishda ish normalari (me‘yorlari) o‘rnatildi;

⁷⁹ Абдуқодиров Ш. Пиллачилигимиз тарихидан лавҳалар..... – Б. 56.

— zot almashtirishning, tezkorlik bilan qurt boqish usullarining, keng qatorli tutzorlarning, qurt tuxumi tayyorlashda termik «usulining iqtisodiy samaradorligining ilmiy asoslari ishlab chiqildi;

— Oʻrta Osiyoda pillachilikni ratsional joylashtirish, qurt boqishning moʻtadil hajmi ishlab chiqildi;

— Respublikada pillachilik yuritishning ilmiy asoslangan tizimi ishlab chiqildi;

— zonalar xususiyatlarini hisobga olgan holda pillachilik mahsulotlari tan-narxini oʻrganish, mehnat xarajatlarini kamaytirish, pillachilikning samaradorligini oshirish omillari ishlab chiqildi.

III bob boʻyicha xulosa

1) Rossiya imperiyasi XVI asrdan boshlab oʻz hududida ipakchilikni rivojlantirishga harakat qildi. Koʻrilgan choralar, berilgan imtiyozlarga qaramay Rossiyada ipakchilik rivojlanmadi. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston oʻlkasi bosib olingach, oʻlkani metropoliya uchun xom-ashyo bazasiga aylantirish siyosatidan ipakchilik ham chetda qolmadi. Rossiyaga har yili katta miqdorda pilla va xom ipak tashib ketildi. Rus sanoatchilari bundan katta daromad koʻrdilar.

2) I jahon urushi ipakchilikka katta zarar yetkazdi. Tez orada Turkiston-da ham hokimiyatni qoʻlga olgan sovet hukumati mustamlakachilik siyosatini davom ettirdi. Pilla yetishtirish va qayta ishlash davlat monopoliyasiga olindi. Qoʻl dastgohlarida mato toʻqish eskilik sarqiti deb eʼlon qilinib, barcha hunarmandlar artellarga birlashtirildi.

3) Sovet hukumati oʻzining butun umri davomida ipakchilikni rivojlantirishga katta ahamiyat berdi. Shuning uchun pilla yetishtirish hajmi yil sayin oshib bordi. Lekin, pillani qayta ishlash va mato toʻqish korxonalari Ittifoq markazida – Moskvada qurilgan

Xulosa

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi yarmida Farg'ona vodiysida ipakchilikni o'rganish, to'plangan ma'lumotlar va materiallarni tahlil etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1) Ipakchilikning paydo bo'lishi masalasi hali to'liq o'rganilmagan. Ko'pchilik adabiyotlarda ipakchilik dastlab Xitoyda paydo bo'lib, so'ng qo'shni o'lkalarga tarqalgan deb yoziladi. Biroq so'nggi arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bundan 4500 yil ilgari Hindistonning Xarappa, miloddan avvalgi XVI – XII asrlarda oid O'zbekistonning Sopollitepa, Bama, Nayzatepa kabi yodgorliklarida ham ipak qoldiqlari topilgani bu hududlarda ipakchilikning qadimdan mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

2) Farg'ona vodiysida Sopollitepa kabi qadimgi davrlarga oid bo'lmasa ham, ammo miloddan ilgarigi II–I asrlariga oid Qorabuloq mozor-qo'rg'onidan ham ipakning qoldiqlari topilgan. Bu yerdagi qablardan topilgan to'qimachilik mahsulotlarining uchdan ikki qismi ipak ekanligi aniqlangan. Bu ipak-gazmollar kamda to'rt xil bo'lgan va ulardan kimxob, kashta juda chiroyli ishlangan. Bundan tashqari Namangan viloyati Pop tumanidagi Munchoqtepa shahar qabristonidagi qablarda (5-8 asrlar) ham ipak matolar topilgan. Munchoqtepa qabrlaridagi gazmol-matolarning deyarli hammasi ipakdan tayyorlangan. Mutaxassislar fikricha, Munchoqtepa ipaklari asosan mahalliy ipak xiliga kiradi. Bu ipak o'rtacha navli, shuning uchun undan to'qilgan ayrim matolar g'adir-budirroq bo'lgan. Bu yodgorliklardan topilgan ipak matolarni tahlil etish natijasida Farg'ona vodiysida ipakka muqaddas bir narsa deb qarashgani va shuning uchun marhumlar yuziga qimmatbaho ipak matosi yopilgani ma'lum bo'ldi.

3) XIX asr 2-yarmi – XX asr 1-yarmida Farg'ona vodiysida ko'plab shaharlar ipakchilik markazlari edi. Ular orasida Marg'ilon shahri alohida ajralib turgan. Farg'ona vodiysida pilla qurituvchi korxonalarining 2/3 qismi Marg'ilonda bo'lgan. Marg'ilon shahri Turkiston o'lkasida ipakka dastlabki ishlov beruvchi

asosiy shahar hisoblangan. Ipakchilik qadimdan rivojlangani uchun Farg'ona vodiysida to'quvchilikning mahalliy maktablari yuzaga kelgan. Butun-butun shaharlar faqat ma'lum turlardagi matoni to'qishga ixtisoslashgan. Masalan, Marg'ilonda abrbandi usulida to'qilgan xonatlas, Namangan shoyi va kanoviz, Xo'jand duriya kabi matolarni to'qishda shuxrat qozongan.

4) Qo'qon xonligining ichki va tashqi savdo aloqalarida ipakchilik mahsulotlari muhim o'rin egallagan. Ichki savdoda to'qimachilik mahsulotlari eng xaridorgir mahsulot hisoblangan. Qo'qon xonligining Buxoro va Xiva xonliklari, Afg'oniston, Eron, Turkiya, qozoq dashtlari, Rossiya va boshqa hududlar bilan olib borgan tashqi savdo aloqalarida asosan Farg'ona vodiysida tayyorlangan ipak va ipak mahsulotlari muhim ahamiyat kasb etgan.

5) Ipakchilik qishloq xo'jaligi va yengil sanoatning muhim tarmog'i hisoblanadi. Pilla yetishtirish Farg'ona vodiysida asriy an'ana bo'lib, deyarli har bir dehqon xo'jaliklarida yordamchi xo'jalik sifatida shug'ullanilgan. Pilla yetishtirishda ibtidoiy usuldan foydalanilgan. Erta bahorda ipak qurti tuxumlari lattaga o'ralib, ko'krakka solib yurilgan. Tuxumdan ipak qurti chiqqach, uni maxsus xonalarda boqilgan. 1902-yilgi ma'lumotga ko'ra, Marg'ilon uyezdida butun dehqon xo'jaliklarining 42.7%i, Qo'qon uyezdida 40.6%i, Namangan uyezdida 48.1%i, Andijon uyezdida 26.7%i, ipakchilik bilan shug'ullanardi.

6) XIX asr 1-yarmidan boshlab, O'rta Osiyoga Rossiya fabrikalarida to'qilgan matolar kirib kela boshladi. Rossiya O'rta Osiyoni bosib olgach, bu jarayon nihoyatda tezlashdi. Rossiya to'qimachilik fabrikalari egalari mahalliy savdogarlar bilan kelishib, mahalliy aholi didiga mos keluvchi matolarni ishlab chiqarishga harakat qilganlar. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mahalliy aholi orasida asosan fabrikada tayyorlangan ip gazlamalar: chit, kolenkor, bo'z, xom surpdan tikilgan kiyim-kechaklarni kiyish rasm bo'lgan. Boy-badavlat kishilar esa, kimxob, ipak, atlas, duxoba, rango-rang movutlarni sotib olganlar. Shunga qaramay, kosiblar dastgohida to'qilgan mahalliy matolarga hamon ehtiyoj katta edi.

7) Rossiya mustamlakachiligi ipakchilik sohasini ham chetlab o'tmadi. Xom ipak katta miqdorda Rossiyaga tashib ketilardi. Rossiyaga ipak tashib ketish yildan-yilga o'sib bordi. Ammo, Rossiyaning o'zi ham bu ipak xom ashyosini qayta ishlashga qodir emasdi. Ipak Rossiyadan Fransiyaning Marsel, Italiyaning Milan shaharlariga yuborilgan va u yerdan tayyor mato holatida yana Rossiyaga qaytarilgan. Faqat mahsulot hajmini oshirishga urinib, sifatga e'tibor bermaslik natijasida XIX asr 80-yillarida Turkiston o'lkasida ipak qurti orasida pebrina kasalligi tarqaldi. Ipakchilik tushkunlikka yuz tutdi. Kelayotgan katta daromaddan quruq qolishni istamagan rus ishbilarmonlari Yevropadan ipak qurtining yangi navlarini Turkistonga keltirib sinab ko'rdilar. Bu samara berib, ipakchilik yana qaytadan rivojlana boshladi. Lekin Farg'ona vodiysi ipakchiligi Yevropaga qaram bo'lib qoldi. Bu I Jahon urushida yaqqol ko'zga tashlanib, ipak ishlab chiqarish keskin kamayib ketdi.

8) Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi, bol'sheviklarning o'lkani ulkan xom ashyo manbaiga aylantirish rejasi ipakchilikni ham chetlab o'tmadi. Pilla yetishtirish, uni qayta ishlash, mato to'qish ham davlat nazoratiga olindi. To'quvchi hunarmandlar majburan artellarga uyushtirildi. Sovet hokimiyati ipakchilik sohasidan katta daromad oldi va ipakchilikni rivojlantirishga zo'r berib harakat qildi. Shu maqsadda ipak qurti seleksiyasi, yangi tut navlarini yaratish, tuzorlarni kengaytirishga katta e'tibor berdilar. Pilla yetishtirish mavsumiy ish sifatida kolxozchilar zimmasiga yuklandi.

9) Ipakchilik o'zbek xalqi hayotida muhim o'rin tutadi. Xalqimiz orasida mashxur bo'lgan "7 xazina"ning biri ipak qurti ekanligi ham, ipakchilikning alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Asrlar davomida hunarmandlar tomonidan ipak mato to'qish va bo'yashning turli usullari yaratildi. Ayniqsa, abr usulida mato tayyorlash, atlas, adras, beqasam, pariposha, kanoviz kabi milliy matolar ajdodlarimiz qoldirgan milliy meros hisoblanadi.

10) Farg'ona vodiysida ipakchilik turli davrlarda rivojlanib, sayqal topib bizgacha yetib keldi. Hozirda O'zbekiston ipak yetishtirish bo'yicha dunyoda

uchinchi, kishi boshiga ipak yetishtirish bo'yicha esa birinchi o'rinda turadi. O'zbek xonatamlari bir necha bor xalqaro tanlovlarda oltin medal bilan mukofotlandi.

Farg'ona vodiysida ipakchilik tarixini o'rganib, ipakchilikning o'lka iqtisodiy va madaniy hayotida naqadar muhim o'rin tutganiga guvoh bo'ldik. Ipakchiligimiz tarixini qog'ozga tushirishni yakunlar ekanmiz, bizning bu yozganlarimizni o'sha tarixning bir debochasi deb qaramoq lozim. Bu ishni mukammal yoritish uchun bir kishi emas, ko'pchilik bo'lib, yeng shimarib ishlash kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

I. Rasmiy adabiyotlar:

- 1.2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 32 б.
- 1.3. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
- 1.4. Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятининг шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. 19- жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 345 б.
- 1.5. Каримов И. А. Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажакимизнинг гаровидир. – Тошкент: Ўқитувчи, 2011. – 144 б.
- 1.6. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 440 б.
- 1.7. Каримов И.А. Бизнинг йўлимиз демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнларини изчил давом эттириш йўлидир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 312 б.
- 1.8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 6 февралдаги ПҚ-2124-сонли “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори / Turkiston. 2014 йил 8 февраль.
- 1.9. Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажакимиз йўлида хизмат қилиш - энг олий саодатдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 290 б.

II. Adabiyotlar:

- 2.1. Абдуқодиров Ш. Ипак қурти. – Тошкент: Фан, 1980. – 84 б.
- 2.2. Абдуқодиров Ш. Пиллачилигимиз тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 2000. – 151 б.

- 2.3. Абдулгазиева Б. О ткачестве древней Фергане / Материалы Республиканской научно-практической конференции «Великий шелковый путь и Ферганская долина». – Ташкент, 2004. – С. 44–48.
- 2.4. Агзамова Г. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик ва савдо. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 52 б.
- 2.5. Агзамова Г. Марғилон хунармандчилигига оид айрим маълумотлар / Марғилон шахрининг Жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. Марғилон шахрининг 2000 йиллик юбелейига бағишланган халқаро илмий конференцияси материаллари. – Тошкент – Марғилон, 2007. – Б.114–117.
- 2.6. Баруздин Ю.Д. Кара-Булакский могильник // КСИЭ. – М, 1957. – Вып. 26. – С. 96–102.
- 2.7. Бартольд В. В. Фергана // В. В. Бартольд. Соч. Т. 3. – М.: Наука, 1965. – С. 527–539.
- 2.8. Богомолов Г. Ошкор бўлган уч сир // Фан ва турмуш. – 2007. – №5–6. – Б. 12–14.
- 2.9. Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи. – Т.: Фан, 1996. – 240 б.
- 2.10. Борнс А. Путешествие в Бухару. Часть III. – Москва, 1848. – 298 с.
- 2.11. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии (пер. З. Д. Голубевой) . – М.: Восточная литература, 2003. – 304 с.
- 2.12. Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском ханстве // Вестник Русского Географического Общества. – СПб., 1856. Т. 18. – С. 131.
- 2.13. Головин И. И. Кустарные промыслы Туркестана // Вестник выставки 1909 г. – Ташкент, 1909. – №1. – 120 с.
- 2.14. Долгорукий Д. Пять недель в Кокане // Русский вестник. – 1871. – №1. – 42 с.
- 2.15. Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. Вып.118. – Москва–Ленинград, 1962. – С. 81–94.

- 2.16. Зиёева Д. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошда чоризмнинг Туркистон моддий бойликларини ўзлаштириш сиёсати // Ўзбекистон тарихи. – 2000. – №1. – Б. 24-32.
- 2.17. Иброҳимов С. Ўзбекистон ипакчилик тарихига доир // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – 1964. – №8–9. – Б. 101–107.
- 2.18. Исҳоқхон тўра Ибрат. Тарихи Фарғона / Нашрга тайёрловчилар: Долимов У., Жабборов Н. – Т.: Маънавият, 2005. – 48 б.
- 2.19. Иоффе Г. Из истории шелководства Средней Азии // Шелк. – 1964. – №3. – С. 24–26.
- 2.20. Коробкова Г. Ф. Отпечатки тканей на керамике (по материалам Делварзина, Эйлатана и Дарауткургона) // Древнеземледельческая культура Ферганы. МИА-118. – Москва–Ленинград, – С. 231–234.
- 2.21. Линде В.В. Отчет о командировке в Туркестан. – Ташкент, 1917. – С. 24.
- 2.22. Лубо-Лесниченко Е. И. Могильник Астана // Восточный Туркестан и Средняя Азия. – М., 1984. – С. 108–120.
- 2.23. Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари тарихи. – Т.: Yangi nashr, 2014. – 174 б.
- 2.24. Мадраҳимов З. Ш. Фарғона водийси шаҳарлари – ипакчилик марказлари. // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Самарқанд, 2013. – №4. – Б. 293-296
- 2.25. Матбобоев Б. Фарғона тўқимачилигининг тарихий илдизлари // Фан ва турмуш. – 2007. – №5–6. – Б. 22–26.
- 2.26. Матбабаев Б., Чжао Ф. Ткани и одежда раннесредневековой Ферганы (по материалам могильника Мунчактепа в Узбекистане). – Пекин, 2010. – 186 с.
- 2.27. Маҳкамова С. Марғилон атласи // Фан ва турмуш. – 2007. – №5–6. – Б. 34–37.
- 2.28. Мавлонов Ў.М. Марказий Осиенинг қадимги йуллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. – Т.: Академия, 2008. – Б. 109.

- 2.29. Миронов А. Кустарная выработка шелковичных изделий в Средней Азии в прошлом и настоящем // За реконструкцию шелководство. – 1931. – № 3–4. – С. 41–44.
- 2.30. Мухамедов М. М. Буюк ипак йўли – маданиятларни бирлаштируви йўл // Ипак. – 1996. – №3. – Б. 54–56.
- 2.31. Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975. – 164 с.
- 2.32. Миддендорф А. Ф. Очерки Ферганской долины. – СПб., 1882. – 604 с.
- 2.33. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – М.: Глав. ред. вост. лит., 1968. – 64 с.
- 2.34. Пажитнов К.А. Очерки истории текстильной промышленности дореволюционной России. – М., 1958. – 420 с.
- 2.35. Петровский Н. О. О шелководстве и шелкоматании в Средней Азии. – Т.: Тип. Военно-Нар. Уп, 1873. – 120 с.
- 2.36. Потанин Н. И. Записки о Коканском ханстве хорунжего Н. И. Потанина // История Казахстана в русских источниках XVI–XX веков. Том VI. – Алматы. Дайк-пресс, 2007 – 300 с.
- 2.37. Поярков Э. Ф. Тутовый шелкопряд. – М., 1929. – 86 с.
- 2.38. Путешествие Мир Иззет Уллы в Кокандское ханство в 1812 г. (пер. Ю. А. Соколова) // Труды Среднеазиатского государственного университета им. В. И. Ленина. Новая серия. – Вып 78. – 1956. – 84 с.
- 2.39. Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И. Очерки искусства Средней Азии. – М., 1982. – 259 с.
- 2.40. Ртвеладзе Э. В. Великий шелковый путь. – Ташкент: ЎЗМЭ, 1999.
- 2.41. Тихомиров А. Основы практического шелководство. – М., 1914. – 104 с.
- 2.42. Трудов М. А., Дегтярь В. И. Производство коконов в Средней Азии. – XX века // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – 1974. – №12. – Б. 30–33.
- 2.43. Филанович М. Занданачи шойи безаклар // Фан ва турмуш. – 2007. – №5–6. – Б. 15-14.

- 2.44. Усмонов М. Маргилон маҳаллий саноатини ривожлантиришнинг айрим масалалари (XX асрнинг 20–30 йилларида) / “Фарғона водийси тарихи муаммолари” мавзусидаги Республика илмий анжумани материаллари. – Наманган, 2012. – Б. 327–330.
- 2.45. Федченко А. П. Путешествие в Туркестан. – Москва., 1990. – 467 с.
- 2.46. Хафизов Н. Шелководство Средней Азии. – Ташкент, 1969. – 108 с
- 2.47. Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Т.: ЎзМЭ, 2007. – 280 б.
- 2.48. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. –Тошкент: ЎзМЭ, 2000. – Т. 1. – 702 б.
- 2.49. Ўзбек миллий кийимлари XIX – XX асрлар / Тўплаб нашрга тайёрловчи, матнлар муаллифи Н.Содиқова. -Т.:Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. – 192 б.
- 2.50. Эгамназаров С., Исроилов А. Ипак қурти уруғи етиштиришда хорижий мутахассисларнинг роли (XIX аср охири – XX аср бошларида Фарғона водийси мисолида) / “Марғилон шаҳри ўтмиши, бугуни ва эртаси” мавзусидаги Республика илмий семинар материаллари. – Фарғона, 2007. – Б. 84–86.
- 2.51. Юровецкий М. И. Десятый год работы Туркшёлка // Среднеазиатский шелк. – 1928. – №2–3. – С. 28–31.

III. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

- 3.1. Мадрахимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари: Тарих фан. номз.. дисс. – Тошкент, Ўзбекистон Миллий Университети, 2009. – 188 б.
- 3.2. Махкамов А. А. Роль города Коканда в развитии экономических связей Средней Азии с Россией сопредельными странами в XIX – начале XX веков: Дисс...канд... ист.. наук. – Т., 1988. – 170 б.
- 3.3. Қўлдошев Ш. Т. Қўқон хонлиги ва Шарқий Туркистон ўртасидаги сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар (XVIII-XIX асрнинг биринчи ярми): Тарих фан. номз. дисс.. – Т.: ЎзР ФА Тарих институти, 2008. – 161 б.

3.4. Сальтовская Е. Д. Северо-западная Фергана в древности и раннем средневековье. Автореф. – Ташкент, 1942. – 124 с.

3.5. Чўллиев Ш. Б. XIX аср охирги чораги XX аср бошларида Рус–ҳинд муносабатларида Ўрта Осиё (“Туркистон тўплами” материаллари асосида):

3.6. Файзиева З. О состоянии шелководства в Узбекистане конца XIX начала. дисс. канд. ист. наук. – Душанбе, 1971. – 29 с.

Тарих фан. номз.. дисс. – Т., 1994. – 124 б.

IV. Internet materiallari:

1. www.ziyouz.com/index.php?option=com_content&task=view&id=4895.
2. engilsanoat.uz/mahsulotlar/ipakchilik-mahsulotlari/
3. ttiti.uz
4. publ.lib.ru